

KIRISH

So 'zning otasi – aql, so'zning bolasi – til.

«Vaqt tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirishni, aholi salomatligini yaxshilash, sog'lom avlodni tarbiyalash, sog'liqni saqlash sohasida Respublikamiz va chet ellarda erishilgan muvaffaqiyat, tajribalarga tayangan holda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlarga mos ravishda uni takomillashtirishni talab etadi» (Islom Karimov).

Tibbiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ularni tanlash va joy-joyiga qo'yish masalalari katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Kadrlarni tayyorlash darajasini Davlat ta'lim andozalariga mos ravishda ko'tarishimiz lozim.

1999-2000 o'quv yilida Respublikamizdagi tibbiyot oliy o'quv yurtlarida oliy ma'lumotli hamshiralar (jarrohlik, anesteziologiya-reanimatologiya, tug'ruq zallarida ishlovchi hamshiralar va boshqalar) hamda tibbiy-pedagogika fakultetlariga ilk talabalar qabul qilindi. Tibbiyot bilim yurtlari bosqichma-bosqich kollejlarga aylantirilmoqda. Agar biz mazkur vazifalarni amalga oshirishga erisha olsak, tibbiyot muassasalari, bilim yurtlari malakali hamshiralarga va o'qituvchilarga ega bo'ladi.

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturida ta'kidlanganidek, aholiga yangicha tibbiy xizmat ko'rsatish, sog'liqni saqlash va salomatlikni muhofaza qilish, qishloqda ko'p bosqichli xizmatdan ikki bosqichli tibbiy xizmatga o'tish, tizimda raqobatni shakllantirish, ya'ni nodavlat tarmoqni rivojlantirish, shu asosda milliy tibbiyotimizni jahon andozalari darajasiga ko'tarishdir.

Oliy ma'lumotli hamshiralar tayyorlash - uzluksiz ta'lim tizimida kadrlar tayyorlovining bir turidir. U O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimining yuqori pog'onasida raqobat qilishga qodir, zamonaviy talablarga javob beruvchi, tanlangan yo'nalish bo'yicha ijodiy, amaliy faoliyatga tayyor yangi kadrlar tayyorlashni ta'minlovchidir.

Oliy malakali hamshiralarni tayyorlashda 5 ta mutaxassislik ko'zda tutilgan - tug'ruq bloki akusheri (doyasi), jarrohlik bloki hamshirasi, anesteziologiya va reanimatsiya bo'lim hamshirasi, hamshiralik ishi menedjeri va hamshiralik ishi pedagogi. Tayyorlovning dastlabki ikki yilida ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisod, tabiiy va umuman, ixtisoslik fanlarni o'qitish jarayoni barcha mutaxassislar uchun yagona tayyorlov dasturi asosida olib boriladi. Faqat tayyorlovning uchinchi yilida tanlangan mutaxassislik bo'yicha amaliyot o'tkaziladi. Ana shu reja asosida Toshkent Davlat tibbiyot akademiyasi tarkibidagi oliy ma'lumotli hamshiralar tayyorlashni amalga oshirayotgan fakultet faoliyati haqida qisqa ma'lumot beramiz.

Akademiyada oliy ma'lumotli hamshiralar o'qitiladigan klinika va kafedralarda talabalarga chuqur bilim berishga qodir, amaliy ishda katta tajribaga ega bo'lgan yuqori malakali professor-o'qituvchilar jalb etilgan bo'lib, zamonaviy texnologiyani qo'lgan holda bilimlarni reyting tizimi va OSKI (ob'ektiv struktur klinik imtihon) bo'yicha baholash asosida dars mashg'ulotlari olib borilmoqda.

Mashg'ulotlar nafaqat klinikalarda, balki akademiyaning 30 ta kafedrasida, shuningdek, diagnostik markazda, ekstragenital patologiya bilan kasallangan ayollarni sog'lomlashtirish markazida, regional neonatologiya markazida, ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasining klinikasi qoshida ochilgan hamshiralar malakasini oshirish O'zbekiston-AQSH markazida, hamshiralar bilan mustaqil ishlash bo'limida va yiringli jarrohlik markazida olib boriladi. Ta'limni Chikago, Vashington, Sietl, Richmond Ostin, De Moyne (AQSH), Ukraina (Lvov), Rossiya (Moskva, Sankt-Peterburg), Tokioda o'z malakasini oshirib kelgan professorial, dotsentlar, vrachlar, tibbiyot hamshiralari va sog'liqni saqlash tizimi mutaxassislari olib boradilar. Tibbiy-amaliy ishlar 24 haftalik malakani oshirish amaliyoti dasturi bo'yicha o'tkaziladi. Klinik amaliyot I-kursda, tibbiy-texnologik amaliyot II-kursda olib boriladi, III-kursda talabalar 14 hafta mobaynida mutaxassislik bo'yicha mahoratlarini oshiradilar. Shuni ta'kidlash joizki, akademiya mo'ljallangan ushbu uzluksiz ta'lim berish rejasi oliy ma'lumotli hamshiralar tayyorlash borasida dunyoviy analogga ega emas.

Oliy ma'lumotli hamshiralar tayyorlash dasturi quyidagicha taqsimlanadi:

1-kurs: Nazariy kafedralarda o'qitiladigan demokratiya va milliy mustaqillik mafkurasi, yuqori madaniyat, huquqiy va ijodiy fikrlash, tarbiya va ta'lim birligini shakllantirishga qaratiladi. Tabiiy va fundamental fanlar birligi, tabiatdan ratsional foydalanishning ekologik tamoyillari, ekologiya tibbiy aspektlari, inson faoliyati, sog'lom turmush tarzining gigiyenik asoslari va sog'liqning sotsial ahamiyati kabi qator bilimlar bilan tanishtiriladi.

Sog'liqni saqlashda menedjmentni tashkil etish, mehnatni ilmiy tashkil qilish asoslari bo'yicha bilimlar beriladi. O'rganiladigan ushbu fanlar maxsus tanlangan sohani va umum

professional faoliyatni o'rganish uchun asos yaratadi. Undan tashqari, biofizika, informatika va informatsion texnologiyalar, to'qima va suyuqliklarning biofizik xususiyatlari, organizmga ta'sir ko'rsatuvchi fizikaviy omillar o'rgatiladi. Bioenergetika, eshitish va ko'rish fizikasi, axborotlarni yig'ish, uzatish, to'plash va qayta ishlash jarayonlarining umumiy tavsifi bilan tanishtiriladi.

Tibbiyot texnikasi, ya'ni optik asboblari, lazer optikasi va xirurgiyasi, elektron va spektroskopik asboblari hamda boshqa apparatlardan keng foydalaniladi. Biokimyo sohasida moddalar almashinuvi (hayot faoliyatining muhim belgisi); biologik suyuqliklar, tuzimlar bioximiyasi o'rganiladi.

Ekologiya va umumiy gigiyena bo'yicha:

- ekologiya va tibbiy yo'nalishlari va gigiyenik talablari;
- ratsional ovqatlanish masalalari;
- kasalxona gigiyenasining tamoyillari va bo'limlarning gigiyenik ko'rsatkichlarini tekshirish usullari, psixogigiyena va hokozolar o'rgatiladi.

Epidemiologiya sohasi bo'yicha dolzarb muammo: kasalxona binosi ichidagi infeksiyalarning oldini olish (profilaktikasi), epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni o'tkazishda hamshiraning rolini yuqori pog'onaga ko'tarish yo'llari uqtiriladi.

Sotsial gigiyena va sog'liqni saqlash tashkiloti:

- aholi sog'lig'i ko'rsatkichlari;
- tibbiy statistika, ish yuritish;
- shifokorlar etikasi, odobi, axloqi va deontologiyasi;
- nutq madaniyati va muloqot san'atiga alohida urg'u beriladi. Sog'lom hayot tarzini targ'ibot qilish muammolari o'qitiladi.

Pedagogika asoslari:

- pedagogik jarayondagi umumgumanitar va milliy qadriyatlar;
- fanlar tizimida pedagogikaning maqsadi, vazifalari va tutgan o'rni;
- O'rta Osiyo faylasuflarning psixologik qarashlari va tibbiyot allomalari, xususan, Abu Ali Ibn Sinoning sohaga oid qarashlarini chuqur o'rganish ko'zda tutiladi. Ta'lim mohiyati, o'qitishning tashkiliy usullari, shaxsiy tarbiya, axloq nazariyasi.

Tibbiy psixologiya: bemor ruhiy faoliyatining asosiy qonuniyatlari, normal va patologik holatlarining chegaralari, kasallikning shakllanishida va davolash jarayonida shaxsning roli. Ruhiiy o'z-o'zini boshqarish va psixoterapiya, hamshiralik ishining asoslari o'rgatiladi. Bemor va sog'lom odamning anatomik, fiziologik, yosh va jinsiy xususiyatlari normal anatomiya va fiziologiya kafedralarida o'qitiladi. Organizmda asosiy patologik jarayonlarning paydo bo'lish sabablari va ularning rivojlanish mexanizmlari patofiziologiya va patanatomiya kafedralarida tushuntiriladi. Ichki a'zolar kasalliklari kafedrasida asosiy klinik simptomlar va sindromlar, ularning paydo bo'lish mexanizmlari va bemorni so'rab-surishtirish, nutq va muloqot san'ati, fizikaviy tekshiruvlar - ko'zdan kechirish, paypaslash, tukillatish, eshitish, arterial bosimni o'lchash, tomir urish xususiyatlarini aniqlash. ba'zi holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatishning asosiy tamoyillari ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasida qoshida tashkil etilgan «hamshiralik ishi va terapiya asoslari» deb nomlangan kursda olib boriladi va o'rgatiladi.

Shunday qilib, shifokorlarni, tibbiy pedagoglarni va oliy ma'lumotli hamshiralarni tayyorlash dastlabki kurslarga mo'ljallangan ta'lim-professional dasturini muvaffaqiyatli o'tgan yoshlar, quyidagi talablarga javob berishlari kerak.

- demokratiya va mustaqillik mafkurasiga, yuqori madaniyatga, huquqiy va ijodiy fikrlashga ega bo'lgan;

- informatikaning tutgan o'rni, uni boyitish usullari, qayta ishlash, tabiiy fanlarning fundamental birligi, inson faoliyatidagi ekologik tamoyillar haqida, fan va texnika, texnologiyadagi kashfiyotlar (kompyuter, telekommunikatsiya va internet) dan foydalanish istiqbollari haqida tasavvurga;

- asosiy ilmiy-texnik sohada erishilgan yutuqlar haqida tushunchaga;

- bemor va uning qarindoshlari bilan bo'lgan munosabatda deontologik tamoyillarga amal qilish, bemor bilan muloqot san'atini o'rganish, shifokor qasamyodini yod bilish;

- ilmiy bilimlarni chuqur o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq etishga erishish;

- bemorga mustaqil, zudlik bilan tibbiy yordam ko'rsatishga, reabilitatsiya, davolash-diagnostik, tibbiy-profilaktik chora-tadbirlarni olib borishda o'z professional vazifasini amalga oshirishga qodir bo'lish;

- bemorning hayoti uchun, eng muhim a'zolari funksiyalarini saqlab turish uchun zamonaviy davolash usullarini qo'llay oladigan, monitoring va narkoz uchun ishlatiladigan apparaturalardan foydalanishni bilish;

- shifokorgacha bo'lgan ko'p yo'nalishli birinchi tibbiy yordam ko'rsatishga qodir bo'lib,

shifokor rahbarligi ostida reabilitatsiya tadbirlarini o'tkaza olish;

- tibbiy yordam ko'rsatishning boshqa shakllarini tashkil qilish, boshqarish rejaları, ona va bolani sogiomashtirish Davlat dastun bo'yicha bilimlarga ega bo'lish;

- sog'liqni saqlashda rahbarlik va menedjment asoslariga tayanib hisob-kitob qilish, ish yuritish aholi salomatligining asosiy ko'rsatkichlarini va davolash-profilaktik muassasalari faoliyatini tahlil qilish bilimi asoslarini qo'llashga tayyor mutaxassislar bo'lib yetishishlari uchun zamin tayyorlanishi kerak.

Tibbiyot bioetikasi va deontologiyasiga bag'ishlangan ushbu qo'llanma barcha tibbiyot institutlari, kollcj hamda litseylari talabalari uchun bemor bilan o'tkaziladigan ilk muloqotda asqotadi degan umiddamiz.

I BOB

NUTQ MADANIYATI USLUBLARI HAQIDA

Kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri ma'naviy va ma'rifiy ishlarni amalga oshirishdir. Shifokorning amaliyoti, bemor bilan muloqoti yuqori ma'rifatli bo'lgan tibbiyot xodimining ma'naviyatiga asoslangandir. Shu o'rinda ma'rifat va ma'naviyat tushunchasini mutaxassislarning nutq madaniyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki tibbiyot xodimlarining barchasi (shifokor, hamshira, ilmiy xodim) to'g'ri, mantiqli, aniq, ta'sirli, ravon gapira olishi juda ahamiyatlidir. Shuningdek, adabiy til me'yorlarini yaxshi o'zlashtirib olishi va bu bilimlarini shifokorlik yoki hamshiralik amaliyotidagi nutqda foydalanish ham maqsadga muvofiqdir.

Kasb-hunarlar sirasida tibbiyot xodimlarining shifokorlik kasbi eng nozigi hisoblanadi. Chunki ular bevosita inson va uning hayoti bilan ishlaydilar. Binobarin, bu ikki tomon nutq vositasi orqali muomala qiladilar. Bu o'rinda «nutq madaniyati» yoki «nutq odobi» iboralarini izohlashni joiz deb bildik. Ma'lumki, «madaniyat» so'zi Madina shahri nomidan kelib chiqqan. O'TIL (o'zbek tilining izohli lug'ati)ning 1 jild, 439-betiga murojaat qilaylik: MADANIYAT - o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifatli bolib jamiyatni ishlab chiqarishda, ijtimoiy va ma'naviy hayotda qo'lga kiritilgan yutuqlari majmuidir.

Endi odob tushunchasining mohiyatini eslaylik. Aslida bu so'z «adab»dir. Ko'rsatilgan izohli lug'at (1 jild. 26-beti)da yozilishicha, adab-jamiyatda, kishilar bilan muomalada o'zini tuta bilish, axloq, tarbiya va uning normalaridir.

Demak, biz ko'zda tutgan nutq tabiiyki, ma'rifat, ma'naviyat bilan va albatta, tib ilmi bilan, «odob» tushunchasi axloq, tarbiya, uning normalari bilan bog'liqdir. «Madaniyat» so'zi esa o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik va ma'rifat kabi tushunchalarni o'zida mujassam etgan.

Fikrimizni asoslash uchun ADABLI so'zining izohini ham keltiramiz. Uning ma'nosi odob-axloq normalariga rioya qiladigan, tarbiyali, axloqli demakdir.

Maqol o'z imkoniyatlarini noto'g'ri baholaydigan kishilarga nisbatan kinoya tarzida qo'llaniladi.

Ironiya (kesatiq) - grek so'zi bo'lib, zimdan kulish, kesatish ma'nosini ifodalaydi. Notiq so'zning o'z ma'nosiga zid ravishda qo'llab, biror kishining qiligi yoki biror hodisa ustidan kesatadi, masxaralab kuladi.

-Sen bu ishni bajarishda xo'b jonbozlik ko'rsatgandirsan?!

Tibbiyot xodimlari esa o'z nutqlarida imkon qadar allegoriya va ironiyadan ehtiyotkorlik bilan foydalanishi yoki umuman qo'llamasliklari maqsadga muvofiqdir.

Shoir E. Vohidov aytganidek, «qoyil» so'zining ma'nosini turlicha ta'riflash mumkin. Chunonchi: qoyil - juda yaxshi, qoyil - chiroyli, go'zal; qoyilman - tan berdim; qoyil - boplading, yashavor; hamma qoyil - hayratda. Bu bir ohang.

Boshqa ohangida tamom teskari ma'no. E, qoyil - shu ham ishlash, shu ham odamgarchilikmi? Qoyil qildingiz- ishni buzingiz, odamni uyaltirdingiz. Qoyil bo'ldi - rasvo bo'ldi.

Shu birgina «qoyil», «qoyil bo'ldi» so'zi va so'z birikmasi orqali o'nlab ma'noni ifodalash mumkin. Mana shu o'nlab ma'noni o'ziga xos ohanglar bilan tasvirlay olgan kishining nutq madaniyatiga qoyil qolish mumkin boiadi.

Demak, qisqa, aniq, lo'nda, shuningdek, go'zal nutq so'zlay olish uchun turli badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanish samarali natija beradi.

So'zlashuv jarayonida turli xil nutq uslublariidan foydalaniladi. Til uslublari asosan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. So'zlashuv uslubi.
2. Rasmiy ish qog'ozlari uslubi.
3. Ilmiy uslub.
4. Publitsistik uslub.
5. Badiiy nutq (uslub).

So'zlashuv uslubi. Bu uslubga erkin muomala doirasida amal qilinadi. Norasmiyligi va shevaga boyligi bilan ajralib turadi. Bu uslub maxsus tayyorgarlikni talab etmaydi. Uning ma'lum vazifa yoki yuklamasi yo'q. Shuningdek, jumla sintaktik jihatdan to'liq bo'lishi ham shart emas. Sovuqmi? (Ko'cha yoki choy sovuqmi?) kabi. Lekin bu nutq uslubida tin olish, ohang, mantiqiy va so'z urg'usi, fikrdagi his-hayajonni uzatishda ahamiyati katta.

Nutqda tovushlarning uyg'unlashuvi (assimilyatsiya: ketdi-ketdi): bir tovush o'rnida ikkinchisining talaffuz qilinishi (dissimilyatsiya: maktab-maktab); tovushlarning o'rn almashishi (metateza: tuproq-turpoq) va boshqalar so'zlashuv uslubiga xosdir.

Bo'g'in, so'zlar qisqartirilishi so'zlashuv uslubiga oiddir. Masalan, Mamat - Muhammadjon, Abdurahim - Rahim, Rahima - Rahi kabi.

Nutqda metonimiya ko'p qo'llaniladi: Auditoriya charchadi - Auditoriyadagi talabalar charchadilar

Rasmiy ish qog'ozlari uslubi. Bu uslub hozirgi o'zbek adabiy tiliga xosdir. U ma'muriy va yuridik quvvatga egadir. Bu uslubda fikr aniq va bir xil qolipda ifoda etiladi.

Qonun matnlari, farmonlar, buyruq va qo'llanmalar, shartnomalar, ijozatnomalar, aktlar, turli rasmiy hujjatlar, tashkilotlararo yozishmalar, yuridik hujjatlar, ma'lumotnoma, bayonnoma va boshqalar rasmiy ish uslubida yoziladi.

Talabalar ariza, ishonchnoma, tushuntirish xati, bayonnoma, bayonnomadan ko'chirma, dorinoma, kasallik tarixi, kasallik varaqasi kabi o'nlab rasmiy ish qog'ozlarini to'g'ri to'ldirish va yozish ko'nikmasini egailashlari zarur.

Bu kabi hujjatlarda qolip jumlar mavjud bo'lishi bilan birga ular har qanday his-hayajondan xoli bo'lishi talab etiladi. O'nlab atama va iboralar rasmiy ish qog'ozlari uslubiga tegishlidir. Masalan: bayonnoma, qarov, shartnoma.deklaratsiya; ma'lumotnoma berildi shu haqidakim... biz quyida imzo chekuvchilar... kabi.

Rasmiy ish qog'ozlarida fe'llar majhul nisbatda qo'llaniladi. Xususan, hukm chiqarildi; buyruq shaklida - bajarilsin, yuklatilsin kabi.

Ilmiy uslub - fan, texnika va ishlab chiqarish bilan bog'liqdir Maqola, monografiya, ilmiy ma'ruzalar qat'i ravishda ilmiy uslub asosida yoziladi.

Ilmiy-ommabop uslub ilmiy uslub sirasiga kiradi. U ilmiy ma'lumotini, axborotni ommabop qilib yetkazishga xizmat qiladi. Ilmiy uslub. tabiiyki, har bir alohida fan yo'nalishida o'ziga xos atamalar, iboralarga boy bo'ladi. Tibbiyotda kasallik nomlari, tibbiy atamalar, dori nomlari kabilarning bo'lishi odatiy holdir.

Ilmiy uslubning o ziga xos belgilari bor:

1. Axborotning ob'ektivligi, aniqligi.
2. Ma'lumotlarning izchilligi, ularning ko'pligi.
3. Fikrning qisqa ifodalanishi.
4. So'zlashuv uslubi va sheva belgilarining mutlaqo ishtirok etmasligi.

Yuqorida sanalgan belgilari bilan yana ta'kidlash kerakki, ilmiy uslub boshqa uslublardan keskin farqlanadi. O'zni kelganda aytish kerakki, ilmiy asarlar, dissertatsiyalar, yoki ilmiy (ommabop) maqolalarda muallifning kamtarligi tufayli «men» kishilik olmoshi o'rnida «biz» shakli qo'llaniladi.

Publitsistik uslubdan asosan xabar, reportaj, maqola, ocherk, feleton, pamflet kabilarni yozishda foydalaniladi. Bu uslubda rasmiy yoki ilmiy uslubda bo'lishi mumkin bo'lmagan his-tuyg'ularga berilish mumkin. Bayonda qoliplardan nari ketib, badiiy tasvir vositalardan keng foydalaniladi. Lekin ifodalar atamalar vositasida lo'nda, aniq ishtirok etadi. Hayotdagi ijtimoiy-siyosiy voqealar zudlik bilan publitsistik uslubda yoritiladi.

Publitsistik uslubga doimiy epitetlar (munosib ulush, tarixiy o'zgarishlar, og'ishmay amalga oshirish); badiiy nutqqa xos tantanavor so'z, so'z birikmalari (muhtasham bino, ulug'vor zafar quchish) kabilar xos.

Badiiy nutq uslubi o'zida estetik yuklamani saqlaydi. Bu uslubda muallif o'ziga xos (individual)likni namoyon qilishi mumkin.

O'zbek adabiy tiliga sheva, arxaizm, oddiy so'zlashuv tili belgilari xosdir.

Tilimiz taraqqiyoti, yangiliklari aynan shu badiiy nutq uslubi vositasida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, nutq madaniyatiga doir ushbu ma'lumotlarni xulosalaymiz. Shifokorlar

haqiqiy ziyoli sifatida nutq madaniyati ko'nikmalarini chuqur o'zlashtirgan holda tibbiy amaliyotlarini amalga oshirsalar bemorlar dardiga so'z orqali tezda ta'sir etuvchi malhamga ega bo'lardilar.

SHIFOKORNING NUTQ MADANIYATI

Bilgilki, odamzodning sharafi nutqi bilan va nutq odobiga rioya qilmagan odam bu sharafdan bebahradir.

Husayn Voiz Koshifiy

Nutq - fikrimiz, bilimimiz, munosabatlarimiz va dunyoqarashimizning so'zlar orqali ifodalanishidir. So'z - bu qurol, so 'z - bu tig', so 'z - bu malham. So 'z ko 'rkimiz, mohiyatimiz, madaniyatimizdir.

Qadimdan so'z buyuk shifobaxsh kuch-qudratga ega bo'lib kelgan. So'z odamzod zabanidagi eng aziz gavhardir. Mashhur yunon hakimi Buqrot «Inson ruhini davolamay, tanga shifo berib bo'lmaydi», deb ta'kidlaganida aynan «so'z»ni nazarda tutgan. Darhaqiqat, turli kasalliklar ruhiyatda u yoki bu o'zgarishlarni vujudga keltiradi, bu esa bemorlar bilan bolgan muloqotda o'z ifodasini topadi. Inson aqliy va fiziologik faoliyatining mevasi - nutq orqali bu muloqot namoyon bo'ladi. Zamonaviy tibbiyotda shifobaxsh omil sifatida so'zning ahamiyati yanada ortdi. Turli davrlarda nutq madaniyatiga doimo katta e'tibor bilan qaralgan. Nutq madaniyatiga, bemor bilan muloqot san'atiga bekamu ko'st, mohirona amal qilish oson emas. Bu tibbiyot xodimidan yuksak ruhiy manbani, yuqori madaniyatni, o'ta nozik darajadagi sezgirlikni, bilimni, matonatni va hatto ba'zida aktyorlik darajasidagi mahoratni talab qiladi.

Qadimgi hind tabibi Sushruta: «So'z muloyim, yoqimli va umidvor qila oladigan, ruhga taskin berguvchi bo'lmo'g'i lozim», deb yozgan edi. Bu fikrlar hozirgi zamonda ham dolzarbdir.

Abu Ali ibn Sinoning zamondoshi Muhammad Zakariyo ar-Roziy «Tibbiyot hikmatlari» asarida shunday yozadi: «O'zini tib olamiga bag'ishlagan inson eng avvalo, bilimli, kamtarin, insonparvar, haqparvar, mulohazali, fahm-farosatli, istalgan masalaning mohiyatini tushuna oladigan bo'lishi lozim». Bu ta'rifga sazovor bo'lish uchun tibbiyot xodimidan katta bilim sohibi bo'lish talab qilinadi. Buning uchun shifokor va hamshira tib ilmlarini egallabgina qolmay, balki adabiyot, san'atni bilishi, nutq go'zalligini takomillashtirishi lozim. Nutqning vazminligi, yorqinligi, go'zalligi va hikmatliligidan tashqari, shifokor va hamshira uchun nutqdagi xulq-atvor, uslub, ohang, dadillik, ma'lum darajada chiroyli talaffuz ham muhimdir. Shifokor va hamshiraning nutqi dalilga asoslangan va ishontiruvchan, bemorni o'ziga rom qilib oladigan, aytgan tavsiya va ko'rsatmalariga rioya qilishga undaydigan bo'lishi kerak. Shifokorning fikri maqsadli, izchil bo'lishi, bemor uning so'zlaridagi kuchni, asoslanganlikni hamda o'zi haqidagi g'amxo'rlikni sezishi kerak. Tajribali shifokor kitob, she'r mutolaa qilayotganida, teatrga borganida oqilona jumlar, she'riy satrlarni yodda tutishga harakat qilib, ularni bemorlar bilan bo'ladigan suhbatlarida qo'llay oladigan bo'lmo'g'i darkor. Bemorlar bilan suhbatda shifokor xalq donishmandlarining hayotni sevish, kelajakka ishonch haqidagi qisqa, yorqin ifodalangan maqollardan va o'gitlardan ham foydalanishi kerak. *Bir so 'z bilan aytganda, keng ma 'lumotga egalik, his-tuyg'ularni tarbiyalash, xususan, nutq madaniyati bemorlar bilan mohirona va ta 'sirliso 'z orqali aloqa o 'rnatishning asosidir.* Nutqning ohang ifodasi, talaffuzi ayniqsa muhimdir. Suhbatda keskin, qo'pol, baland ohangda gapirish bemor bilan iliq munosabatni o'rnatishga xalaqit beradi. Bu to'g'rida nemis faylasufi Gegel shunday degan edi: «Ovozning xush ohangligidan gapirayotgan odam qalbining go'zalligini, uning ovozidagi qo'pollikda esa unga xos bo'lgan qo'pol hissiyotni anglab olish mumkin» Shifokor va hamshira butun hayoti davomida nutqining aniqligi, o'tkirligi, go'zalligi ustida ishlashi kerak. Bu holat shifokor kasbi va bemorlar bilan bo'ladigan jonli muloqoti uchun zarurdir. Afsuski, ayrim tibbiyot xodimlari o'rtasida nutq madaniyatiga ega bo'lish mutaxassis - psixoterapevtning vazifasi, oddiy terapevt yoki jarrohning bundan boshqa tashvishlari ko'p va ular «so'z ustasi bo'lishlari shart emas», degan fikr bor. Yo'q, nutq madaniyatiga ega bo'lish har bir tibbiyot xodimi uchun juda zarurdir.

Mashhur olim, atoqli fan arbobi G'aybulloh as-Salom aytganlaridek: «Dilingizning bir uchiga tugib qo'ying: dunyoda eng arzon va eng qimmat narsa - bu lutf. Shu qadar arzonki - tekin. Shu qadar qimmatki - bebaho».

So'z Sizning ichingizda ekan, u Sizning qulingiz. Tashqariga chiqqanida esa Siz o'zingiz uning quliga aylanib qolishingiz hech gap emas. Aytilgan so'z - kumush, aytilmagani - oltin. Bu bilan tolibi ilmlar indamas, soqov bo'lsin, demoqchi emasmiz, aslo. Gap qayerda va nima deyish, qanday aytish haqida borayotir. Bahs madaniyatini ham egallash kerak. Amaliy

mashg'ulotlar, mashvaratlar (seminarlar), yotoqxon va boshqa jamoat joylarida bo'lib turadigan munozaralarda tanqidiy fikr bildirayotganda qizishmaslik, odob saqlash, nihoyatda ehtiyot bo'lish darkor. Mayda, nazarnigor bir uchqun katta alanga olib ketishi mumkin. Nosog'lom ehtiroslarning qo'zg'alishi, nomatlub mayllarning g'olib kelishiga sababchi bo'lishdan tiyiling. Arablarda shunday maqol bor; ikki jag' orasiga ehtiyot bo'lgan - balodan xoli.

So'z mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiy buyurmishlar:

Xub el bila suhbat tutubon xub o'lg'il,
Yaxshini talab qilgilu matlub o'lg'il,
Shirin so'z ila xalqqa marg'ub o'lg'il,
Yumshoq de hadisingniyu, mahbub o'lg'il.
Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar.
Har nechaki axyor durur yor aylar.
So'z qotili el ko'nglini ozor aylar,
Yumshoq ko'ngillarni giriftor aylar.

Inson tabiatiga xos yomon xislatlardan biri - andishasizlikdir. Andisha. Mumkin qadar birovning, xususan, bahslashuvchi tomonning dilini og'ritmaslik, bil'aks, ko'nglini ovlash odob taqozosidir. O'zaro bahslashar ekansiz, qo'rslik, qo'pollik qila ko'rmang. «Bekor aytibsan», «uyat», «yolg'on», «bo'hton», «nodonsan» degan so'zlarni aytishdan tiyiling. Qarshingizda turgan muqobil sherikni haqorat qilish bu o'z-o'zingizni haqorat qilishingiz bilan barobar. O'zingizni shunday tutingki, qo'rslik qilgani uchun suhbatdoshning o'zi uyali qolsin. Haqoratga haqorat bilan javob qaytarish har kimning qo'lidan keladi, haqoratni «eshitmaslik», uni yutib yuborish yoki raqibga «yumshoq hadis» bilan javob qilish uchun esa kishidan katta aql talab etiladi. Xalqimiz deydi: so'zlovchi nodon bo'lsa, tinglovchi dono boiishi kerak; kim mard - o'zini-o'zi yenga olgan mard! Bu ilmlarni, bunday axloqni biz sohibqiron Amir Temurdan, Zahiriddin Muhammad Boburdan o'rganaylik. Mirzo Abdulqodir Bedilda shunday ajoyib satrlar bor:

Har ko'zki, agar olmasa ibrat, ko'rdir,
Har luqma, agar bermasa lazzat, sho'rdir.
Har tun, agar o'zgarmasa, to'nmas, u kafan.
Har xonaki, birdek turaversa, go'rdir.

Achchiqni achchiq kesadi, deydilar. Lekin hamma vaqt ham shunday bo'lavermaydi. Achchiq achchiqni... chaqiradi. Achchiqqa qarshi achchiq qo'llasangiz, hammayoq battar taxirlashib ketadi. Hadisi sharifda aytiladi: «Agar birov sizni sizda yo'q ayblar bilan ayblasa, siz uni unda bor ayblar bilan ayblamang».

Zero, I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan kurashish zarur».

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, so'zning ta'siri benihoya katta. Bu o'rinda quyidagi rivoyatlarni keltirish mumkin.

1-RIVOYAT: Kunlardan bir kun Sulton Husaynning saroyida katta ziyofat bo'libdi. Gapdan gap chiqib, podshoh Alisherning aytgan so'zi uchun Mir Alisherga ikki ming tanga in'om etganini aytib bergan ekan, buni eshitgan boshqa vazirlar janjal qo'zg'abdilai. Ular podshoga arz qilib:

- Taqsir, har safar Mir Alisherga bir og'iz dono so'zi uchun ming tanga berilar edi, endi esa ikki ming tanga beribsiz! Nima uchun bizlarga ham ikki ming tanga berilmaydi? Yo bu iltifotga loyiq emasmizmi?

Podsho ularga qarab:

- Agar mening savollarimga to'g'ri javob topsalaring, o'sha ikki ming tanga sizlardan

aylansin. Olsalaring, olaveringlar, mening sirayam qarshiligim yo'q, - debdi.

- Mayli, bizlar ham topamiz! Qancha savol bo'lsa beravering, olampanoh.

Sulton Husayn vazirlariga qarab turib, ko'rsatkich barmog'i bilan boshini ko'rsatibdi. Hech narsaga tushunmagan vazirlar bir-birlariga qarashib, angrayib turaveribdilar. Shu payt Mir Alisher o'sha barmog'i bilan tilini ko'rsatibdi.

Sulton Husayn hamon bezrayib turgan vazirlariga qarab:

- Men boshimni ko'rsatdim, Mir Alisher esa barmog'i bilan tilini ko'rsatdi. Shuning ma'nosini topib kelinglar, - deb buyuribdi.

Vazirlar uch kun muhlat so'rab olibdilar. Uch kun o'ylab-o'ylab, baribir hech qanday natija chiqarolmay, axiyri Mir Alisherning yoniga borib, boyagi imo-ishoraning ma'nosini so'rabdilar.

- Agar har qaysingiz ming tangadan bersangiz, mayli, aytib bera qolay, - debdi Mir Alisher.

Qirq vazir qirq ming tangani sanab bergach, u imo-ishoraning ma'nosini so'zlab beribdi.

- Sulton boshga balo nimadan keladi, deb so'radilar. Men har kishining boshiga balo kelsa, o'zining tilidan keladi, deb javob berdim.

Buni eshitgan vazirlar saroyga qarab yuguribdilar, Podshoning oldiga borib, biri-biriga gal bermay, «Men topdim, men topdim!» -deb gap talashib qolibdilar. Sulton Husayn ularni tinchlantirib, gap so'rasa, ular boyagina Mir Alisherdan eshitgan gaplarini oqizmay-tomizmay aytib berishibdi. Podsho ularning so'zlariga ishonqiramay:

- To'g'risini aytinglar, bu so'zlarni kim o'rgatdi sizlarga? - deb so'rabdi.

- O'zimiz topdik, taqsir! - deyishibdi vazirlar.

Podsho vazirlarning yolg'on gaplaridan achchiqlanib, hammasini o'limga buyuribdi. Shunda qo'rqib ketgan vazirlar bu gaplarni Mir Alisher o'rgatganini aytib berishibdi.

Sulton Husayn vazirlariga qarab, kulib turib:

- Men Mir Alisherga ikki ming tanga bersam, sizlar uning bir og'iz so'ziga qirq ming tanga beribsizlar-da! - debdi.

2-RIVOYAT: Qadim-qadimlarda oqil va odil bir odamning suluv qizi bo'lgan ekan, shu qizga ikkita yigitning ishqiy tushibdi. Qiz ulardan qaysi biriga ko'ngil berishni bilmay qolibdi. Yigitlar qizning visoliga yetishish ilinjida yelib-yuguraverishibdi. Nihoyat, qiz ularga shunday debdi: «Men yurt farzandi bo'la oladigan o'g'ilga ona boiishni istayman. Uni qanday tarbiyalashga qodirliklaringni bilishim kerak. Ana shunga qarab, sizlarga qarorimni aytaman», - debdi.

«Bu ish faqat mening qoiimdan keladi, men unga ilm o'rgataman: riyoziyot (matematika)dan, falakiyot (astronomiya)dan saboq beraman. Siyosat bilan shug'ullanishni o'rgataman. Ajnabiy tillarni egallashga yordam beraman. U olamga dong taratadi», debdi birinchi yigit.

Navbat ikkinchisiga kelganda, u aytibdi:

«Avloddan-avlodlarga meros qoladigan asosiy boylik - til. Ona tili bor ekan, Vatan bor. Xalqning umr o'lchovini til be'lgilaydi. Dunyodagi bor go'zallik - sehrlil onalarni eshitmoqlik til bilan, maqsadimni anglagandirsan? Men o'g'limni ona tiliga xiyonat qilmaslikka, qo'shiq, ertak, dostonlar aytib, mana shu ona tilimiz uchun jonini ham ayamalikka o'rgataman».

Bu gaplardan birinchi yigit qahqaha urib kulib, raqibini aqli pastlikda ayblabdi, o'rtadagi tortishuv janjalga aylanibdi. «Janjallashmanglar, - debdi qiz, - yurtimizda ulug' donishmand bor, o'shaning huzuriga boramiz, hammasi o'sha joyda hal qilinadi. Uning hukmi mening uchun qonun bo'ladi». Ular donishmand yoniga borishibdi. U nizo qo'zg'agan barcha gap-so'zlarni tinglabdi-yu, «aqli past» yigitga debdi: «Qiz seni sevadimi-yo'qmi, bilmayman. Lekin otalik sharafiga sen loyiqsan...».

Tilni asrab-avaylash har bir kishining insoniylik burchidir. Shukrlar bo'lsinki, respublikamizda ona tilimiz-o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. Bu o'zligimizni anglashga olib kelmoqda, kelgusida o'zbek tilining yanada taraqqiy etishiga yo'l ochilmoqda. Har bir o'quvchi o'z ona tilini mukammal o'rganishi lozim, chunki tilga e'tibor elga e'tibordir.

Donolar aytibdilar: «Ey farzand... So'z to'rt na'v bo'ladi: birinchisi bilishga va aytishga hojati yo'q so'zlar; ikkinchisi bilishga va aytishga zarur bo'lgan so'zlar; uchinchisi bilishga zaruri yo'q, ammo aytsa bo'ladigan so'zlar; to'rtinchisi- bilsa bo'ladigan, ammo aytishga hojati yo'q so'zlar.

Ammo aytiladigan va bilinadigan so'z shunday bo'ladiki, dunyoning yaxshiligi shu so'zga bog'liq bo'ladi. Bunday so'z dunyo uchun foydalidir. Bunday so'zning aytuvchiga ham, eshituvchiga ham ko'p manfaati bor.

Bilish mumkin-u, gapirish mumkin bo'lmaydigan so'zlar shunday bo'ladiki, bir do'st kishining aybi senga ma'lum bo'ladi. Aql tomondan o'ylagan vaqtda uni aytish behayollikdir. Shu aybni aytsang, do'stingni jahli chiqadi, u sendan xafa bo'ladi yoki o'z boshingga katta g'avg'o orttirib olasan, shuning uchun bu so'zni bilish kerak, ammo aytmaslik lozim...

Ey farzand, hamma vaqt to'g'ri so'z gapir... Shoshilishdan qochgil... Har bir gapga quloq

sol, tezlik qilma. O'ylamasdan so'zlama, har bir so'zni... o'ylab gapir, to aytgan so'zingdan pushaymon bolmagaysan... Sovuq so'z so'zlama. Sovuq so'z bir urug', undan dushmanlik hosil bo'ladi».

Donolar hikmatlari asnosida so'z atalmish zar-oltin yoinki cho'g' bilan qanday munosabatda bo'lgan ma'qul? Bu haqda quyidagi bandlar orqali ma'lumot olish mumkin:

1. Bir kishi so'z boshlaganda, juda zarurat bo'lmasa, tashlab ketmang, oxirigacha eshiting. So'zlagan vaqtingizda qichqirmang, qizishib ketmang, odob, tarbiya doirasidan chiqmang.

2. Yolg'on aralashtirib so'zlamang, to'g'ri so'zlang, hech kimni g'iybat qilmang, bironing gapini orttirib, ko'paytirib so'zlamang.

3. Tilingizni yomon so'zlarga o'rgatmang, eshitgan hamma gapni to'g'ri deb ishonavermang, tekshiring, to'g'ri bo'lsa so'zlang. Nutqingizni juda cho'zib yubormang.

4. Yig'ilishlarda biror kishi haqida noloyiq so'zlar aytmang. Boshqalarga gap bermasdan faqat o'zingizgina so'zlab, hammani bezor qilmang, odamgarchilik so'zda emas, balki amalda ekanini unutmang.

5. Ota-bobongizni, o'zingizni hadeb maqtab, kerilib yurmang. Kamolotdan, ya'ni mukammallikdan mahrum bo'lgan odamga quruq so'z bilan maqtanib yurish soyasida kamolot kelmaydi.

6. Biror narsa to'g'risida so'rasalar, qo'pollik bilan emas, odob tarbiyasiga rioya qilib javob bering. Tinglovchi kishi so'zingizni yana qaytarib aytishni so'rasa, yo'q demay, qaytarib ayting.

7. Agar bir voqea to'g'risida gapirmoqchi, fikringizni bayon qilmoqchi bo'lsangiz, avvalo yaxshilab o'ylab, tarbiya odobiga rioya qilib, muloyimlik bilan so'zga kirishing, so'zingizni qasam ichib quvvatlamang, o'z fikringizga o'zingiz hayron bo'lib qolmang, o'z fikriga hayron bo'lish - nodonlar odati, qasam ichib: «Mening so'zim to'g'ri», - deb da'vo qilish yolg'onchilik alomatidir.

8. Zaruriyat bo'lmasa, qayg'u-alamli xabarlarini so'zlamang. Hikoya yo'li bilan bo'lsa ham odob, tarbiyaga qarshi bo'lgan so'zlarni og'zingizga olmang. Zimmangizga omonat qo'yilgan sirlarni fosh qilmang.

9. Hech kimni yomon so'zlar bilan tilga olmang, ta'na va tuhmatdan uzoq bo'ling, jamoa oldida ikki kishining pichirlab so'zlashuvi odobsizlikdir, buni yodingizdan chiqarmang.

10. Ota-bobolarimiz, «Yaxshivso'z-jon ozig'i, yomon so'z-bosh qozig'i» deganlar. Bobolarimizning bu hikmatli so'zlariga amal qiling, hamma bilan yaxshi muomalada bo'ling, hech kimning diliga ozor bermang, yaxshilik qilishni o'zingizga odat qilib oling. To'g'rilik sizga yo'ldosh bo'lsin, egrilikdan uzoq yuring.

Donishmandlar quyida aytilgan o'n to'rtta axloqiy fazilatni inson uchun eng kerakli fazilatlar deb hisoblaganlar:

Sukut - o'zingga ham, boshqalarga ham hech bir foydasi tegmaydigan oldi-qochdi so'zlarni so'zlashdan qoch, jim bo'l.

Intizom - ishlaring tartibli, intizomli bo'lsin, ishingni o'z vaqtida bajar, kechiktirma.

Maqsad - bir ishga kirishmoqchi bo'lsang eng avval yaxshilab o'yla, shu ishdan kutgan maqsading nima ekanini yaxshi tushun, bir qarorga kel. Keyin qarorlashtirgan ishingni hech bir kamchiliksiz ado qil.

Tejash - iqtisod, ya'ni tejashga rioya qil, isrofdan saqlan.

Sa'y va shug'ullanish - doimo foydali ish bilan mashg'ul bo'l, kerak boimagan narsadan chekin.

Matonat - ishingda chidamli, matonatli bo'l. Hiyla-nayrang ishlatishdan hazar qil, tushunchang pok, sof va haqqoniy bo'lsin, tushunganing kabi so'zla va ishla.

Haqqoniyat, to'g'rilik- adolat va haqqoniyatni o'zinga rahbar qilib ol, hech kimga zararni qasd qilma.

Nazokat - kir, ifloslikdan hazar qil, vujuding, libosing, uy-ish joyingning toza, pokizaligiga diqqat qil.

Qalb uzri - mayda muvaffaqiyatsizliklardan xafalanib, salomatligingni buzma, qalbing huzur va rohatini ko'zla.

Iffat - adabli, sharm-hayoli, nomusli bo'l. Bu go'zal xislatlardan ajralma.

Tavoze - o'zingni kamtar tut, tavoze sharaf va izzat bosqichi ekanini unutmang.

Muloyimlik - sabrli, muloyim, ochiq yuz, shirin so'zli bo'l. Hech kimga qo'pol muomala qilma.

Xulosa: yuqorida zikr etilgan o'n to'rtta axloqiy fazilat bilan o'zingni orasta qilsang, bemorning muhabbatini o'zingga jalb etasan, hamma senga hurmat nazari bilan qaraydi.

Yaxshi so'zlash ham buyuk san'atdir. Har narsaning chegarasi bo'lgani kabi, kishi faoliyatining barcha qirralari, jumladan, so'zlashish san'atining ham odob doirasi bor. *Yaxshi,*

shirin, odobli so'zlashish uchun quyidagilarga e'tibor berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. So'zning mantig'i, go'zailigi va boyligi insonning jamiyatda o'z o'rnini topishida, kishilar hurmatini qozonishida muhim ahamiyat kasb etadi. So'zlari sermazmun, muloyim kishilarning gapini boshqalar miriqib tinglaydi.

2. Shirinsuhanlik, go'zal notiqlik san'atiga ega bo'lish ham baxtdii -nutqi shirin kishilarning do'sti, yoru birodarlari ko'p bo'ladi. Shirin va oqil so'z - umr ozig'i va do'stlikning mustahkam kalitidir.

3. Shirinso'zlik kishi umrini uzaytiradi. Bu fazilatga badiiy asarlarni o'qish va nutqni mashq qilish orqali erishish mumkin.

Buyuk allomalar Jomiy, Lutfiy, Navoiy, G'alur G'ulom, Oybeklar ko'plab o'qish, o'r ganish orqali so'z san'atkorlari bo'lib yetishganlar.

Kishi xalq og'zaki ijodi namunalaridan, ya'ni ertak, hikoya, rivoyatlarni ko'p o'qisa, tinglasa ham so'z boyligi ortib, shirinso'z va ma'noli gapiradigan bo'ladi.

4. So'zlashish me'yorini ham bilish kerak. Ko'p gapirish odobdan emas. Sukut saqlash yaxshi odob, so'zni qisqa, aniq ifodalash katta san'atdir. So'z - gavhardir. Gavhar esa noyobdir.

Yaxshi so'zing husningga kamoldir,

Yomon so'zing iqbolingga zavoldir.

Taniqli adabiyotshunos olim - professor Anvar Hojiahmedov yozadi: «Buyuk insonparvar shoir Navoiyning ushbu purmazmun ruboiysi yaxshi xulq, shirin so'z qadridan bahs etadi. Hazrat o'zlarining «Mahbub-ul qulub» pandnomalarida yozibdilar: «Xushgo'ykim so'zni rifq va muvoso bila aytg'ay, ko'ngul g'am keladurg'on bo'lsa, aning so'zidin qaytg'ay. So'z dadur har yaxshilikni imkoni bor. Mundin debdurlarki, nafasning joni bor. Masiko, kim nafas bila o'lukka jon berdi, go'yo bu jihatdin erdi». Ya'ni: «Shirinso'z odam har bir so'zni muloyimlik bilan, kelishtirib aytadi va ko'ngilga keladigan yuz g'am uning so'zi bilan qaytadi. So'z bilan har qanday yaxshilikni ro'yobga chiqarish mumkin. Shu tufayli nafasning joni bor, deyishadi. Masih, ya'ni Iso payg'ambar, o'z nafasi bilan o'liklarga jon bag'ishlaydi, deganlari shu sababdandir. Shoir demoqchi: Iso payg'ambar o'liklarga jon bag'ishlagan degan rivoyat uning shirin so'zli bo'lganiga ishoradir.

Aksincha, achchiq so'zni shunday ta'rifladi ulug' shoir:

«Ul ko'ngulkim, qattiq so'z din reshdek bo'lg'ay, achchig' til zakrolud neshdek bo'lg'ay. Ko'ngulda til sinoni jarohati butmas, anga hech nima marham yerin tutmas. Har ko'ngulki, til sinonidin jarohatdir ham yumshoq so'z va shirin til anga malham va rohatdur».

Ya'ni: «Qaysi bir ko'ngul qattiq so'zdan yaralgan bo'lsa, achchiq, til zaharli tikandek bo'lur. Ko'ngilga qadalgan til xanjarining jarohati bitmaydi, unga hech narsa malham bo'lolmaydi. Harko'ngil til xanjaridan jarohatlansa, yumshoq so'z va shirin til unga malham bo'ladi va rohat beradi».

Ha, donishmand xalqimizning «Yaxshi so'z - jon ozig'i», «Achchiq til - zahri ilon, chuchuk tilga -jon qurbon», «Shirin so'z -shakardan shirin», «Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar», «Yaxshi so'z - ko'ngil podshosi», «Yaxshining so'zi - qaymoq, yomonning so'zi - to'qmoq» kabi o'nlab dono hikmatlari bejiz aytilmagan.

Bir og'iz shirin so'z... U ba'zan hayot bilan teng. Ha, hayot bilan! Shifokorning o'zidan najot kutayotgan, taqdirini oppoq libos kiygan pokiza chehra inson qoiiga topshirgan, uning har bir so'zini orziqish bilan, ulkan umidlar bilan kutayotgan bemorga aytadigan so'zlari ana shunday mo' 'jizaviy qudratga ega desak, xato bo'lmas. Shifokor, avvalo, so'zi bilan davoiaydi, deydilar. Bemorga aytilgan har bir shirin so'z uni ruhan parvarishlab, najot sohiliga yo'naltiradi, sog'ayishiga bo'lgan ishonchini mustahkamlab, uning a'zosida mavjud bo'lgan sehrli kuchlarni ishga tushiradi, jismiga ilhom, hayotga bo'lgan intilishiga quvvat bo'ladi.

Zero:

Kimki bo'lsa xastadil, bir so'z bila topgay shifo,

So'zga ziqna yuz tabibdan yaxshi bir shirin zabon.

Bir zahar so'z birla g'amgin bo'lgusi yuz baxtiyor,

Bir shirin so'z din davo topgay, ajab, yuz xasta jon.

Ha, shifokorning shirin so'zi - malham. Tiriklik suvi obi hayot bo'lsa, uning nodonlikdan nishon beruvchi dag'al bir iborasi- zahar, og'u bilan teng. Yuzlab, minglab hayotiy misollar. ushbu mulohazaning haqiqatligini tasdiqlaydi.

Shifokor, xushyor hoi, olam bezagi bo'lgan inson taqdiri sening qo'lingda, avvalo so'zingda! Shirin so'zingni darig' tutma, ko'zingga mo'ltirab turgan bemordan! Odamlarni shirin so'zi bilan darddan xalos etgan Xizrga monandliginigni doimo yodingda tut!

Unutmagil, shifokor: shirin so'zing davodir.

Chehrangdagi tabassum, kulgan ko'zing - davodir.

Xush bir kalom, shaksiz, bemorga baxt etar jon,

Xurshid kabi munavvar gulgun yuzing davodur.

Faqat amaldor emas, yolg'izgina shifokor emas, hayotimizning barcha jabhalarida faoliyat ko'rsatuvchi har qaysi xodim, qolaversa, har bir madaniyatli inson shirin so'zni, ochiq chehralilik, xushmuomala, bir so'z bilan aytganda, odamiylikni o'zining eng oliy insoniy burchi, deb bilmog'i lozim.»

So'z kuchli qudratga ega. Shunday ekan, shifokor va hamshira bemorga eng avvalo so'zi orqali ta'sir qilish mahoratiga ega bo'lishi kerak, ya'ni bemor bilan suhbatda shirinsuxan, so'zlar tushunarli, ishonarli, bir so'z bilan aytganda, notiq bo'lishi lozim.

Tibbiyot hamshirasining ishi faqat katta jismoniy ish bajarish bilan emas, balki katta emotsional (ruhiy) zo'riqish bilan bog'liqdir. Bunday zo'riqish bemor bilan muomala qilish chog'ida ularning haddan ziyod ta'sirchanligi, kasallik tufayli injiq bo'lib qolishi, jizzakiligi natijasida vujudga keladi. Ruhiiy zo'riqish, shuningdek, shifokor amaliyotiga xos salbiy holatdir. Zero, ulardan sabr-matonat, o'z ishiga fidoyilarcha yondashish talab qilinadi. Ayniqsa, hamshira kasallar orasida ko'proq bo'ladi. Shuning uchun aniq harakatlari va shifokorning ko'rsatmalarini mahorat bilan bajarishi, bemorga xayrixohlik bilan samimiy munosabatda bo'lishi kasal ruhiyatiga ijobiy ta'sir etadi, g'amxo'rlik, diqqat-e'tibor hamshira bilan bemor o'rtasidagi aloqaning asosi hisoblanadi. Bunda so'z, nutq madaniyati katta ahamiyatga ega.

Shifokorning muomala san'ati uning so'zga chechanligi, o'zbek tilini bilish darajasiga qarab emas, balki nutqning ta'sirchanligiga, nutq mazmuniga ishonтира olish qobiliyatiga bog'liqdir.

Har bir shifokor ona tilining imkoniyat va boyliklarini yaxshi egallagan, nutq madaniyati tamoyillariga rioya qiluvchi, so'zga chechan bo'lishi mumkin. Lekin biz ko'zda tutgan eng nozik nuqta shifokorning bemor bilan malakali, ishonchli, shifokor etiketini o'zida saqlagan muloqoti masalasidir.

Ibn Sino «Mavjudotning taqsimlanishi to'g'risidagi risola»sida yozadi: «sezish va ixtiyoriy harakat qilish (qobiliyati)ga ega bo'lganlari hayvon deyiladi va bu ham o'z navbatida ikkiga ajraladi: biri nutqqa ega bo'lib, inson deyiladi va notiq hayvon deb ta'riflanadi (309-b). Ya'ni Ibn Sino aytmoqchi, inson va hayvon sezgi, ixtiyoriy harakat qilish qobiliyatiga birdek ega. Lekin inson va hayvonni ayirib turuvchi asosiy xususiyat sifatida Ibn Sino ularning so'zlay olishi (inson) yoki so'zlay olmasligi (hayvon)ni belgilagan. Allomaning bu fikri ushbu qo'llanmani mutolaa qiluvchi talabaga so'z quvvati, so'zlash va so'zlashishning naqadar buyuk ne'mat ekanini yanada chuqurroq anglashi uchun keltirildi.

Ibn Sino yana bir asari («Risolatun fi taxsin al mavjudot») da butun borliqni tarkibiy qismlarga bo'ladi. Ular: vujudi vojib, vujudi mumkin... Aql, jon, quvvat, sezish... Nutq kabi kategoriyalardir.

Ko'rinadiki, bu asarda inson fiziologiyasiga xos muhimliklar va a'zolar sirasida nutq alohida ko'rsatiladi.

Buyuk alloma yuqorida nomi keltirilgan asarida ham aynan inson nutqini tabiatning unga in'om etgan tolelaridan biri sifatida baholagan. Inson nutqidagi tovush ohanglari orqali o'z hissiyotlarini ifoda etadi.

Bu o'rinda biz nainki «o'z hissiyotlarimizni ifodalash», balki shifokorning nutqi, bemor bilan muomalasining tibbiy - ma'naviy tamoyil (asos)larini tahlil etishga urinamiz.

Yuqorida Ibn Sinodan misol keltirganimizdek, so'zlash, fikr va xayol quvvatlari Forobiyning ham ta'kidlashicha, faqat insonga xos. Odam o'zining mana shu quvvatlari bilan hayvonot olamidani tubdan farq qiladi.

Forobiy inson ibtidolari hisoblangan (ruhiy) quvvatlarni tahlil etib, so'zlash quvvati, harakatlanuvchi quvvat, xayol quvvati va sezish quvvatlarini ajratgan.

Alloma «Shakl va aksidensiyalarning ibtidosi haqida» asarida inson quvvatlarini quyidagicha tasnif qiladi. So'zlash quvvati shunday quvvatki, uning yordamida kishi hunar egallaydi, xatti-harakat va xulq-atvordagi go'zal narsalarni xunuk narsalardan ajratadi, zarur narsalarni amalga oshiradi, foydali narsalarni zararli narsalardan farqlaydi.

Kuzatuvdan ma'lum bo'ldiki, Forobiy ham Ibn Sino ham nutq madaniyati muammolarini chuqur his etganlar. Forobiy tilshunoslikka doir asarlar ham yozgan. Xususan, «Talaffuzlar va harflar kitobi». Har ikki alloma ham shubhasiz, nutq ilmiy ibtidosiga tamal toshini qo'ygan olimlardandir. Nutq, muloqot, tabiiyki, kamida bir juft inson o'rtasida ro'y beruvchi jarayondir.

Sharq qo'lyozmalariidan birida Forobiyning «kasallik (organizmni) o'limga olib keladi. U qon, o't, qora jigar va shilliqning (turli holati) natijasida paydo bo'ladi, mazkur to'rt element (holati) esa o'z navbatida ovqatlanishga bog'liq. Ovqatlanish esa o'simlik (tarkibiga), o'simlik (tarkibi) tuproq (tarkibiga), (shunday qilib) hammasi yerga bog'liq», degan fikri saqlanib qolgan. Bu fikr Forobiy hodisalarining sababiy bog'lanishini chuqur tushunganidan va birinchi qarashda go'yo bir-biridan juda uzoq bo'lgan jarayonlar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlaganidan dalolat beradi. (M.Xayrullayev. «Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri.» O'zbekiston, 1971, 211-bet).

Yuqorida keltirilgan matnga biroz o'zgartirish kiritgan holda talqin qilib ko'raylik: to'g'ri, kasallik nafsilambrda insonni o'limga olib keladi. Kasallik, albatta, insonning hayot tarziga, ovqatlanishga, uning asab tizimiga so'zsiz bog'liqdir. Lekin bemor o'zini qanday his qilishi uning ruhiy - fiziologik holatiga ham bog'liqdir. Xususan, insonga salbiy ruhiy omil ta'sir etganda, albatta, kasallik rivoji tezlashadi.

Yana Shu narsa ma'lum bo'ldiki, shifokor va bemor muloqotining ma'lum tibbiy-ma'naviy asoslari bo'lmog'i darkor. Bemorning ruhiy madadkori - shifokor. Shunday ekan, shifokor bemorning zohiriy va botiniy salbiy tashqi va ichki ta'sirlardan saqlashga intilishi yaxshi natijalarni beradi. Shunday ekan, har bir shifokor bemorni alohida, betakror individ sifatida qabul qilmog'i va uni hech bir takrorlanmas ruhiyat namunasi sifatida o'rganmog'i, muloqot qilmog'i va nihoyat, shifolamog'i zarurdir.

Shifokor va bemor muloqoti muammosi mana shu bosqichda tibbiy, ma'naviy, estetik va qolaversa, ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi.

Az-Zamaxshariy: Xastalik... Shunday baloki, hatto xutbon (juda taxir, achchiq) ichimlikdan ko'ra ham achchiqroqdir, degan ekan. Mana shunday «balo»dan so'zsiz, shifokor halos etadi.

Al-Xorazmiy fikricha, har bir hodisa uchun ma'lum sabab va makon bo'lib, bu hodisa undan tashqarida bo'lishi mumkin emas (Mafotih al-ulum, 137-bet).

Al-Xorazmiyning aynan fikrini mavzuimiz nuqtai nazaridan baholaydigan bo'lsak, muomalani «hodisa» deb, «sabab»ni kasallik deb, «makonni» (albatta muloqot shifoxonadan tashqarida ham bo'lishi mumkin) esa shifoxona, deb shartli belgilasak, u holda bemor shifokorning ikki tomonlama muloqoti aynan shu makonda, aynan shu sabab bilan «hodisa» yuz beradi, deb talqin qilishimiz mumkin bo'ladi. Fikrimizni soddaroq ifodalaydigan bo'lsak, bemor-shifokor muloqoti faqatgina bemor - shifokor suhbat (dialogi) doirasida kechishi mumkin. *Bu holatdagi shifokorning bemor bilan bo'ladigan muomalasi bil'aks matbuotda, radio lo'qinlarida yoki televideniyaedagi nutqqa ko'cha olmaydi. Shifokorning keng ommaga qaratilgan nutqining ayrim olingan bemor bilan kechadigan muomalasini ash muqoyasa qilib bo'lmaydi. albatta.*

Yana aytish kerakki, bemor bilan bo'ladigan muloqot ham aynan bemor va yana bemor bilan amalga oshiriladi. Hech bir muloqot Al- Xorazmiy e'tirof etganidek, har bir hodisa (bunda - muloqot, N. D.), ma'lum sabab va makonda bo'lib, bu hodisa undan tashqarida bo'lishi mumkin emas. Hech bir nutq, hech bir muloqot shifokor va bemor aro o'tkaziladigan suhbat (dialog)ga o'xshamaydi. Shifokor o'zida bor nutq malakasini, muloqot odobini kerakli yo'sinda, faqat o'z bemori bilangina amalga oshira oladi. Bu muloqot namunasi u nechog'li oliy toifada bo'lmasin, faqatgina shifokor va bemor o'rtasida bo'ladi. Boshqa zamon va makonda uning kechishi aslo mumkin emas. Biz birinchi bob avvalida nutq madaniyati, unda mavjud bo'lgan turli uslubiyatlar haqidagi ma'lumotlarni yodga oldik. Nutqda foydalanishimiz mumkin bo'lgan badiiy tasvir vositalarining ayrimlari haqida fikr bildirdik.

Demak, xulosa qilib aytish mumkinki, shifokor va hamshira bemor bilan muloqotda har bir bemorning o'zigagina xos bo'lgan belgilar, xususiyatlarni va ma'lum tibbiy-ma'naviy tamoyillarni hisobga olgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

SHIFOKORNING BEMOR BILAN MULOQOT SAN'ATI

Bemor bilan muomalaga kirishishning o'ziga yarasha shartlari bor, albatta. Shifokor bemor xastaligining taxminiy diagnozini, shaxsini, kasbini, ijtimoiy sharoitini, saviyasini, dunyoqarashini, bilim darajasini, lashqi psixik belgilarini o'rganganidan so'ng, o'zini ham bu muloqotga ruhan tayyorlaganidan keyingina u bilan muloqot qilish uchun ma'naviy haqqi paydo bo'ladi. Bemor va shifokor muloqoti (shartli ravishda) ikki doirada kechadi. Birinchi, tashqi doira zanjirida yuqorida aytilgandek, shifokorning bemor bilan muloqotga tayyorlanish bosqichidagi amallar kiradi. Ikkinchi, ichki doirani esa bemor shaxsini, uning kasallik sabablarini begilovchi dalillar zanjiri tashkil etadi.

Birinchi doira sohibining mahorat darajasi qay darajada yuksakligi uning ikkinchi doiraga «ko'prik» sola olish san'ati Man belgilanadi. Aynan shu «ko'prik» solinganidan so'ng bemor shifokorga ishonch va umid ko'zi bilan qaray boshlaydi.

Shifokor bemor bilan muloqotning avvalidayoq uning saviyasiga mos ravishda suhbatlashishi muhim. Bemor hunarmand bo'lsa, shunga mos maqomda, akademik bo'lsa, albatta, uning yuqori saviyasiga yarasha muomala qila olishi asosiy talablardandir. Shifokor beixtiyor bu holatning aksini qilsa, u holda o'zining tuzatib bo'lmas xato qilganini bir umr afsus bilan eslab yurishiga to'g'ri keladi. Shifokor bemorni o'rab turgan atrof-muhitga katta e'tibor bermog'i lozim. Uning botiniy va zohiriy ko'rinishi bemor bilan kechadigan muloqotiga bevosita ta'sir o'tkazishi mumkin. Xususan, bemor yotgan xona shinam, ozoda, havosi toza bo'lishi, albatta, uning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu - botiniy ta'sirdir. Zohiriy ta'sir esa bemor atrofida kechadigan ijtimoiy hayot: boshqa bemorlarning, kichik tibbiy xodimlarning yoki tashrif buyuruvchilarning salbiy xatti-harakatida ko'rinadi. Bu ta'sirga, atrofdagi shovqin-suronlar, qo'shni bemorlarning muloqoti, hatto, shifokorning yoqimli bo'lib tuyulgan tovushi, mimikasi⁵, jestlari⁶ ham kiradi.

Shifokor, bemor bilan muloqotga kirishar ekan, uning ko'z o'ngida ma'lum ma'noda kamchiliklardan holi, yuksak axloqli inson sifatida gavdalanishi zarur. O'z axloq normalarini to'g'ri belgilay olmagan shifokor bemor ko'z o'ngida obro'sizlanadi. Obro'sini yo'qotgan shifokorning esa, tabiiyki, o'z bemori bilan talab qilingan saviyada muloqot qilishga ma'naviy haqqi bo'lmaydi. Shifokor ma'naviyati deganda, ma'nili fikrlashi, so'zlashi, shuningdek shaxsiyatidagi, tarbiya va odobidagi hamda amaliyotidagi barcha ijobiy xatti-harakatlar majmuasi tushuniladi.

Allomalar aytadilar-ku, yer yuzida uzoq muddat qamal qo'yishga eng muhtoj narsa tildir, deb. Shifokor aynan shu qoidadan holi sub'ekt bo'lmog'i kerak. Shuningdek, bemor bilan muloqotda uning diqqati va ixtiyorini shifokor suiste'mol qilmasligi, ya'ni so'zda me'yorni saqlay bilishi muhim. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt, deydilar. Shifokor bemor bilan muloqotda unga baayni zarur gaplardan so'zlamog'i uning amaliyoti uchun juda foydalidir. Ibn Burayda aytadi:«... Yaxshi so'zlarni so'zlagin, foyda topgaysan, yomon so'zni aytishdan o'zingni tiygin, salomat bo'lgaysan...» Zero, «Inson a'zolari ichida eng harakatchan va juda yengil harakat qiladigani til bo'lib, shu bilan birga insonga eng zararlisi ham udir».

Bemor shifokor bilan muloqotdan so'ng o'zini ruhan tetik va yengil his etishi kerak, dedik. Mohir shifokor haqida aytish mumkinki, yaxshi suhbatdosh atirfurushga o'xshaydi, garchi u senga atridan bermasa ham xushbo'y hidi yetib turadi. Shifokor bemor ko'nglini ko'tarib agar u yosh bo'lsa, «hali to'yingizda osh yeymiz, xizmat qilamiz», yoshi ulug'roq bo'lsa - «hali nevara-yu chevaralaringizni boqib yurasiz», qabilida gaplar aytishi kerakki, bemor beixtiyor bunday ko'ngilga yoquvchi muloqotni mamnuniyat bilan eslasin. Har bir shifokor Mahmud Qoshg'ariyning: «Bilag'on odamlarning nasihatlaridan foydalan. Chunki yaxshi so'z ta'sir qilgach, dilga joylashadi», degan purhikmatlarini yodda olib qolishi foydadan holi emas.

Zero, I.V. Gyote aytgandek, «so'zni ishonch bilan gapir, eshituvchilarga ta'sir etish esa o'z o'zidan kelib qoladi».

Nutq og'zaki so'zlashuvga xos bo'lgani bois, u ayrim nuqsondan holi bo'lmaydi. O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning «Nutq» nomli hazil she'rida bugungi kun shifokori nutqining qanday nuqsonlardan holi bo'lishi kerakligiga ishora qilingandek:

Har so'zida «bu», «anu»,

«Haligi», «so'ng», «qanaqa»,

«Bu bu» deydi - nima bu?

«Shunaqa»si - qanaqa?

Tiliga kelib qolgan

So'zdan qayta olmasa.
«Bu» qo'shmasdan savolga
Javob ayta olmasa!
O'zingiz o'ylab ko'ring
Nima, bu? Qanaqasi?
Qachon qolar O'tkirning
«Nima», «bu», «qanaqasi»?
To'g'ri, aniq gap tuzib,
Javob bering so'roqqa.
Xizmat qilsin har so'zing
Fikringni to'latmoqqa.
Mazmun nomli mo'ljalga
So'z aytilgan o'q bo'lsin.
Nishonga tegmay qolgan.
Bitta o'q ham yo'q bo'lsin!

Shifokor bemor bilan ma'lum mantiqiy ketma-ketlikda savol-javob qilishi kerak. Bu suhbat (dialog)da fikrning tushunarli bo'lishi uchun marom, urg'u va takror to'g'ri belgilanishi, mazmun va ohangdorlikning uyg'unlashuvi, so'zlaraniq hamda to'g'ri talaffuz qilinishi muhimdir. Zero, xalqimiz - kishining jamoli tilidir, deydi. Biz esa *shifokorning mahorati va malhami tilidir*, degimiz keladi. Darhaqiqat, xalq ertaklarida podshoning «Eng shirin narsa nima?» va «Eng achchiq narsa nima?» degan savoliga tilning olib kelib ko'rsatilishida buyuk hikmat bor. Bemorga: «Rangingiz oqaribroq ko'rinyapti, bugun tobingiz chatoqroqmi?» deb aytilsa, bir oz o'tib, uning rangi endi rostdan ham oqarinqirab qolganini sezish mumkin. Yoki aksincha, zarxil yuzli bemorga: «Bugun rangingiz naqshin olmadek», deyilsa, shifokorning buyurgan barcha muolajalari em bo'ladi, bemorning hayotga ishtiyoqi yana ham kuchayadi. Zero, qadimgi yunon faylasufi Aristotel: «Nutqning bosh fazilati aniq va ravshanlikdir», degan edi. Donolar nasihat qilganlaridek, o'ziga boqma, so'ziga boq. Shunday ekan, *shifo istab kelgan bemorga eng tez la sir etuvchi «eleksir - ilk sir bu so'z*, degan hayotiy haqiqat anglanadi.

Demak, aytish mumkinki, shifokor bemorni nechog'lik o'rganib kirsam, muloqotga jiddiy tadorik (tayyorgarlik) ko'rsa, amaliyot natijasi shunga ko'ra yuqori bo'ladi. Shifokorning so'zlash odobi uning madaniyatini ko'rsatuvchi asosiy omil ekan, bu narsadan u qurol kabi samarali foydalanmog'i zarurdir. Shu o'rinda «Foydalanilmagan mehnat ta'tili» nomli badiiy filmdagi bir lavhani eslaylik. Yosh shifokor kasal qizcha bilan suhbatlashish uchun bemorxonaga kiradi. Qizchani yuragi xasta, uni operatsiya qilishlari aniq. Bemor ham bundan xabardor. Shifokor o'zini quvnoq tutishga harakat qiladi va bemor bilan quyidagi tarzda suhbat qiladi:

- Qizcha, ayt-chi, dadangni ko'proq yaxshi ko'rasanmi, oyingnimi?

Qo'g'irchoq o'ynab yotgan qizcha devor tlarafga keskin burulib yotib oladi. Bir ozdan so'ng qizcha javob beradi:

- Hech qaysisini...

Hayron qolgan shifokorga xonada ularning suhbatini kuzatib turgan ikkinchi shifokor:

- Qizchaning otasi ham, onasi ham yo'q. U bolalar uyidan...

Kutilmagan axborotni eshitgan yosh shifokor bemor qizcha ko'z o'ngida juda mulzam bo'lib qoladi.

Badiiy filmdagi bunday o'ta noxush holat shifokor amaliyotida ro'y berishi mumkin bo'lgan

hayotiy holatdir. Bu lavha, tabiiyki yuqorida kuyunib yozganimiz - bemorning shaxsi, ijtimoiy holati va boshqalarni o'rganib kirish naqadar muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shifokor, barcha zaruriy deontologik amallarni ado etar ekan, eng avvalo, o'z vazifasiga ma'naviy kamolot nuqtai nazaridan yondoshmog'l bugungi davr talabi bo 'lib qolaveradi.

Necha asrlardan buyon ko'pni ko'rgan otaxon-onaxonlarimiz har gal fotihaga qo'l ochilganda, eng avvalo, tanisihatlik, xotirjamlik, tilaydilar. Hayotda tanisihatlik katta ahamiyatga molik ekanligi shundan ayon. Lekin hayot-hayotda. Insonning dunyoga kelishi va ketishi hayot qonuniyatiga asoslangan bo'lsa, uning turli kasalliklarga moyilligi, qisqagina hayot davomida necha turli dardga duchor bo'lishi tevarak-atrofini qurshagan muhitga, uning o'ziga, ahvol-ruhiyatiga juda-juda bog'liq.

Inson boshiga tashvish tushib, tanisihatlikdan ayrilib qolganda, najot izlab, tibbiyot xodimlari huzuriga bosh urib keladi. Shu ondan boshlab, uning taqdiri, hatto hayoti shifokorlar va hamshiralar qo'lida, deyish mumkin. Yengilmi, og'irmi dard bilan shifoxonaga tushib, shu darddan xalos bo'lib, uyiga qaytgunga qadar bemor bir necha shifokor nazarida bo'ladi. Bu soatlar, haftalar va ba'zida oylarni imtihonga qiyos qilish mumkin. Bu bemor uchun ham, shifokor uchun ham haqiqiy sinov. Hamdardlik, xushmuomalalik sinovi. Shu qisqa vaqt ichida ular orasida iliq munosabat paydo bo'lsa, ular bir-birini tushunsa, nur ustiga a'lo nur. Demak, shifokor hamda hamshiraning ishi muvaffaqiyatli yakunlanadi, ya'ni bemor shifo topadi.

Tibbiyot xodimlarining kasbga munosabati, axloq-odobi, shuningdek, shifokorlar va bemorlar orasidagi turli huquqiy munosabatlar zamonamiz tilida bioetika va deontologiya deyiladi. Buni sodda shaklda ona tilimizga ko'chirsak, tibbiyot xodimi bilan bemor o'rtasidagi burchga sodiqlik, muomala qoidalariga rioya qilishi va yaxshi, to'g'ri muloqot, munosabat ham desa bo'ladi. Tibbiyotimizning necha ming yillik tajribasi ham, uning kazo-kazolari - Buqrot, Jolinusdan tortib Abu Ali ibn Sinogacha buni tasdiqlaganlar. Ularning ta'biricha, bemorning ruhiy holati davolovchi shifokor, hamshira uchun qanchalik ahamiyatga molik bo'lsa, bemorning o'zi uchun ham shunchalik qimmatlidir. O'zaro muloqotdan so'ng tibbiyot xodimiga - uning bilimi, tajribasi, samimiyatiga bemorda ishonch hosil bo'lmog'i, insoniy fazilatlariga hurmat va muhabbat uyg'onmog'i kerak.

Avvalo hech kimni dard chekib, yotib qolgudek qilmasin. Lekin dardga chalingan har kimsaning undan forig' bo'lishi tibbiyotimizning yutug'iga, shifokor, hamshiraning bilim, tajribasiga, insoniy fazilatlariga va shu bilan bir qatorda, bemorning tabiati, o'z dardiga munosabatiga bog'liq.

Tibbiyot ilmiy allomalaridan bo'lmish Buqrot: «*San'atlar ichida tabobat eng olijanob san'atdir*», - deb ta'kidlagan. Yana Buqrot: «*Bemorni dori bilan emas, balki so 'z bilan davolash afzal*» desa, Abu Ali ibn Sino uning bu fikrini quvvatlarkan: «*Bemor borki, uni so'z bilan davolasa bo 'ladi*», - deb aytgan.

TIBBIYOT DEONTOLOGIYASI LAVHALARI

Shamdek bo'l, shamni ko 'r, kuyib qalbu tan

O'zgalar dilini qiladi ravshan.

A.Jomiy

Tibbiyot deontologiyasi (lotincha «deon» - zarur, lozim bo 'lgan narsa va («logos» - ta'limot) tibbiyot xodimining burchi, odobi haqidagi fan bo'lib, shifokorlar, hamshiralar va kichik tibbiyot xodimlari uchun ma'naviy-mafkuraviy dasturilamaldir.

O 'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov aytganlaridek: «Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Xalqning teran ma'naviyatisiz, g'ururisiz, yuksak mudaniyatisiz buyuk davlat qurib bo 'lmaydi».

«Deontologiya» tushunchasi kishining xulqi, odobi haqidagi fanni ifodalash uchun XVI asrning boshlarida ingliz faylasufi va iqtisodchisi Beniam tomonidan taomilga kiritilgan edi. Bu atama joriy qilinmasdan ancha ilgari tibbiyot xodimining odob qoidalarini tartibga solib turuvchi asosiy axloq qoidalari va qasamyodlari uzoq asrlardan bizgacha yetib kelgan yozma manbalarda saqlangan.

Manuning «Vedalar» nomli hind «Qonunlar majmuasi»dayoq tibbiyot xodimining axloq

qonun-qoidalarini sanab o'tilgan. Antik davrlarda ilmiy tibbiyotning asoschisi Buqrotning mashhur «Qasam»i tibbiyot xodimining xulq-atvor tamoyillari rivojiga katta ta'sir qilgan.

Tibbiyot - bu ilmiy yoki san'atmi, degan fikr hozirgi davrga qadar tabobat olamida yechilmay kelayotgan masala. Uzoq va yaqin o'tmishdagi allomalar, bugungi olimlar e'tirof etishicha, tibbiyotga, avvalo, fan sifatida qarash kerakligi hech kimda e'tiroz yoki shubha tug'dirmaydi. Lekin uning amaliy ijrosi, tabobatchilik sir-asrorlarini hayotga tadbiiq eta olish katta san'at ekanligini ham e'tirof etish joizdir. *Aslida, tibbiyot deontologiyasi keng falsafiy tushuncha*

bo'lib, bir qancha yo'nalishlardan iborat. Ular:

- shifokor bilan bemor o'rtasidagi munosabat;
- shifokor bilan bemorning yaqin kishilari (qarindoshlari, do'stlari, hamkasblari) orasidagi munosabat;
- shifokorlarning hamkasblari, hamshiralari va kichik tibbiyot xodimlari bilan munosabati;
- shifokor va bemorning davolash jarayonidagi huquqlari;
- shifokorlik sirlarini saqlash madaniyati;
- ustoz va shogird munosabatlari;
- shifokor faoliyatidagi xato kamchiliklar va boshqalar.

Deontologiya qonun-qoidalarining tibbiyot amaliyotida to'g'ri joriy qilinishi tibbiyot xodimining ongi, saviyasi, dunyoqarashi, bilim mezoni va qaysi jamiyatda yashayotganligi bilan chambarchas bog'langandir. Kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida shifokor, hamshiralarning bemorlar bilan deontologik munosabatlari turlicha kechgan. U zamon talabiga qarab o'zgarib borgan.

Shifokor deontologiyasi hamshira bilan bemor o'rtasidagi munosabatni ham o'z ichiga oladi. Hamshiraning butun bilimi, burchi, odobi, xatti-harakati bemorda unga nisbatan ishonch uyg'onishiga qaratilgan bo'lishi, ya'ni bemorda dardimga faqat shu shifokor, hamshiragina malham bo'la oladi, degan umid paydo qila olishi kerak. Buning uchun hamshira bemor bilan muloqotning yuksak san'atiga ega bo'lishi lozimdir.

Tibbiyot xodimi biron bir a'zo yoki tizim (sistema)larning kasallanishidan tashqari, avvalo insonni, undagi bemorlikni va uning salomatligi borasida chekayotgan tashvishini ko'ra olishi kerak.

Hamshira shifokor belgilagan davolashni amalga oshirar ekan, bemorni parvarish qilish sohasidagi vazifaning anchagina qismini o'z zimmasiga oladi, bunda psixoterapevtik ta'sir ko'rsatish usullaridan foydalanadi va tibbiyot bioetikasi va deontologiyasi tamoyillariga rioya qiladi.

Deontologiyada «*yatrogeniya*» tushunchasi bor. Bu shifokorning yoki hamshiraning farosatsizligi, nojo'ya ko'rsatmalari, qo'pol xatti-harakatlari, bilimsizligi va loqaydligi, qisqacha aytganda, tibbiyot xodimlarining aybi bilan paydo bo'lgan yana bir kasallikdir. Bu buyuk tib allomasi Buqrotning «*Primum non nocere*», ya'ni «*Bemorga eng avvalo zarar keltirma*» degan deontologik naqlining buzilishi oqibatidir. Bunday kasallik bugungi kunda uchraydigan xastaliklarning taxminan 10 foizini tashkil qiladi. Bu shifokorlar va hamshiralari orasida hali o'z deontologik burchini to'la tushunib yetmaydiganlar borligidan darakdir. Shuningdek, *egrotogeniyalar*, ya'ni bir xasta kishiga boshqa bir bemor so'zining salbiy ta'siri ham mavjud. Shifoxonada ba'zi bir bemorlarning o'z xonasidagi xasta qo'shnisiga ma'lum darajada ta'siri sezilib, u ruhiy tanglikni, xavotirni keltirib chiqaradi. Bunday holatni, o'z fikricha tibbiyot xodimlaridan-da «*chuqurroq*» bilimga ega bo'lgan «*azaliy*» bemorlar keltirib chiqarishlari mumkin. Ular kasalxonaga kelgach, bemorlarga maslahat va tavsiyalar beradilar, aksariyat hollarda, o'z tinglovchilarini ruhiy tushkunlik holatiga olib keluvchi qayg'uli va mash'um «*oldindan aytish fikrlari*» bilan o'rtoqlashadilar. Bu kabi egrotogeniyalarning oldini olishda aynan shifokor hamda hamshiralarning bo'lim tartibi, bemorlarning ma'lum majburiyatlari, intizomi va bir-birlari bilan o'zaro munosabatlari haqida to'liq va monand axborot berish; muvotazam ravishda o'tkaziladigan suhbat katta ahamiyatga ega. Bu o'rinda bemorlarga tanbeh berish usuli singari xususiy masala to'g'risida to'xtalib o'tish ham foydadan holi emas. Tanbeh berish zaruriyati ko'pchilik hollarda bemor shifoxonadagi bo'lim tartibi, intizomini buzganda yuzaga keladi. Shifokor, hamshira bunday hollarda bemor bilan juda ravshan, tushunarli, aniq, ishonitirib gaplashishi kerak. Bu suhbatning natijasi muhimdir, bemor tanbehni to'g'ri tushunishi va shifokor hamda hamshira saboqlarini to'liq qabul qilishi lozim. Shu bilan birga, bunday suhbat bemorning ahvoriga hech ham yomon ta'sir qilmasligi darkor. Bemor hamshira bilan ilgarigidek mehribon va yaqin munosabatda ekanini, yotsirash yoki ziddiyat vujudga kelmaganini sezishi zarur.

Tibbiyot deontologiyasi tib xodimlaridan yuksak insoniy fazilatlariga ega bo'lishni taqozo etadi. Bu fazilatlar: bilimdonlik, odamiylik, jasorat, mehr-shafqat, xushmuomalalik, halollik,

pokizalik, insofilik, sofdillik, ziyraklik, hozirjavoblik, bosliqlik, kamtarlik, izlanuvchanlik, andishalilikda ko'rinadi.

Bemor kasalxonada o'z yaqinlari, do'stlaridan uzoqda bo'lgani uchun ko'pincha o'zini yolg'iz, baxtsiz his etadi, yangi sharoitga moslashishi qiyin kechadi. Shuning uchun ham hamshira kasallarga e'tibor bilan qarab, g'amxo'rlik ko'rsatishi darkor. Bemorni bo'limda uchraydigan ba'zi kamchiliklar davo muolajalarining o'z vaqtida bajarilmaganligi, bemorxonalarining sovuqligi, ovqatning kechikib kelganligi va h.k.lar asabiy holatga olib keladi, o'zaro munosabatlarni chigallashtiradi. Bu esa davo natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu muammolarning yechimida shifokor, hamshiraning tutgan o'rni, vazifasi beqiyosdir.

Shifokor o'zi kim?

Uning shifokorlik sohasida o'rni nimalardan iborat?

Bu savolning javobida har bir tib xodimi hozirda o'zicha yondashib kelmoqda.

Zamonaviy yosh shifokorlarni va oliy ma'lumotli hamshiralarni tibbiyot oliy bilimgozlarida deontologik tarbiyalashda qadimda o'tgan va o'rta asr tabiblarining, ya'ni Sharq tabobati namoyandalarining ma'naviy boyliklaridan samarali foydalanishimiz kerak.

Ma'lumki, ko'hna Sharqda tabobatchilik kasbi aholi o'rtasida eng mo'tabar va savobli mutaxassislik hisoblangan.

Shifokorlikni tanlagan va oliy ma'lumotli hamshira bo'lishni orzu qilgan inson sharm-hayoli, iymon-e'tiqodli, nozik ta'b, bosiq va o'zining murakkab faoliyatida og'ishmay ishlaydigan, jur'atli bo'lmog'i darkor. Uning uchun bemorning manfaatidan o'zga yuqori tuyg'u bo'lmasligi kerak. U bor bilimini, aql-zakovatini va orttirgan kasbiy tajribasini bemor salomatligini tiklashga, unga yordam qo'lini cho'zishga doim tayyorligi, o'zining huzur-halovatidan kechib, bemor atrofida doimo tibbiy yordamga shay ekanligini namoyish qila olishi, bemor va uning qarindosh-urug'lari oldida o'zining xatti-harakati bilan ularning muhabbatini qozonishga intilmog'i kerak.

Shifokor degan sharafli nom ana shunday yuksak ma'naviyatni talab etadi va haqiqiy hamshira bo'lish barchaga nasib etmaydi.

Sharq tabobatining buyuk allomasi, vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino og'ir shifokorlik kasbini zimmasiga olgan insonlarga ko'pyaxshi o'git va talablarni yozib qoldirgan. Masalan, «o'z umrini savob ish -shifokorlikka baxsh etgan odam, eng avvalo saxiy, muruvvatli, soddadil, haqqo'y, beg'araz va adolatparvar bo'lmog'i kerak. Tashqi qiyofasi e'tiborga loyiq, kamsuqum va kamgap, ochiq chehrali, boqishlari muloyim va tabassumli, ozoda va kamtarin kiyingan bo'lishi lozim. Zero, uning ko'rinishi va xatti-harakatlari bemor va uning qarindoshlari orasida hurmat va ishonch tuyg'usini uyg'ota olsin. Shifokorning samimiyligi u qilmoqchi bo'lgan muolajaning avvalidir».

Shuni ta'kidlash lozimki, sharq tabobatida islom dinimiz aqidalari keng o'rin olgan. Musulmonchilikda ko'p targ'ib etiladigan «halol», «harom», «gunoh», «mahram», «nomahram» kabi qator tushunchalar borki, bu tabiblikni bo'yniga olgan har bir shaxsdan birinchi navbatda o'z e'tiqodiga sodiq bo'lishni, barcha vojib va farz amallarni mukammal va muntazam bajarishni talab qiladi.

«Hayoli bo'lish iymondandir, iymonli, bo'lish jannatiydir, behayolik jafolikdan bo'lib, jafo esa jahannamdur. Kimki odamlardan hayo qilmasa, u tangridan ham uyalmaydi».

(*Hadisdan*)

Ko'zga ko'ringan o'rta asr namoyondalaridan Nizomiy Aruziy Samarqandiy o'zining tabobatga oid nodir «Chor maqola» risolasida tabiblar hayotidan ibratli namunalar keltirib, shifokor kasbining ta'rifi haqida shunday yozgan ekan: «Shifokor Ollohdan madad so'ramog'i va natijani barcha ishga qodir yagona Ollohning hukmiga havola qilmog'i lozim. Chunki hamma narsa faqat ungagina ayondir. Olloh bergan idrok, tafakkur orqali shifokor kasallikning sabablarini aniqlay oladi». Muallif shifokorning mantiqni bilish zaruratini quyidagicha izohlaydi: «Shifokor mantiqan nasl bilan turni farqlay olmasa, biror narsaning tub mohiyatini - uning ikkilamchi sifatlaridan ajrata olmasa, davolash ishida ko'zlagan maqsadga erisha olmaydi. Hodisaning sabab va oqibatini yaxlit tushunadigan shifokor esa isitma, bu uning qaysi turi, bu isitmaning kelib chiqish sabablarini anglagan holda, zudlik bilan muolajani boshlaydi. Ollohga ishonmoq va uning nomi bilan ish boshlamoq shifokorning oliy fazilatlaridandir».

Odatda, shifokor ham, hamshira ham bemorlarni undan iltimos qilishi bilanoq Olloh nomi bilan, ya'ni «Bismillohir rahmonir Rohim» deb amal va imkonlarini ishga solmog'i, barchaga barobar yaxshi va xushmuomalada bo'lmog'i, bemorlar to'g'risida qayg'urib, mehr-shafqatli bo'lib ularga hech qachon jazoni («evtanaziya»ni) ravo ko'rmasligi kerak. *Oqil tib xodimi og'ir.*

tuzalishi mumkin bo'lmagan bemorlarga, ularning jonlari uzilmaguncha qo'lidan kelgan barcha kerakli xatti-harakatini, madadini va g'amxo'rlikini sidqidildan amalga oshirishi darkor.

Mustaqil davlatimizda tib xodimlarining odobi va vatanparvarlik tuyg'ulari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino ijod va tabobatdagi faoliyatida nafaqat yuksak odamiylik, balki Vatanga cheksiz sadoqat hissi to'lib toshgan. Shogirdi Jurjoniyning ta'kidlashicha, ustoz Ibn Sino manfaatini odamlar va Vatan manfaatidan yuqori qo'yuvchi ba'zi nodon amaldorlar bilan kurashib o'tdi. Ko'p quvg'inlikka uchragan tabib o'zga yurtlarda boshpana izlashga majbur bo'lganda ham «O'zga elning sultoni bo'lguncha, o'z elingning ulтони bo'l» degan naqlga amal qilib, hayotiy qiyinchiliklarga bardosh berib, ularni engib, ijoddan to'xtamagan, xalqqa, bemorlarga umrining so'nggi damlarigacha xizmat qilgan...

Zamonaviy oliy ma'lumotli hamshira odobi uning xatti-harakati, odamlar bilan bo'lgan muomalasi va muloqoti bilangina namoyon bo'lmay, balki o'zbek va sharqona ayol sifatiga, ya'ni mentalitetiga xos fazilatlariga ega bo'lishi bilan ham farqlanadi. Bularga nomus, sharm-hayo, iffat, nazokat, lutf, hayo, kamtarlik kabi fazilatlar kiradi.

Kiyinishdagi madaniyat, zeb-ziynatlar, atir-upa va boshqa pardozi vositalardan foydalanish hamda kiyim bichimi, uzunligi me'yorda bo'lishi kerak.

Tovushni baland qilib gapirish, o'qrayish, bemor gapini bo'lish, sharttakilik, qo'pol muomala, ortiqcha taqinchoqlar, saqich chaynash, sigareta chekish yoki spirtli ichimliklarni iste'mol qilish tib xodimi odobiga yarashmaydigan *illatlar* hisoblanadi

Nomus, sharm-hayo, iffat hamshiraning ko'rkidir. O'z obro'si, shuhratini, qadr-qimmatini kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglash, unga bo'lgan muhabbati va kasbidan g'ururlanishi ma'naviy jihatdan takomillashishi, ish malakasini va sifatini oshirishiga bo'lgan doimiy intilishidan ham iboratdir. Har bir tibbiyot hamshirasi o'z kasb qadr-qimmatini va sharafi tuyg'usini hamisha baland saqlamog'i zarur, chunki bu xalqning tib xodimlariga bo'lgan ishonch tuyg'usini ko'taradi.

Demak, tib xodimi, eng avvalo, sof vijdonli, halol, adolatli, yuksak axloqli bo'lmog'i kerak, chunki vijdon insonning ichki axloqiy hakamidir. Vijdon - bu o'z burchini anglash demak. Tibbiyot olamida vujudga kelgan ko'pgina muammolarning hal qilinishi vijdonga, shifokor va hamshiraning axloqiy madaniyatiga va ma'naviyatiga bog'liq.

Ma'naviyat - bu shifokorlarga nihoyatda zarur omil bo'lib, bu ularning qalb ko'zqusidir. Chunki ular doimo el orasidadirlar. Ma'lumki, kishilik ma'naviyatining asosi bilimdir. Yuksak bilim va malakaga ega bo'lgan uquvli hamshira o'ta intizomii bo'lib, boshqalarga ham har ish, har yumushda ibratli bo'lsalar yarashadi. Shu o'rinda hamshiralar haqidagi mulohazalarimiz bilan o'rtoqlashsak. Ba'zilar muomalani joyiga qo'yib: «Amakijon, yaxshi dam oldingizmi? Kayfiyatlar yaxshimi? Ertalabki dorilarni ichib oldingizmi?» - deb hoi so'raydi. Bu iliq so'zlardan kasalning chiroyi ochiladi. Ba'zi hamshiralar esa «Hali ham yotibsizmi? Yuz-qoini yuvdingizmi? Bunday qilsangiz davoning unumi bo'lmaydi» deb qo'pollik qiladilar. Bu albatta, bemor ruhiyatiga yomon ta'sir qiladi. O'z bemoriga munosabat ham shunday bo'ladimi? Qani oddiy ma'naviyat, qani oddiy odob, intizom tushunchasi? Ayniqsa, tomirga dori yuborish mahoratini o'rganish shunchalar mushkulmi? Ba'zan butun bir davo maskanida qator hamshira bo'lgani holda birorta hamshira tomirga igna bilan tushishni bilmaydi. Gohida besh-o'n joyingga igna qadab: «tomiringiz qochib ketyapti», deb bahona qiladi. Bu esa bemor asabiga tegadi.

Yo deylik, bemorga huqna (klizma) qilish zarur bo'lib qoldi. Darhol «Vazelingiz bormi?» - deb so'raydi. Yo'q, desa, chala yuvilgan rezina idishni suvga bir chayib, ishni boshlayveradi. Bu to'g'ri emas. Hamshira, albatta kerakli narsalarni avvaldan tayyorlab qo'yishi lozim.

Ayrim hamshiralarda diagnostika haqida tushuncha yo'q. Ko'pincha ular «bemor yomon bo'lib qoldi» degan iborani ishlatadilar. Ba'zan, hatto zuluk solishni ham bilmaydi. Nahotki bilim yurti talabalari o'qish, o'rganish davomida tomirga tushish, zuluk solishni o'rganib olmasalar? Bizning nazarimizda, musiqaga kichik yoshda tanlanganidek shifokorlik, hamshiralik ishiga ham mehribon, e'tiborli, insonparvar odamlarni tanlash zarur. Bu yerda «matematikasi yo'q ekan, kiraveray», deydigan xudbin, o'ziga ortiqcha bino qo'ygan odamlar kelgusida tibbiyotga yaroqsiz bo'lib chiqadilar». (Sayyor)

«Bizningcha, hamshira faqat shifokor aytgan ishni xotirjamgina, loqaydgina bajarishi to'g'ri emas. *Hamshira - oddiy ijrochi emas.* U o'z shifokori yonida, garchi birov buyurmasa ham yana bir shifokorga aylanishi zarur. U tibbiyot jabhasida millatimizning obro'si va madaniyatini ko'taruvchi va ayni chog'da o'ta mas'ul shaxsdir» (Q. Xonazarov).

Jahondagi yirik davlatlar qatoridan joy olgan, aholisining yarmidan ko'pini o'qish yoshidagi bolalar va yoshlar tashkil qiladigan O'zbekiston, albatta, a'lo darajada ishlaydigan hamshiralar «qo'shin»iga ega bo'lishi zarur. Bu «lasbkar»lar xalq sog'lig'i uchun olib boriladigan sabr-toqat va izchillikni talab qiluvchi jabhalarda asosiy kuchdir. Bir narsani ko'zda tutaylik: bemor

shifokorni kuniga faqat bir necha daqiqagina ko'radi Hamshira esa tunu-kun bemor bilan doimo yonma-yon. Hamshira shifokor ko'rsatmalariga amal qilgan holda bemorning sog'ligini tiklashga harakat qiladi. Kasaixonada ish qizib turganda ham, hamma ishlar tugallanib, boshqa hamkasblar uy-uyulariga ketganlarida, zim-ziyo, qorong'ilik tushganida ham bemorning oldida hamroh va hamdard bo'lib qoluvchi yakkayu yagona inson - hamshiradir.

Hamshira so'zining o'zi nihoyatda chuqur mazmunga ega. Hamshira - «bir onadan sut emgan» degani. Demak, har bir inson uchun u tug'ishgan opa va singildir. Gap shundaki, hamshira, ayni vaqtda, tibbiyotning rasmiy vakilasi. U shifokor bilan bemorni bog'lab turuvchi va shu sababli davolanish jarayonini amalga oshiruvchi asosiy vositachi. Shifokor bemorning dardini to'g'ri aniqlab, zarur dori-darmonlarni belgilashi mumkin. Lekin bu ko'rsatmalarning qay tarzda ijro etilishi va binobarin, samarasi hamshira mahoratiga bog'liq.

Endi yana bir qadriyatimizga yondashsak. Buyuk hazrat Alisher Navoiy: «Sihat tilasang ki/p yema, izzat tilasang ko'p dema», -deb alohida uqtirgan ekanlar. Bu hikmat hammamizga, ayniqsa, shifokorlarga dasturulamal bo'lmog'i joizdir. Bundan mingyilavval Ibn Sino ta'biricha, shifokor qiyofasining ustuvorligi uning sog'lom va ko'rkam xulqli bo'lishi bilan ifodalangan:

Adab bilan inson izzat topadi.
Obro'yu, sharafu xizmat topadi.
Adab sohibi-la so'zlashgan kishi
Ruhiga darmonu lazzat topadi.

Buyuk alloma Ibn Sino asarlarini bo'lajak shifokorlar chuqur o'rganishlari va mukammal o'zlashtirishlari lozim. Misol uchun, o'qishni «Tib ilmi va uning vazifalari»dan boshlagan ma'qul. «Unsurlar nima?», «Mijoz haqida», «Kasallik, uning sabablari», «Kasalliklarning davrlari haqida», «Atrofn o'ragan havoning vujudga ta'siri haqida», «Yaxshi havo haqida», «Yil fasllarining ta'siri haqida», «Turar joylarga bog'liq hukmlari», «Eyiladigan va ichiladigan narsalar keltirib chiqaradigan hodisalar haqida», «Suvlar haqida», «Hammomga tushish», «Quyoshga toblanish va qumda yotish», «Sog'liq va kasallikning sababi va o'limning muqarrarligi haqida», «Bolalarga qo'llaniladigan tadbirlar», «Balog'atga yetgan kishilar uchun umumiy bo'lgan tadbirlar», «Hammomlarda cho'milish haqida», «Ovqatlanish tadbiri», «Suv va ichimliklarni ichish tadbiri», «Uyqu va uyg'oqlik haqida», «Keksalar tadbiri», «Yilning turli fasllaridagi tadbirlar va havoni sog'lomlashtirish haqida», «Safar qiluvchilar tadbiri»; «Davolanishning umumiy qoidalari» bo'limidan esa: «Gavdani bo'shatish haqidaw, «Qon olish haqidax, «Zuluk solish», «Og'riqlarni to'xtatish haqida» kabi qonunlarni puxta bilishlari, ayniqsa, hamshiralarning kundalik ishlarida juda asqotadi.

Ana endi hamshira falsafasi haqida birozfikryuritsak'. Falsafa - olamning bo'lak va qismlarini o'zaro bog'liq, bir butun holda o'rganadigan fan. Shu nuqtai nazardan har bir kishi, har bir bemor ham butun bir olam. Sog'lom inson yoki bemor bilan qanchaikk ko'p va diqqat bilan suhbatlashar ekansiz, siz uning qanchaikk keng fikrli, bilimli, o'ziga xos xulq va fei-atvorga ega inson ekanligiga ishonch hosil qilasiz. Uning jismoniy azoblari va ruhiy qiynalishlarini bilish esa sizni yanada murakkabroq muammolar olamiga olib kiradi. Shunday ekan, bemor bilan uzoq vaqt va bemorlik davrining asosiy qismida birga bo'luvchi hamshira haqiqiy *falsafiy fikr yurituvchi*, masalaga keng va chuqur yondashuvchi mutaxassis bo'lmog'i zarur. Hamshiraning ixtiyorida o'nta bemor bo'lsa o'nta, yuzta bemor bo'lsa - yuzta olam mavjud. Inson qiyofasiga ega har bir olamni yaxshi anglash uchun o'rganmoq zarur. Har birodam bir butun olam. Uning jussa-tanasining barcha qism-bo'laklari bir-biriga bog'liq. Hamshira bularni inobatga olib ish olib borishi zarur.

Xo'sh, hamshira bemor bilan qanday so'zlashgani ma'qul: uzoqmi yoki qisqa? Kasal bilan so'zlashish hajmi ko'pgina omillarga bog'liq bo'lib, hamshiradan juda nozik, o'ziga xos me'yorini talab etadi. Suhbat davomiyliigi va mazmuni bemoming ahvoli, uning madaniyat darajasi, fe'1-atvor xususiyatlariga bevosita bog'liqdir. Shunga ko'ra, bemor bilan suhbatlashayotganda hamshira me'yorni bilishi, kasalning suhbatdan qanday ta'sirlanayotganini sinchkovlik bilan kuzata olishi kerak. Barcha tushuntirishlar lo'nda, aniq, qat'i, bemorlar uchun mutlaqo tushunarli bo'lmog'i lozim. Yoqimli va shirin so'z bilan murojaat qilishda, samimiy tabassumda hamshiraning o'z bemorlariga g'amxo'rliigi va diqqat-e'tibori ifodalanadi. Biroq hamshiraning diqqat-e'tibori va samimiyligi xufiyona tarzda bo'lmasligi, bemorlar o'zlari bilan hamshira o'rtasidagi yaqinlik munosabatlarini suiste'mol qilishga yo'l qo'ymasligi va shunga muvofiq o'zining xatti-harakatlarini tartibga solishi va bemorning xulq-atvorini kuzatib borishi kerak. Bemor bilan suhbatda uning kechinmalarini yengillashtirishga intilish belgilangan dori-darmonlarga qaraganda yaxshiroq ta'sir ko'rsatadi. Bemorni diqqat

bilan tinglay olish kasal haqida zarur ma'lumotga ega bo'lishda yordam beradi. Hamshira ishga kelgani zahoti o'zining barcha bemorxonalaridan xabar olishi va ish kuni yakunida hech boimiganda juda qisqa muddatga barcha bemorlarining xonasiga kirib chiqishi ayni muddao bo'lar edi. Bu bemor ruhiyatiga bag'oyat ijobiy ta'sir ko'rsatadi: bemorlar o'zlarini bir necha soat davomida hamshiraning uzluksiz kuzatuv ostida bexatar sezadilar, hamshira ana shu vaqt ichida o'zlariga xizmat ko'rsatishiga, uning juda ham ziyrak ekanligiga, kun davomida xastalardan bir necha marotaba xabar olishiga ishonch hosil qiladilar.

Erta bilan bemorlar yotadigan xonalarga qilingan tashrif 5-10 daqiqa davom etsa-da, bu ular uchun katta ahamiyatga ega.

Tibbiyotda shunday bir ibora bor: «Yaxshi parvarishlangan bemor». Bunda bemorlarning yaxshi jismoniy, gigiyenik parvarishigina (yaxshi ovqatlantirish, joylashtirish, xona havosini o'zgartirish, kiyim-kechak va choyshablarining tozaligi va h.k.) emas, avvalo mohirlik bilan olib borilgan «ruhiy parvarish»: bemorga to'g'ri ma'lumot berilgani, ruhiy ahvoli yaxshiligi, asta-sekin tiklanayotganligi, hamshira bilan yaxshi munosabatda ekanligi tushuniladi. Ish kunining boshi va oxirida hamshiralarning bemorxonalariga qisqa muddatli tashrifi davolash muassasalarida «iliq ruhiy iqlimni» yaratishga asos bo'ladi.

SHIFOKOR SIRI HAQIDA

Tib xodimlari bemor bilan o'zaro munosabatda bo'lar ekan, kasalning shaxsiy xususiyatlarini, kasallik keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan asabiy ta'sirlanishni, madaniyat darajasini hisobga olishi va albatta shifokor sirini oshkor qilmasligi kerak. *Shifokor siri* deganda ko'pincha bemor to'g'risidagi ma'lumotlar (bu ma'lumotlar asosan bemorning o'zidan olinadi), kasallikning noxush yakuni, psixologik (inson ruhiga) ziyon yetkazuvchi tashxis tushuniladi. Tibbiyot xodimining faoliyatida aksariyat shunday hollar bo'ladiki, shifokor siri «aldash» bilan bog'liq bo'ladi, bu «*muqaddasyolg'on*» deb ataladi. Masalan, kasalligi o'limga olib boradigan bemorga uning ahvoli og'ir ekanligini gapirmaslik kerak. O'limi aniq bo'lgan bemorlarga sog'ayib ketishiga umid bildirib aytilgan so'zlar tasalli beradi. Kasallikning kechish tarzi va uning qanday tugashi haqidagi ma'lumotlarnigina emas, shu bilan birga bemorlarning xufiyona hayoti haqidagi ma'lumotlarni ham oshkor qilib bo'lmaydi, chunki bu hoi ularga qo'shimcha azob-uqubat keltirishi va shifokor, hamshiraga bo'lgan ishonchga putur yetkazishi mumkin.

Tibbiyot xodimlari bemorga uning haqiqiy tashxisini ma'lum qilishi yoki qilmasligi haqida fikr yuritishlari zarur. Agar ular bemorga tashxisni bildirishga qaror qilsalar, uning bosqichi, asoratlarini yengil shaklda, bemorni asta-sekin tayyorlagan holda, bosqichma-bosqich aytishni o'ylab ko'rishlari kerak. Tabiiyki, unga hamma narsani gapirib bo'lmaydi, lekin ziyoli, tushunadigan bemor oldida «sukut saqlash» yoki ikkilanish foydadan ko'ra, ko'proq zarar keltiradi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, bemor uchun aytilmagan «*yomon xabar*», aytilgan «*yomon haqiqatudan*» dahshatliroq tuyulishi mumkin. Masalan, bir qator kasalliklarda, jumladan, zararli o'smalari bo'lgan xastalarga tashxis ma'lum qilinmaydi, onkologiya shifoxonasiga kelgan kasal o'zidagi shish «yomon»mi yoki «yaxshi», degan iztirobli kechinmani boshdan kechiradi va tabiiyki, buni shifokordan yoki hamshiradan so'rab-surishtirishga doimo harakat qiladi. Onkologiya kasalligiga uchragan bemorlar psixikasi juda nozik va ta'sirchan bo'ladi. Bu hoi, ayniqsa, kasallikning yaqinlashib kelayotgan oqibatini his qilganda namoyon bo'ladi. Shunday sharoitda hamshira baland ovoz chiqarib gaplashishi, qah-qaha bilan kulishi bemorni muvozanat holatidan chiqarib yuborishi mumkin.

Bemorlarga tashxis, davolash, asoratlar va qaytalashlarning oldini olish bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina ma'lumotlar bildiriladi. O'z-o'ziga yordam berish yo'Uari ko'rsatilib, maxsus eslatmalar bilan ta'minlanadi. Masalan, oddiy misol - shifokor qandli diabet kasalligining mohiyatini faqatgina tushuntirmay, balki diabetga qarshi parhez, bemor o'zi yolg'iz qolgan hollarda in'eksiyalarni bajarish texnikasini o'rgatishi, turli xil insulinlar va ichiladigan dorilarning xossalari, koma oldi belgilari va boshqalar haqida ma'lumot berishi kerak. Shu tariqa tushuntirishlar infarktdan keyingi kardioskleroz, gipertoniya kasallig'i, aritmiyalar, oshqozon-ichak yara kasalligi va boshqa xastalıkları bo'lgan bemorlar uchun zarurdir.

Shifokorning oiimi muqarrar bo'lgan og'ir bemor to'shagi yonidagi *xatti-harakatlari tibbiyot deontologiyasining muhim va mushkul masalasi* bo'lib kelmoqda. Masalan, bemorga o'lim ehtimolini ma'lum qilish yoki qilmaslik, agar bu haqda axborot berilsa, uni qaysi sharoitda va qay tarzda amalga oshirishdadir. Barcha zamonlarda bu masala aniq ravishda manfiy yechimga ega bo'lgan. Buning uchun bir qator kcskin asoslar va fikrlar mavjud. Bemorga

mutlaqo najotsiz oxir-oqibat to'g'risidagi «achchiq haqiqatni» ma'lum qilish - bu, avvalo, uning hayotidagi eng muhim narsa - umidini tortib olish, oxirgi kunlari va soatlarini zimiston tunga, tubsiz qora jarlikka tushishga aylantirishdir. Bunday hollarda shifokor, hamshira bemor ko'ngliga sog'ayib ketish umidini solishi va unda kasallikka qarshilik ko'rsatish hissiyatini kuchaytirishi zarur.

Shifokor bilan bemor o'rtasidagi munosabatning yana bir tomoni bemorga tayinlangan shaxsiy tartib, parhez, dori-darmonlar bilan davolashning rejalarini tushuntirish va to'g'ri tashkilotishdan iborat.

X asrning taniqli olimi Ali Ibn Abbos Axvaziy o'zining «Shifokorlar uchun o'gitlar» asarida yozganidek, bemorlarni davolash jarayoniga e'tibor berish va davo uchun faqatgina dorilarni emas, balki to'g'ri ovqatlanishni ham qo'llashga harakat qilish zarur. Bemorlarga asoratli yoki xavfli dorilarni buyurish, xuddi shuningdek, ularni u yoki bu xastalikni davolayotganda bemorlar orasida targ'ib etish mumkin emas. Faqatgina tartibli ravishda va ta'siri ma'lum dorilarni qabul qilish, parhez to'g'risida batafsil qat'i va ishontira oladigan darajadagi ko'rsatmalarni ham nazorat qilish zarurdir. *Shu tariqa, yuqori deontologik kuchga, xususan bemorlar bilan so 'z orqali aloqaga, davoga uquvli bo'lish - lib xodimlari faoliyaidagi zarur iy ko 'nikmadir.*

SHIFOKORNING BEMOR BILAN MULOQOTI USLUBIYOTIGA DOIR

Shifokorning bemor bilan o'zaro muloqoti davolash jarayonining asosidir.

Butun fikr, e'tiborni bemorga qaratish, samimiylilik, uni diqqat bilan tinglash, bemor bilan birga qayg'urish, jiddiylik o'zaro muloqot o'rnatishning (kommunikatsiyaning) asosi bo'lib xizmat qiladi.

Muloqot turlari va tinglash mahoratining umumiy tamoyillari

Bemor bilan munosabolda so 'z orqali (verbal) va so 'z yordamisiz-(noverbal) muloqot ko'nikmalari mavjud.

So 'z orqali muloqot (verbal muloqot) o'zaro munosabatning asosiy ko'rinishidir, bunda quyidagilarga rioya qilmoqlik maqsadga muvofiq:

- tushunarli tarzda so'zlang;
- so'z ohangingiz bosiq va mayin bo'lsin;
- o'rinsiz savollar bilan bemor g'ashini keltirmang;
- ikki yo ko'p ma'noli so'zlarni ishlatmang;
- ko'rsatmalarni aniq be'ing;
- ilojsiz muolaja, dori-darmonlarni va'da qilmang;
- bemor sizni tushunmay qolsa, erinmasdan so'zlaringizni yana takrorlang;
- siz bilan suhbatda bemor o'zida tug'ilgan savollarga javob topganiga ishonch hosil qiling;
- zarurat bo'lganda bemorga tegishli mutaxassisni tavsiya eting;
- bemorga zarurat paydo bo'lganda o'z telefon raqamlaringizni bering va telefon orqali so'zlashuvdan qochmang, bemorga tekshiruv natijalarini muntazam ravishda aytib turing;
- tavsiyalar, ko'rsatmalaringizni nazorat qilib turing;
- punktual bo'ling (punctual - fransuzchadan punktual - nuqta, ya'ni aniq, saranjom-sarishta, va'dasini vaqtida bajaruvchij);
- qabul vaqtiga kech qolsangiz bu haqda telefon orqali ogohlantiring;
- davo ijobiy natija bermasa kerakli mutaxassisga yuboring;
- zarur bo'lsa shifoxona (statsionar)lar davolanishni qat'iy talab qiling.

Muloqotning ikkinchi ko'rinishi *noverbaldir, ya niso 'zyordamisiz muloqot.* Bunday muloqot asosan xatti-harakat, imo-ishoralar bilan yuzaga keladi. Bunda:

- mimikalarga, ayniqsa, noxush tuyg'uni ifodalovchi mimikalarga e'tibor qiling va ularni nazorat qiling;
- qo'lning beo'xshov xatti-harakatlarini qilmang;
- chuqur «uh» tortmang;
- ko'z qarashlaringizni nazorat qiling;

- burun jiyirmang, qosh chimirmang, tish kavlamang, quloq qichimang, saqich chaynamang (aks holda bemor hamiyati ozor chekishi mumkin);
- behuda kulavermang;
- vaziyat taqozosidan kelib chiqib, eng maqul masofada turing;
- gavgangizni bemorni teksirish uchun va u bilan suhbatlashishga qulay holatda tuting (kasalliklarning spesifik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda), juda uzoq masofada muloqot qilmang;
- suhbat vaqtida erkinlik yarating, bemorni diqqat bilan tinglang, savollar va mulohazalar bilan chalg'itmang, shoshilmang;
- bemordan nigohingizni (ko'zlarigizni) olib qochmang;
- uning so'zlariga qiziqishingizni bildirib turing;
- suhbatning asosiy mohiyatini ilg'ab oling;
- muloqotni ko'zlarigiz bilan qo'lib turing;
- «ha» ma'nosida boshingizni irg'ab turing;
- ma'lumotlarni tushunishga harakat qiling;
- tabassumdan to'g'ri foydalaning.

SO'RAB-SURISHTIRISH USLUBLARIGA DOIR

Bemor bilan dastlabki muloqot iliq tabassum ila salomlashishdan va o'zaro tanishuvdan boshlanadi. Shifokor va bemor suhbat uchun qulay vaziyat egallab olgach, bemordan shikoyatlarini, kasallikning rivojlanish tarixi (Anamnesis morbi): qachon, qay tarzda boshlangan, dastlabki klinik belgilari, qachon tibbiy yordamga murojaat qilgan, qanday yordam ko'rsatilgan, uning foydasi va h.k. Kasalning hayot tarixi (Anamnesis vitae): oilaviy, ijtimoiy ahvoli, yashash, ishlash joyi va sharoiti, avvalgi kasalliklari, o'tkazilgan jarrohlik amallari, nasliy-irsiy kasalliklari, dori-darmonlarga allergik sezgirligi kabilar surishtiriladi.

Umumiy ko'zdan kechirish, tekshiruvdan so'ng bemorga dastlabki tashxisiy mulohazalar, yordamchi yoki qo'shimcha tekshiruvlar, dori-darmonlarning qanday qabul qilinishi va boshqa maslahatlar aytiladi. Anamnezning yig'ilishi davolanish jarayonida to'ldirib boriladi. So'rab-surishtirish shifokordan alohida mahorat talab etadi. Aniq, chuqur bilim asosida o'tkazilgan so'rab-surishtirish aksariyat kasallikka to'g'ri tashxisning qo'yilishiga yordam beradi.

Suhbatdan so'ng bemor o'zini yengil his etishi, shifokorga nisbatan katta ishonch, tuzalishga umid paydo bo'lishi darkor!

Shifokorning linglay olish madaniyatiga oid tamoyillarni tahbalar uqib olishlari va kelgusi amaliyotlarida qo 'Hay olishlari zarur.

Turli xastalıklarda bemor bilan muloqotning o'ziga xos xususiyatlari

Mazkur qo'llanmada ma'lumotlar terapiya bo'limidagi bemorlar hamda shifokor-hamshira muloqotiga taalluqlidir. Tibbiyot amaliyotida kasallik turlari yuzlarcha. Bular bilan qanday muomala qilish zarur?

Qo'yilgan savolga javob berishni tartiblashtirish maqsadida kasallik turlaridan kelib chiqib, muloqotni quyidagi guruhlariga bo'amiz:

1. Ruhiy bemorlar bilan muloqot.
1. O'limi tez orada muqarrar bemorlar bilan muloqot.
3. Yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlar bilan muloqot.
4. Jarrohlik bo'limidagi bemorlar bilan muloqot.
5. Ginekologiya va tug'ruq bo'limidagi bemorlar bilan muloqot.
6. Pediatriya muomala odobi.
7. Bemor qarindoshlari bilan muloqot.

Ruhiy bemorlar bilan muloqot. Ruhiy kasalliklar shifoxonasida tibbiyot xodimlari bemorlarga yumshoq muomalali, sabrli bolishlari kerak. Iliq munosabatlarni o'rnatish, avvalombor, bemorning ishonchini qozonish darkor. Buning uchun shitbkordan bag'rikenglik, qat'iyat, muloyimlik, mehr-muruvvat, to'g'riso'zlik talab qilinadi. Aksincha, yolg'on so'zlash,

mug'ombirlik qilish kasalning shifokorga boigan ishonchini yo'qotadi. Davolash jarayoni uchun muhim bo'lgan ichki olam sirlarini ruhiy bemor ochmaslikka harakat qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, aksariyat ruhiy bemoilar o'ta sezgir bo'lib, samimiylikni soxtalikdan tezda ajratib oladilar.

Ruhiy kasallikka chalingan har qanday bemor shifokor, hamshiradan o'ziga nisbatan alohida e'tibor, mehr talab etadi. Shunday ekan, bu munosabatning ikki comonlama bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Hosil boigan vaziyat nihoyatda qaltis. Bemor c'z shifokoridan kutgan iliq munosabatni, mehr-muruvvatni ko'rmasa, undan ko'ngli qoladi. Natijada hatto o'z vaqtida amalga oshirilgan kimyoviy va hatto ruhiy muolajalar ham samara bermay qolishi mumkin. Shifokor bemori bilan muloqotda ana shunday «jarlik» yoqasiga kelib qolmasligi kerak.

Quyida toksikoman - bemor bilan muloqot haqida fikr yuritamiz.

Toksikoman bemor tushkunlik kabi og'ir holatga o'zining o'ta irodasizligi tufayligina tushib qoladi. Bemordagi qi'su: va kamchiliklarni ochiq-oydin ko'rsatish davo jarayoniga zarar keltirishi mumkin. Muloqot chog'ida bemorning kundan-kunga ahvoli yaxshilanib borayotganini, mushohadasi liniqlashayotganini, so'zlashganda talaffuzi aniqlashayotganini, nigohlari esa oydinlashayotganini gap orrasida (urg'u bermasdan) aytib o'tish durust bo'adi. Ruhii muolaja, albatta, mehnat terapiyasi bilan uyg'uniikda olib borilsa, samaraiiroq bo'adi.

Shuningdek, alkogolizm, narkomaniya muammosini hal qilishda o'zaro ishonch asosida muloqot o'rnatish muhimdir. Ko'pincha, bunday kasallar o'zlarini, «mutloq sog'» deb hisoblaydilar va o'z «qobiqlariga» kirib qoladilar. Bunday bemorlarga uning kimlargadir kerakligini, uni faqat o'zi uchun emas «kimdir» uchun ham tuzalishi va yashashi lozimligiga ishontrish, ruhiy dalda beiish, kasallikni yengish uchun ishonch paydo qilish kerak. Bu o'rinda bemor yaqinlarining yordami benihoya katta.

Ruhiy bemorlar bilan muomala qiluvchi shifokor nihoyatda kuchli irodaga ega bo'lsagina ko'zlangan maqsadiga yetishi oson bo'ladi. Aks holda mazkur kasbni tanlaganiga tezda pushaymon bo'lib qolishi mumkin.

Demak, ruhiy kasallik bilan og'riqan bemor bilan muomalada shifokor va hamshiradan an anaviy talablardan tashqari katta sabr-toqat talab etiladi.

2. *O'limi tez orada muqarrar bo'lgan bemorlar bilan muloqot.* Bu muloqot chog'ida shifokor va hamshirada kuchli ruhiy zo'riqish ro'y beradi. Barcha chora-tadbirlar ko'rilgan, lekin bemor hayoti letal tugashi (o'limi) muqarrar. Har bir bemor xoh u hayotga qaytsin, xoh buning aksi bo'lsin, shifokor va hamshira fojiali holatlarda o'zini o'zi «ey li». Shifokor o'zini mana shunday nozik hayotiy holatlarga tayyorlashi muhim.

Jigar sirrozi kasaliigida bemor ma'lum vaqtdan so'ng (ehtimol, yaqin kelajakda) vafot etadi. Bemor endi taqdirga tan bergan. Uning vafoti juda yaqin emas, lekin uzoq yillar ham yashamaydi. Bu holatda shifokor ma'lum me'yorda bemor bilan ochiqroq suhbatlashishi mumkin. «Sizning ahvolingiz nisbatan durust. Negaki, songgi olingan bioximik natijalar ancha yaxshi», - deb yupatish mumkin. Bu yerda ham ma'lum holatda bemoruing shaxsiy xususiyatlariga e'tibor berish kerak bo'ladi. Masalan, irodasi mustahkam, hayot zarbalarini matonat bilan titib oladigan ba'zi bemorlarga (agar o'zi talab qilsa) haqiqatni balki aytgan ma'qul (xususan, vasiyatnoma, meros taqsimoti kabi yuridik hujjatiarni rasmiylashtirishi uchun). Yana bir muammo. Kasalga rak tashxisini aytish kerakmi? Ayni paytda bir hayotiy voqeani keltiramiz. Bemor (taniqli jurnalist) kundan-kun ozib, holsizlanib, to'sh suyagi ostida noxushlik seza boshlaydi. O'tkazilgan davo ijobiy natija bermaydi. Shunda Respublikadagi taniqli jarrohnii maslahat uchun chaqiradilar. Bemor bu mutaxassisni bir necha kun intizorlik bilan kutadi. «Ko'rik» kuni ham yetib keladi. O'sha «mashhur» jarroh kasalni tezda ko'radi-yu, achchiq haqiqatni qo'rslik bilan (bemor huzurida) aytadi: «Bu kasalda oshqozon raki. O'tkazib yuborilgan, davodan foyda yo'q», - deb xonadan chiqib ketadi.

Bechora kasal ahvolini bir tasavvur qiling-a, qancha-qancha umid bilan necha kunlab kutilgan «ko'rik»ning natijasi... Bunday haqiqat metastazdan ham dahshatliroq emasmi? Axir bemorning sanoqli kunlari qora tunga aylanmaydimi?

Shuni ham aytish kerakki, agar bemor operatsiyadan bosh tortsa, unga kasalining jiddiyligini yengil shaklda bildirish joizdir. Ayniqsa, bemor qohiga rak tashxisini ko'rsatuvchi rentgen qog'ozlarini bermaslik, hujjatlarda «oshqozon organik o'zgarishi» yoki «oshqozon yarasi» deb ko'rsatishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bemor atrofidagi tibbiyot xodimlari o'z kasblariga nisbatan jiddiy bo'lib, fahm-farosat bilan munosabatda bo'lsalargina o'z vijdonlariga xilof ish tutmagan bo'ladi.

3. *Yuqumli kasalliklar bilan og'riqan bemor bilan muloqot.* Bemor o'zining yuqumli kasal bilan og'riqanidan xabar topgan zahoti ruhan tushkunlikka uchraydi. Chunki bulardan ba'zilari uzoq muddat davolanadi (masalan, sil, zahm kabilar). Boz ustiga ba'zan qat'iy,

davomli parhezning talab etilishi bemorni tushkunlikka tushirib qo'yadi (jumladan, virusli gepatit kabilar).

Sil kasalligi bilan og'rigan bemorlar ruhiyati intoksikatsiya va uzoq davomli tuberkulostatik dorilarni ichishi ta'sirida o'zgarib boradi. Ular o'ta asabiy, xudbin (egotsentrik) bo'lib qoladilar. Atrofdagilarning bunday kasallardan «qochish»lari ularni ruhiy tushkunlikka solib qo'yadi. Sil bilan og'rigan bemorlar oylab statsionarda, yaqinlaridan uzoqda yashaydilar. Shuning uchun tibbiyot xodimlari e'tibor bilan doimiy psixoterapevtik muolajalarni o'tkazib turishlari, ulardan oshkora qochmasliklari kerak.

Teri-tanosil kasalliklarida bemor o'zidagi teri o'zgarishlarini yashirishga harakat qilib, jismidagi doimiy noqulaylikni his etib yashaydi. Zahm tashxisini eshitgan bemor depressiyaga uchraydi va joniga qasd qilish (ya'm suitsid) fikri tug'iladi. Bunday damlarda shifokor bosiqlik bilan kasallikni davolash mumkinligini tushuntirishi kerak.

Amaliyotda zahm, so'zak (gonoreya) yoki trixomonoz bilan og'rigan kasallar davolanishdan bosh tortgan hollar uchrab turadi. Albatta, bunday paytda ushbu kasallik bilan og'rigan bemorlar zudlik bilan majburiy davolanishga jo'natiladi. Bu vazifa huquqni muhofaza qilish organlari yordamida amalga oshiriladi.

Demak, shifokor yuqorida qayd qilingan kasalliklarga muhtalo bo'lgan bemorlarni davolash jarayonida ularning ruhiyatidagi o'zgarishlarni va bu kasalliklarning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda har bir bemor bilan alohida mulqot o'rnatishi durust bo'ladi.

Dizenteriya, virusli gepatit, meningit kasalliklarida shifokor o'ziga xos deontologik yondoshmogi kerak. Bemorga, bunday paytda zudlik bilan kasalxonada davolanishi kerakligi, aks holda turli asoratlarni muqarrarligini, izolyatsiya qilinmasa, oilaning boshqa a'zolariga yuqish xavfi borligi tushuntirilishi kerak. Ko'pincha aholi o'rtasida o'zim tuzalib ketaman, degan noto'g'ri fikr yuradi.

Xulosa qilib aytish kerak, yuqumli kasalliklar deontologiyasi bemorlarning nozik ruhiyatlari xususiyati bilan bog'liq.

Jarrohlik bo'limidagi bemorlar bilan muloqot.

Bu bo'limdagi bemorlarni shartli ravishda 2 guruhga bo'lish mumkin:

1. Bo'limga reja asosida kelgan bemorlar.
2. Bo'limga to'satdan kelgan bemorlar.

Birinchi guruhga oid bemorlar keyingi guruhdagilarga nisbatan taqdirga tan bergan, bo'limda kechayotgan tibbiy jarayon va hodisalarga asabiylashmay, aql ko'zi bilan qaray oladigan bemorlar kiradi. Chunki ular haftalab, oylab va hatto yillab jarroh stoliga yotish muddatini kutib yashaydilar. Bunga kishi tanasidagi ba'zi fiziologik jarayonlar (hayz davri yoki donordan biron a'zoni kutish) sabab bo'ladi. Bemor jarrohlik jarayonini intizorlik bilan kutadi. Bular bilan suhbat keyingi guruhga oid bemorlarning o'rtasida bo'ladigan suhbatdan yengilroqdir. Donorlik a'zoni kutayotgan bemorni shifokor tinchlantirishi, umid baxsh etishi kerak.

Bo'limga to'satdan kelib qolgan bemor ruhi bunday zarbaga tayyor bo'lmaydi. Shu sababga ko'ra, ular bilan nihoyatda ehtiyotlik bilan muomalada bo'lishi kerak. Shu o'rinda aytish mumkinki, bu bemorlar taqdir zarbasi tufayli jarrohlik bo'limiga kelib qolganlar.

Demak, jarrohlik bo'limida shifokor bemorning ham jismoniy, ham ruhiy iztiroblarini tushungan holda muomala qilgani ma'quldir.

Ginekologiya va tug'riq bo'limidagi bemorlar bilan muloqot.

Bemorlar bu bo'limga (jarrohlik bo'limidagi kabi) reja asosida vato'satdan kelib qoladilar. Bemorlarni asosan, kamqonlik, toksikoz, bola tushish tahdidi kabi holatlar bezovta qiladi. Ba'zilari kutilmagan tashvishga duchor bo'ladilar, ya'ni bu onalar o'z rahmi (bachadoni)dagi farzandlaridan bevaqt judo bo'ladilar. Aks holler ham bo'ladi - ayollar istalmagan homiladan xalos bo'lishni so'rab keladilar. Shifokor turli niyatlar, turli orzular, aytish kerakki, bir- biriga zid maqsadlar bilan bo'limga kelgan ayollar ko'nglini topib muomala qila bilishi kerak.

Ijobiy va salbiy, ya'ni qarama-qarshi tuyg'ular ummoni mavjud muhitda xizmat qiluvchi tibbiyot xodimlaridan ziyraklikning talab etilishi tabiiydir.

Ginekologiya bo'limidagi ayollarni tekshinsh jarayonida ular tabiatiga xos bo'lgan uyatchanlikni hisobga olib, muomala qilish kerak. Ayniqsa, befarzand va klimaks davridagi ayollar fe'li juda ta'sirchandır. Bemor ayollarni imkon qadar begona nigohlardan xalos etgan ma'qul.

Tug'ish jarayonida ayollarga muloyim so'zlash, qo'pol xatti-harakat qilmaslik, shirin so'zlar bilan qo'llab-quvvatlash kerak.

Farzandini yo'qotgan, og'ir loksikoz paytidagi ayollarga o'zgacha deontologik yondoshmoq kerak. Aytaylik, ayol farzandini yo'qotdi. Shifokor bu ayol va uning turmush o'rtog'iga hamdardlik bildirib, kelajakda yana farzand ko'rishlariga umid tug'dirishi lozim. Shuningdek, har bir yosh ayol bilan kontratsepsiyalar haqida. abortning (ayniqsa, birinchi farzandni oldirishning) o'ta zararliligi xususida suhbatlashishi muhim.

Ta'kidlangandek, e'tiborsiz aytilgan so'z noxush holatga olib kelishi mumkin. Bu o'rinda hayotiy misol keltiramiz: hamshira bemor ayolni navbatdagi muolajaga olib borar ekan: «Negadir bachadoningizdagi yoriqlar bitmayapti. Yaxshilab tozalamasak, bachadoningiz chirib ketishi mumkin» - dedi. Bunday «suhbat»dan so'ng bemor ruhiy tushkunlikka tushib, laktatsiya (sut kelishi) to'xtab qoladi. Ko'rinib turibdiki, bunday deontologik xatoga aslo yo'l qo'ymaslik kerak.

Barcha bo'limlardagi kabi ginekologiya dargohida ham shifokorlik sirini saqlash talab etiladi (bepushtlik tashxisi, faizand asrab olish kabi).

Tug'ruq va yangi tug'ilgan chaqaloqlar bo'limida tibbiyot xodimi shaxsiy tozalik qoidalariga rioya qilishi, ya'ni tirnoqlari olingan, qo'llarida turli bezak, taqinchoqlar bo'lmasligi kerak.

Demak, hayot-mamot chegarasida turgan va yaqin kun, soat, daqiqalarda ona bo'lish baxtini kutayotgan, lekin toig'oq dardida azob chekayotgan ayolning barcha injiqliklarini mehribonlik, bag'rikenglik, shirinso'zlik va sabr bilan «ko'tarish» uchun shifokor va hamshira o'zida katta kuch topa bilishi muhimdir.

Pediatriya muomala odobi.

Darhaqiqat, bu soha mutaxassislari:

- hali tilga kirmagan, so'zlay olsa-da, xastalik belgilarini to'g'ri bayon qilib bera olmaydigan;
- ozroq ma'lumot bera olsa ham «begona», «oq xalatli» insonlar bilan gaplashishdan bosh tortadigan, betinim yig'laydigan, hech narsaga ovunmaydigan bolalar bilan muomala qilishga majbur bo'ladi.

Bola tinmay yig'lab, pediatr ko'rigiga xalaqit berishi mumkin. Lekin shifokor bu holatda asabiylashmasligi, sovuqqonlik bilan avval ona bilan savol-javob qilish:, so'ng bolani tekshira boshlashi kerak. Yosh onaning hayot tajribalari oz va ruhiyatining nozik ekanini hisobga olgan ravishda tashxisni yumshoqroq, kishi cho'chib ketmaydigan shaklda aytgani ma'qul.

Bolalarni operatsiyaga tayyorlashda ularga tushunarli tilda gapirish kerak.

Pediatr kichik bemorlar bilan muomalada quyidagi tamoyillarni hisobga olishi talab etiladi:

- tinch, sokin, muloyim, qat'i gapirish;
- yoshni hisobga olib, o'tkaziladigan muolajalarni tushuntirish;
- bola uchun (imkon qadar) tushunarsiz so'zlarni ishlatmaslik;
- bola biron muolaja (operatsiya)da cho'chiganda boshqa bolalar misolida tinchlantirish kerak.

Demak, pediatr - donorlar aytgandek, farzandlarga katta hurmat, ehtirom bilan munosabatda bo'lish lozimligini yodda saqlagani maqsadga muvofiqdir.

Bemor qarindoshlari bilan muloqot.

Bemor qarindoshlari bilan ko'pincha qaltis, og'ir holatlarda muloqot qilinadi. Xususan:

- o'zi haqida to'liq va to'g'ri ma'lumot bera olmovchi ruhiy kasalning;
- o'limi muqarrar bo'lgan, lekin buning ochiq belgilarini sezmayotgan bemorning;
- jonlantirish holatida yotgan, ya'ni shifokor bilan suhbatlashish layoqatiga ega bo'lmagan bemorning;
- nozik va qaltis operatsiya yoki oddiy operatsiya qilinishi zarur bolgan bemorning qarindoshlari bilan alohida, yakkama-yakka suhbat qilinishi zarur.

Bunday suhbatlar yuridik hujjatlarda (zaruriy holatlarda) o'z aksini topishi zarur (masalan, bemor operatsiyasiga ruxsat etuvchi xatni yozish).

Ba'zan bemorning qarindoshlari bilan ahvolning yomonligi yoki qandaydir oxirgi chora ko'rish maslahatlashiladi. Va bu hufyona (yashirincha) kechgan suhbatdan bemor shubhalanmasligiga e'tibor muhimdir.

Biz turli xastaliklarda bemor bilan muloqotning o'ziga xos xususiyatlari masalasini ko'rdik. Imkon qadar turli xastaliklardagi muloqotning umumiy va o'ziga xos deontologik xususiyatlariga e'tibor qildik.

Bemor bilan muloqotda hosil bo'ladigan savollarga etalonli javob namunalari

1. Bemorni tekshirishdagi 4 sub'ektiv usulni aytib bering:

- pasport qismi;
- bemorning asosiy shikoyatlari;
- kasallikning rivojlanish tarixi;
- bemorning hayot tarixi.;

2. Kasallikning rivojlanishi to'g'risida aniq javob olish uchun bemorga 5 ta qanday asosiy savolni berish kerak:

- kasallik qachon va qay vaqtda boshlandi?
- u qanday boshlandi: to'satdanmi yoki asta-sekinmi?
- kasallikning kechishi qanday bo'ladi?
- qanday tekshirish o'tkazildi va uning natijalari?
- qanday muolaja o'tkazildi va uning natijalari?

3. Bemorning hayot anamnezini yig'ishdagi 5 ta asosiy bosqichni sanab bering:

- umumtarjimai holi to'g'risida ma'lumot;
- yashash, turmush sharoitlari;
- noqulay sharoitlar va ishlab chiqarishning zararli ta'sirlari,
- oilaviy-irsiy anamnez
- allergik anamnezi.;

4. Bemorni ob'ekth tekshirishning 5 ta usulini sanab bering:

- bemorni umumiy ko'zdan kechirish (inspeksio);
- paypaslash (palpatsio),
- to'qillatish (perkuss, -eshitish (auskultatsio);
- laborator asboblardan orqali tekshirish usullari.;

5. Eng ko'p uchraydigan 4 ta allergik reaksiyani aytib bering:

- vazomotor rinit;
- eshakemi,
- Kvinke shishi
- Anafilaktikshok.

6. Shifokor (hamshira) deontologiyasi bo'yicha 3 ta asosiy tushunchani aytib bering:

- shifokor (hamshira) bilan bemorlarning o'zaro munosabati to'g'risidagi ilm;
- mutaxassislik vazifalari haqidagi ilm;
- bioetika me'yorlarning majmui.

7. Bemorni umumiy ko'zdan kechirishda rioya qilinadigan 4 ta qoidani ayting:

- tibbiy yorug'likda ko'rish;
- xonada normal haroratning bo'lishi;
- bemorning belgacha yechingan bo'lishi,
- ko'zdan kechirishni to'liq va tartib bilan o'tkazish.

-

8. Bemorni sohalar bo'yicha tartib bilan ko'rishning 10 ta qoidasini aytib bering:

- boshni ko'rish;
- yuzniko'rish;
- bo'yinni ko'rish;
- ko'krakni ko'rish;
- oyoq-qo'llarni ko'rish;
- terini ko'zdan kechirish;
- suyaklarni ko'rish;
- bo'g'imlarni ko'rish;
- shilliq qavatlarini ko'rish;
- sochni ko'rish.

9. Bemor ahvolining 5 xil holatini aytib berins:

- qoniqarli holat;
- o'rtacha ahvol;
- og'ir holatda;
- o'rta og'ir holat

- agonal (o'lim to'shagida yotgan) holat.

10. Bemor es-hushi buzilish holatining 4 xilini aytib bering:

- es-hush xiralashgan holat;
- garang bo'lib, qotib qolish holati (stupor);
- es-hushi yo'qolib, uyquga ketish holati (sopor);
- chuqur uyquga ketish - reflekslarning yo'qolishi (koma).

11. Eng ko'p uchraydigan koma holatini 7 turini aytib bering:

- ichkilikdan kelib chiqqan koma,
- diabetik koma;
- gipoglikemik koma;
- jigar kasalligidagi koma;
- buyrak kasalligidagi uremiya komasi;
- tutqanoqli koma; -apopleksik koma.

12. Bemor faoliyatining 3 xilini ayting:

- faol (aktiv) vaziyat;
- passiv (sust) vaziyat;
- majburiy-noilojlik vaziyati.

13. Qaddi-qomat tuzilishini 3 ta turini aytib bering:

- astenik;
- giperstenik;
- normastenik.

14. Endokrin bezlarning funksiyasi buzilganda sodir bo'lgan yuz ko'rinishining 4 xil o'zgarishini aytib bering:

- akromegaliyadagi yuz ko'rinishi;
- miksedemadagi yuz ko'rinishi;
- basedov yuzi;
- oysimon yuz ko'rinishi.

15. Bemorlarda uchraydigan 9 ta yuz qiyofasini ayting:

- kerkigan yuz;
- korvizor yuzi;
- isitmali yuz;
- shersimon yuz;
- mumli qo'g'irchoqqa o'xshash yuz qiyofasi;
- mimikasiz yuz «Parkinson niqobi»;
- Gippokrat yuzi;
- assimetrik yuzi;
- sardonik yuz.

16. Terini ko'zdan kechirishda qanday 5 ta o'ziga xos o'zgarishga diqqatni qaratishimiz kerakligini aytib bering:

- rangi;
- cho'ziluvchanligi;
- namli;
- toshmalar borligi;
- chandiqlar borligi.

17. Teridagi 4 xil toshmalarni aytib bering:

- rozeola;
- eritema;
- uchuqtoshma;
- purpura.

18. Teri rangining 6 xil o'zgarishini aytib bering:

- bo'zargan;
- qizargan;
- ko'kargan;
- sarg'aygan;
- oqargan;
- qora qo'ng'ir yoki jigarrang.

19. Bemor haroratining 6 asosiy turini aytib bering:

- doimiy harorat;
- bo'shashtiruvchi harorat;
- almashinib turuvchi harorat;
- gektik harorat;
- teskari xillik harorat;
- noto'g'ri harorat.

20. Tananing asosiy 6 ta antropometrik o'lchamlarini ayting:

- bo'yi va ko'kragi;
- ko'krak qafasi aylanasi;
- qorin aylanasi;
- oyoqlar oichami;
- beli va bo'yin aylanasi;
- chanoq o'lchami.

MIOKARD INFARKTI BILAN OG'RIGAN BEMORGA SAVOL VA MASLAHATLAR

1. Ko'kragingizning to'sh suyagi orqasida paydo bo'ladigan slenokardiya huruji oxirgi paytda tez tez qaytalayapti? - Ha, - Yo'q.

2. Chap qo'lga, chap kurak ostiga uzatiladigan og'riqlar keyingi vaqtda ko'paydimi? -Ha, - Yo'q.

3. Biroz jismoniy harakat qilganingizda yoki kechalari to'sh suyagi atrofida og'irlik, og'riq yoki kuyish holatini sezadigan bo'lib qoldingizmi? - Ha, - Yo'q.

4. Yengil jismoniy harakat qilgan paytingizda yoki tinch holatda nafas olishingiz tezlashib ketadimi? - Ha, - Yo'q.

5. Sigaret chekasizmi? - Ha, - Yo'q.

6. Agar chekuvchi bo'lsangiz, kuniga 10 ta yoki undan ko'proq sigaret chekasizmi? - Ha, - Yo'q.

7. Kayfiyatingiz (asabingiz) doimo buzuq (stress) holatda yurasizmi? - Ha, - Yo'q.

8. Qon bosimingiz odatda baland bo'ladimi? - Ha, - Yo'q.

9. Biroz harakatdan so'ng yuragingiz urushi tezlashadimi yoki noteks ura boshlaydimi? - Ha, - Yo'q.

10. Tez uyquga keta olmay qiynalasizmi, yomon uxlaysizmi? - Ha,-Yo'q.

11. Oyoq-qo'llaringiz har zamonda sovib yoki namlanib qoladimi? - Ha, Yo'q.

Ushbu savollarga olingan; tasdiq yoki inkor javobga qarab shifokor, hamshira bemorning yurak kasalligi haqida o'z tashxisini qo'ya oladi va foydali maslahatini beradi. Masalan, ko'proq «yo'q» degan javobni bergan bemorga yuragingizga jiddiy tahdid qiluvchi omillar yo'q, deydi. Faqat ko'proq harakat qilish, ovqatlanish tartibini saqlash, semirib ketmaslik, stress va chekishdan uzoqroq bo'lishini tavsiya qiladi.

Agar «ha» degan javob ko'p uchrasa, bunday bemorga shifokorning tashxisi va maslahati quyidagicha bo'ladi:

- Sizda miokard infarkti kasalligiga moyillik bor. Shuning uchun kardiolog bilan maslahat qilishingizni tavsiya qilardim. Har qalay, yuragingizni elektrokardiogrammasini oldiring. Ovqatingizdagi achchiq, yog'li va go'shtni cheklang, chekishni tashlang. Qon bosimingizni tez-tez o'lchatib turganingiz ma'qul. Shu maslahatlarimni bajarsangiz, og'ir yurak yetishmovchiligi kasalligini oldini olishingiz mumkin.

BEMOR BILAN MULOQOT NATIJASIDA SHIFOKORDA HOSIL BO'LGAN MANTIQUIY TASHXIS NAMUNALARI

Nafas olish tizimi kasalliklarida mantiqiy tashxis

1. Bemor haroratining keskin ko'tarilish ($39-40^{\circ}\text{S}$), qaltirash, ko'pincha bir tomonlama ko'krak qafasida sanchiq (og'riq)ning paydo bo'lishi, hansirash, lunj qizarishi, lab, burun va quloq uchining ko'karishi, labdagi gerpetik toshmalar (uchuqlar); avval quruq 1-2 kundan so'ng zangsimon balg'am ajralishi, shikastlangan tomonning nafasdan orqada qolishi zotiljam (o'pka bir bo'lagining yallig'lanishi) kasalligidan dalolat beradi. Bunday holda bemorni terapevtik bo'limiga yotqizib, tekshiruvdan o'tkazish va tez yordamga kirishish lozim.

2. Nafas chiqarishning qiyinligi, uzoqdan eshitilib turadigan davomli, hushtaksimon, shovqinli xirillashlar, yopishqoq balg'amning qiyin ajralishi; og'zi ochiq, burun qanotlari kengaygan, bo'yin tomirlari bo'rtib chiqqan, terga botib majburiy holatni (ya'ni qo'llarini tizzalariga tirab o'tirishi), bronxial astma (diqqinapas) xastaligining bo'g'ilish huruji davrida kuzatiladi, bunda kislorodli yostiq va astmaga qarshi bor dorilarni berib, shifokorni chaqirish darkor.

3. Bemorda tana haroratining ko'tarilishi ($39-39,5^{\circ}\text{S}$), ko'p terlash, hansirash, quruq yo'tal, lab ko'karishi, kasallangan tomonning nafas harakatidan orqada qolishi; qattiq og'riq (sanchiq) boiganda kasal tomonga yonboshlab yotishi plevranning yallig'lanishiga xos bo'lib, bemor darhol terapiya yoki pulmonologiya bo'limiga yotqizilishi kerak.

4. Tez charchash, kechalari ko'p terlash, ishtahaning pasayishi. quvvatsizlik, tana haroratining ko'tarilib turishi (ko'pincha subfebril $37-37,3^{\circ}\text{S}$), yo'tal paytida qon tupurish, ozib ketish - o'pka sili kasalligining belgilaridan bo'lib, albatta, ftziatr maslahatini olish tavsiya qilinadi.

Yurak qon tomir tizimi kasalliklarida mantiqiy tashxis

1. Bosh aylanishi, bosh og'rig'i, quloq shang'illashi, ko'z oldi tinib ketishi, yurak sohasidagi og'riq, yurakning tez-tez urishi, ba'zan burundan qon ketishi, hansirash kabi belgilar arterial qon bosimi ko'tarilganidan dalolat beradi. Bunday hollarda qon bosimini o'lchash, kardiologga murojaat qilish tavsiya etiladi.

2. To'sh suyagi orqasida qo'qqisdan siquvchi og'riqning bo'lishi, og'riqni chap yelka va qo'lga berilishi, og'riqni bir necha soniyadan bir necha daqiqalarga davom etishi, bemor harakatidan to'xtab, o'tirib vahima (tahlika)ga tushishi (oiim xavfini o'ylab) va nitroglitserin, erinit, validol kabi dorilarni ichishni taqozo qiladigan holatga «stenokardiya» deyiladi (yurak ishemik kasalligining boshlanishi). Bu holda bemor kardiologga uchrashi, qon bosimini olchatishi va elektrokardiogramma qildirishi va qonda protrombin (qonning ivishi jarayonini ko'rsatkichlaridan biri) aniqlanishi kerak.

3. Agar to'sh suyagi orqasida qattiq og'riq, kuyish, chap qo'l, chap ko'qrak ostiga uzatilib, 2-3 soatlab davom etsa (hatto 2-3 kunlab, validol, nitroglitserin yordam bermaydi), yurak tez, notekis ura boshlasa, ba'zan ko'ngil aynab, qusish kuzatilsa, bu miokard infarkti (ya'ni, yurak muskulida nekroz o'chog'i paydo bo'lishi) alomatidir. Bunday paytda EKG qildirish, arterial qon bosimni tez-tez o'lchash, darhol shifokorni yoki tez tibbiy yordamni chaqirtirish va kardioreanimatsiya bo'limiga zudlik bilan yotqizish kerak.

4. Tana haroratining ko'tarilishi aksari tizza-tirsak, yelka, boldir-panja bo'g'imlarini qizarib, shishib, harakatda og'riqi, og'riqning «ko'chib yurishi» revmatizm xastaligida kuzatiladi, agar bemor yurak sohasidagi og'riqqa, yurak o'ynashi, hansirashdan shikoyat qilsa, bu yurakning revmatizm natijasidagi shikastlanish (miokardit)ini ko'rsatadi.

Hazm a'zolari kasalliklarida mantiqiy tashxis

1. Agar ovqatdan 15-20 daqiqa o'tgandan so'ng va o'rta yoshdagi bemorning epigastral sohasida qattiq g'ijimlovchi og'riq paydo bo'lib, jig'ildon qaynashi bilan davom etsa, bu oshqozon yara kasalligi oqibati. Agar shunday og'riq ovqatlangandan keyin 1-2 soat o'tgach, kechasi yoki nahorda kuzatilsa, bu yara o'n ikki barmoq ichakdaligining dalolati. Bunday hollarda bemorlar oilaviy poliklinikaning kunduzgi shifoxonasiga yotqizilib, yara qonayotganligi yoki qonamayotganligini tekshirtirish kerak. Gregersen metodi - benzin bilan).

2. Oshqozon yoki o'n ikki barmoq ichak yara kasalligi bilan og'riqan bemorda to'satdan umumiy ahvolning yomonlashuvi (quvvatsizlik, bosh aylanishi, ko'z tinishi, rang o'chishi), qorin sohasidagi og'riqning keskin zo'rayishi - yaradan qon ketayotganligi, uning teshilganidan darak beradi. Bu holda zudlik bilan shifokor chaqirib, bemor jarrohlik bo'limiga o'tkazilishi kerak.

3. Agar oshqozon yoki o'n ikki barmoq ichak yara kasalligi bilan uzoq muddat og'riyotgan bemorning umumiy ahvoli asta-sekin yomonlasha borsa (ko'ngil aynashi, o'qchish, qusish, ishtahaning pasayishi, ozish simptomlari paydo bo'la boshlasa), bu pilorospazm yoki yaraning xavfli o'smaga aylanayotganidan dalolat beradi. Bunday kasallar darhol klinikalarga yoki jarrohlik bo'limlariga yotqizilishi lozim.

4. Oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yara kasalligi bilan og'riq yosh bemorda surunkasiga qusish (ovqat yegandan 3-4 soat o'lgach), ko'ngil aynishi, og'riqning davom etishi, qorin sohasida noxushlik, quldirash, ozish, ishtahaning pasayishi - oshqozonning o'n ikki barmoqli ichakka o'tish qismining stenoz (torayishi) dan darak beradi. Bunday bemorlar albatta, terapevtik yoki jarrohlik bo'limlarida tegishli davo (ko'pincha, jarrohlik usulida) olishlari kerak. Shu klinik simptomlar yoshi o'tgan kasalda kuzatilsa, stenoz sababli oshqozon raki bo'lishi mumkin.

5. Qorinning qaysi sohasida bolmasin, to'satdan og'riq paydo bo'lsa, eng avvalo, ko'richak chuvalchangsimon o'simtan'ng yallig'lanishi - appenditsitni taxmin qilish kerak. Chunki og'riq avvaliga qorinnig appendiks joylashgan yerida emas, balki epigastral yoki chap qismidan boshlanishi mumkin. Bunday holda albatta jarroh bilan maslahatlashiladi. Qorinda to'satdan bo'ladigan sanchiq-og'riqlar ko'pincha oshqozon-ichak yarasi teshilganda, o'tkir o't-tosh kasalligida, oshqozon osti bezining o'tkir yallig'lanishida, buyrak-tosh kasalligida, ayollarda bachadondan tashqari homiladorlikda uchraydi.

6. Bemorda to'satdan paydo bo'lgan bo'shshish, bosh aylanishi, ko'z tinishi, badandan sovuq ter chiqishi, yuzning oqarishi, pulsning tez-tez urishi, tarangligining pasayishi, qorin sohasida og'riqlar paydo bo'lishi, ahlatning qora rangga bo'yalish va suyuq kelishi me'da-ichakdan yoki ichdan ko'p qon ketayotganligining (melena) belgilaridir. Buning asosiy sababi - yara kasalligining asoratidir. Agar axlatda laqqa qon topilsa, buni sababi gemorroy (bavosil) yoki vo'g'on ichak yarasi bo'lishi mumkin.

7. Me'da-ichakdan qon ketishi belgilari (qusiq yoki axlat bilan) nafaqat yara kasalligiga, balki jigar sirrozining oxirgi bosqichlarida ham ko'p uchraydi (vena varikozi jarohati tufayli).

8. To'satdan paydo bo'lgan o'tkir («xanjar sanchgan kabi» - «kinjalnaya bol») og'riq qorinning yuqori qismida kuzatilsa, oshqozon yoki o'n ikki barmoq ichak yarasi teshilganidan, o'ng qovurg'a pastki qismida kuzatilsa, o't qopi yorilishidan, o'ng yonboshda kuzatilsa appendiks yorilganidan darak beradi. Chidab bo'lmas darajadagi shunday kuchli og'riq qorin sohasida kuzatilsa, bu tif-paratif yoki yarali kolit kasalliklarida ichaklarning teshilishi alomatidir.

9. Kekirish, ayniqsa, yeyilgan ovqat hidi yoki oshqozonda uzoq turib qolgan ovqatning sassiq hidi bilai, davom etsa, bu oshqozon shirasi va kisiotasi kamligi bilan o'tadigan surunkali atrofik gastritning simptomidir. Bunday kasallikka chalingan bemorlar albatta roentgen va ayniqsa, endoskopik ko'rikdan o'tib, doimo gastroenterolog nazoratida bo'lishi kerak (me'da raking oldini olish uchun).

10. Agar qorinnig o'ng qovurg'a osti atroilda og'riq yoki og'irlik, og'izda taxirlik va achchiqlik alomatlar (ayniqsa ertalab) kuzatilishi jigar yoki o't qopining surunkali yallig'lanishidan dalolat beradi. Bunday bemorlar kunduzi shifoxonalarda ultratovush va bioximik tekshiruvlaridan (bilirubin va transaminazalar miqdori) o'tib, kasalliklarini aniqlatishi lozim.

11. Bemorda sariqlik alomati - qonda o't pigmenti (bilirubin) miqdorining oshishi tufayli teri hamda ko'z, og'iz shilliq pardalarining sariq rangga bo'yalishidir. Sariqlik jigar va o't qopi, o'sma, o't-tosh kasalliklarining va gemolitik kamqonlikning asosiy klinik simptomlaridan hisoblanadi.

Bemorda sariqlik belgisi sinchkovlik bilan ko'zdan kechirish quyuk (qizg'ish-shafran) sariqlik (jigar sariqligi) - jigar kasalligidan: yashilsimon sariqlik o't-tosh yoki o't yo'li o'smasi kasalligidan («mexanik sariqlik»), oq-sariqlik (limonrang) esa gemolitik anemi a («gemolitik sariqlik») kasalligidan dalolat beradi.

Sariqlik terida qichish simptomi bilan birga kechsa, bu -«mexanik» sariqlik belgisidir.

Buyrak va siydik chiqarish yo'llari kasalliklarida mantiqiy tashxis

1. Yuz, ayniqsa ko'zqovoqlarining to'satdan shishib ketishi, bosh og'rig'i, kecha-kunduzlik siydik miqdorining kamayishi (500 ml dan kam), siydik rangini go'sht yuvindisiga o'xshashi, buyrak kala qon tomirlarining yallig'lanishi - glomerulonefrit natijasida paydo bo'ladi va bu holatda bemor zudlik bilan nefrologiya bo'limiga yotqizilishi kerak.

2. Agar bemor tana haroratining ko'tarilishi, et uvishishi, bosh og'rig'i, tez-tez va og'riqli siydik ajralishi, bel sohasidagi bir yoki ikki tomonlama simillovchi og'riqdan shikoyat qilsa, bu buyrak jomlari shilliq pardasining yallig'lanishi - piyelonefrit alomatlaridan hisoblanadi.

3. Bel sohasidagi sanchiqli og'riq (ko'pincha bir tomonlama), og'riqning birdan boshlanib, chov, qoviq usti, jinsiy a'zolarga o'tishi, ko'pincha qayd qilish, tana haroratining ko'tarilishi buyrak va siydik yo'llarida tosh paydo bo'lganining asosiy belgilaridir.

Qon tizimi kasalliklarida mantiqiy tashxis

1. Agar bemorning terisi, ko'z shilliq pardalari oqargan bo'lib, boshi aylansa, qulog'ida shovqin boisa, tez charchasa, holsizlansa, uyqu tortsa, hansirasa, til uchi, qirralari achishsa, bo'r, loy, ko'mir yeyishga, benzin yoki kerosin hidlashga xohish tug'ilganidan shikoyat qilsa, bu kamqonlik (anemiya)dan dalolatdir. Bunday bemorlarni gematolog ko'rigidan va umumiy qon tekshiruvlaridan o'tkazish lozim.

2. Haroratning ko'tarilishi, suyak-bo'g'imda og'riq turishi, holsizlik, chap qovurg'a ostida og'irlik, og'riq sezib, ko'pincha limfa tugunlarining kattalashishi, milk qonashi, teri qichishi, har xil toshmalar toshishi, badanda sababsiz ko'karish paydo bo'lishi, ozib ketish kabi belgilar oq qon kasalligi - leykozlarda uchrashi mumkin.

Ichki sekretiya bezlari kasalliklarida mantiqiy tashxis

1. Yurakning tez-tez urishi, ortiqcha terlash, qo'l-oyoq titrashi, ko'z soqqasi kattalashib, chaqchayib qolishi; saiga yig'loqi, jizzaki, shoshib gapiradigan bo'lib qolish, toksik bo'qoq kasalligi belgilari bo'lib, bunda (qalqonsimon bezda tireoid gormonlarning ortiq ishlab chiqilishidan kelib chiqadigan) endokrinolog maslahati zarur.

2. Agar bemor ko'p chanqasa, siydik ko'p ajralsa, tez-tez qorni ochsa, ozsa, behol bo'lsa, jinsiy aloqaga mayli pasaysa, badani qichishsa, bu qandli diabet (ya'ni me'da osti bezi gormoni - insulinning yetarli ishlab chiqarmasligi) xastaligining asosiy belgilaridan hisoblanadi. Bu bemor albatta, endokrinolog ko'rigidan otkazilishi va uning doimiy nazoratida bo'lishi kerak.

Biriktiruvchi to'qima va bo'g'im kasalliklarida mantiqiy tashxis

Agar bemor simmetrik joylashgan mayda bo'g'imlardagi og'riqdan, ayniqsa, ertalab og'riq zo'rayib, bo'g'imlarning karaxtligidan, harakatga keltirish qiyinligidan shikoyat qilsa, (asosan mayda) bo'g'imlarning yallig'lanish kasalligi (revmatoid) hisoblanib, tezda shifokor - artrolog maslahatini olishi dardkor.

Agar oyoqning bosh barmog'ida kuchli og'riq, qizarish, shish paydo bo'lsa (ko'pincha birdan), darhol artrologga murojaat qilish kerak, chunki bunday belgilar podagra (purin moddasi almashinuvi buzilishi natijasidagi bo'g'im kasalligi) xastaligida uchrashi mumkin.

KASALLIK - BU RUHIY MUAMMO

Kunda necha bor yuz beradigan kutilmagan holatlar ko'p. Masalan, yugurgilab o'ynab yurgan go'dak birdan yiqilib, achchiq-achchiq yig'aydi. Tizzasi qirilib, terining og'riq reseptorlariga ta'sir ko'rsatadi va tegishli impuls sezgir nervlar bo'ylab orqa miyaga, undan gipotalamusga, bosh miya po'stlog'iga boradi. Boladagi og'riqni qanday qilib qoldirsa bo'ladi?

Odatda, og'riqni qoldirish uchun og'riqsizlantiriladi, ya'ni anesteziya qilinadi. Markazdagi og'riqni kamaytirish uchun og'riq qoldiruvchi dori ichirish yoki shu joyga dori purkash mumkin. Ammo qizig'i shundaki, bolaning onasi farzandini dast ko'tarib, bag'riga bosadi, quchib erkalaydi, qirilgan yeriga puflaydi, yengil o'pib qo'yadi. Bolaning yig'isi shu zahoti tinadi va biror daqiqa o'tmay, u hech nima ko'rmaganday, yana o'ynoqlab ketishi mumkin. Xo'sh, bu hodisani qanday tushunish joiz? Gap shundaki, onaning erkalashi va uning har narsaga qodir himoyachisi, degan tushuncha bola yiqilgandagi qo'rquvdan xalos qiladi.

Odam biror dardga chalinsa yoki biror noxushlik (og'riq, harsillash, behuzurlik, qichima, isitma yoki et uvishishi va hokazo) his qilsa, unga xavotir, qo'rquv, umidsizlik, g'am-hasrat va yana boshqa salbiy tuyg'ular azob beradi. U o'ziga nima bo'lganini tushunmaydi, tibbiy xodimlar unga yordam berisha oladimi yoki yo'qmi, bilmaydi. Kelajakda uning holi nima kechadi, shu narsa uni tashvishlantiradi. Tibbiyotdan xabari bo'lmagani uchun bemor o'z dardi haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lganligi bois behuda tahlikaga tushadi. Masalan, boshning, terining yuza tomirlari bilan bog'liq sanchiqni falaj alomati, deb o'ylaydi, pulsining pasayishi, tushib qolishi (ekstrasistoliyada) ro'y berganda yurak butunlay to'xtab qoladi, deb qo'rqadi; ko'pchilik bemorlar uchun «infarkt» degan tashxis juda dahshatli: yuragi «tars yorilib» ketadi yoki endi hech qachon ishlamaydi, deb hadiksiraydi. Kasalning rak bo'lgandagi tahlikalarini gapirmay qo'ya qolaylik.

Agar bemorning o'zi shifokor bo'ladigan bo'lsa, ahvol qiyinroq: u bo'lishi mumkin bolgan, hatto juda kam uchraydigan oqibatiarni eslaydi, hamkasblari unga haqiqatni

so'zlamayotganlaridan, ko'pincha davolashdan naf bo'lmasligidan ortiqcha xavotirlanadi. Bunday paytda, aksariyat, xavotir va qo'rquv birinchi o'ringa chiqib qoladi, shu sababli davolashni, avvalo, ruhiy-terapevtik ta'sir ko'rsatishdan boshlagan ma'qul. Lekin ba'zilar, ruhiy reaksiya, boshlangan ilk patologik jarayon olib tashlansa, kasallik hech qanday psixoterapiyasiz o'z-o'zidan yo'qoladi, deb o'ylashlari mumkin. Lekin, avvalo, ko'pincha kasallik aytarli og'ir bo'lmagan, bemorga kuchli, lekin hamma vaqt birdek bexatar bo'lmagan dori bilan davolashga ruju qilmaslik kerak: bemor tinchlantirilib, ko'nglini ko'tarib qo'yilsa, dorisiz ham tuzatish ehtimoldan xoli emas. Ikkinchidan, juda ko'p surunkali kasalliklar: ateroskleroz, diqqinapas, gipertoniyani davolashning bizda hozircha juda samarali choralari yo'q. Kasallikka bo'lgan omilni butunlay bartaraf eta olmagan taqdirimizda ham, hech bo'lmaganda, kasallikni murakkablashtirib yuboradigan, ba'zida kasallikning o'zidan ham og'irroq bo'lgan ruhiy zo'riqishlarning oldini olishga harakat qilishimiz kerak.

Surunkali va uzoq davom etadigan kasalliklar ayniqsa og'ir ekanligi ma'lum. Uning davomida yuz beradigan salbiy his-tuyg'ular klinik manzaraga ancha ta'sir korsatadi.

Ma'lumki, yangi dorilarni klinikada tekshirish borasidagi tadqiqotlar, ko'pincha, platsebo effektiga duch keladi: har qanday guruh bemorlar orasida ma'lum doridan emas, balki tekshirish uchun «dori» deb beriladigan indifferent moddadan, masalan, hatto fiziologik eritmadan yaxshi ta'sirlanadiganlari bo'ladi. Bu nodir hodisaning ko'p uchrashi haqida ko'plab tadqiqotlar umumlashtirilgan.

Bizningcha, bu kasallikning tarkibiy qismi bemorda aniq namoyon bo'lsa-da, ruhiy taassurot qat-qatlashib ketgan kishilar platseboga ta'sirchanroq boiadi. Bu holatni, ba'zida ochlik bilan davolash, ekstrasens orqali davolash va boshqa shu kabi tibbiyotdan tashqari davolash usullari beradigan g'aroyib natijalarni izohlaydi. «*Garoyib davolanishlar - anglab yetilmagan psixoterapevtik faktcr natijasidir.*

Odatda, ko'p o'tmay, shu «usullar»ning dong'i yo'qqa chiqadi. Lekin obro'sizlantirilgan usullar o'rnida har gal yangisi avvalgisidan ham g'aroyibi paydo bo'ladi. G'aroyibotga intilish bemorning don, operatsiya singari tibbiyotgagina emas, balki ruhiy yordam, qo'llab quvvatlashga tashnaligidan kelib chiqadi. Agar tibbiyot vakili buni anglab yetmay, faqat oddiy muolaja qilish bilangina kifoyalansa bas bemorning undan hafsalasi pir bo'lib, tabib izlab ketadi va biz yetkarib bera olmagan ta'sirini undan topishga intiladi...

Buni Shnellerning ko'pyillik tekshirishlari tasdiqlaydi (I-jadvalga qarang).

Ruhiy davolash tog'risida atoqli nemis psixiatri Ernst Krechmer o'zining «Tibbiyot psixologiyasi» asarida shunday yozgan: «Ruhiy davolash vrach faoliyatining asosiy qismidir. Juda ko'p hodisalarda jismni davolash uchungina emas, balki xastalik bilan bog'liq boigan salbiy ta'sirlar: tahlika, tushkunlik, tashvish, mavhumlik, umidsizlikdan forig' bo'lish uchun murojaat qiladilar».

Shunday qilib, bemor tibbiyot xodimidan ruhiy muolajani ham kutadi, chunki shifokor har doim avval ruhga ta'sir qiladi.

Bemor o'z shifokori yoki hamshirasini, avvalo, inson sifatida o'rganadi: ko'ngilchanmi, e'tiborlimi, rahmdilmi, xotirjammi yoki shoshma-shosharmi? Axir har qanday kasb ustasi o'zining qat'iyatli va og'ir-bosiqiligi bilan ajralib turadi. Bundan chiqdi, yosh shifokor va hamshira birinchi uchrashuvdayoq bemorda yaxshi taassurot qoldirishi mumkin. Buning uchun u sahnadagi artist yanglig' o'zini tuta bilmog'i kerak, bemor uning xatti-harakatidan, imo-ishorasidan tortib, har bir so'zigacha o'z chig'rig'idan o'tkazadi.

«*Kiyimga qarab kutib oladi...*» qabilidagi tamoyiliga e'tibor qilaylik. Bemorning fikricha, yaxshi shifokor hamda hamshira o'zini mutaxassisligiga to'la bag'ishlagan bo'ladi. Ularning moda yangiliklari bilan qiziqishga vaqti ham yo'q, unga ortiqcha berilmaydi ham. Ularning fikricha, shifokor va hamshira oddiy, ozoda, pok kiyinishi kerak. Undan tashqari, tibbiyot amaliyoti hamma vaqt ozodalik bilan bog'liq. Palapartish odam o'z ishining ustasi bo'la olishi amrimahol ekani ma'lum. Bu kiyinishga ham, sochining holatiga ham, ish joyini ozoda saqlashga ham bog'liq. Bu borada tibbiyot dahosi Buqrot shunday degan: «Donolik quyidagilarda ko'rinadi: agarda kimda dabdabali bezaklari bo'lmasa, kiyimlari oddiygina bo'lsa -demak, bu odam jiddiy, fikri-zikri ham, yurish-turishi ham o'ziga munosib. Ularning tashqi qiyofasi qanday bo'lsa - demak, hayotda ham shundaydirlar: havoyi yoki o'yin-kulgidan yiroq, so'zga chechan, odamlar davrasida jiddiy...» Imkon qadar ko'zga yaraqlab tashlanadigan hamma narsa shifoxonadan tashqarida qolishi kerak.

Bemor bilan suhbat paytida yosh shifokorlar ko'pincha *bir xil xato* qiladilar: bemor hikoyasini zarur tarafga yo'naltirmay, uning uzundan-uzoq gapini sabr-toqat bilan tinglaydilar. Bu bemor gaplarini aytib olsin, degan yaxshi niyat bilan qilinadi, albatta. Lekin shunisi borki, bemor hikoyasining qaysi bir tomoni tashxis va davolash uchun muhim-u, qay biri nokerakligini ajrata bilmoq kerak. Shunday paytda nima qilmoq kerak? Bemorga 2-3

daqqa mobaynida hikoyasini davom ettirishiga imkon berish, vaqtdan foydalanib, bemorning aql-farosati, dunyoqarashi, xotirasi va zehni idrokini o'rganish kerak.

Har qanday, hatto vaqt ziq bo'lganda ham bemorga uning shaxsiyatini aniqlaydigan bir necha savol bermoq kerak. Negaki, yolg'iz, baxtsiz oilaviy hayot, yaqin kishisidan ayrilish yoki yaqin kishisining og'ir kasalligi, befarzandlik, oilada yoki ishxonadagi jiddiy kelishmovchilik odamning ruhiy klinik manzarasinigina emas, balki, ko'pincha davolash xususiyat'arini belgilaydi.

Bemorni nazardan o'tkazganda, ko'pincha uning tashvishlangani, hayajonlangani, ko'ziarida g'amginlik va boshqa ruhiy notinchlik belgilarini sezish mumkin. *«Unsiz yordam so'ragan bunday bemor yonidan befarq o'tmang!»* Bu bemorning faqat dori-darmonlargagina emas, balki qo'llab-quvatlashga, yupatish, tinchlantirishga, ya'ni ruhiy e'tiborga, muolajaga muhtojligini ko'rsatadi.

Bemorning tashqi xotirjamligi, uning yashirin qo'rquvi, umidsizligi, g'am-g'ussalarini yashiruvchi niqobdir balki, bemorga xushmuomalalik bilan: «Uyqingiz yaxshimi?» deb savol bermoq kerak. Agar shifokor to'satdan: «Nima deb o'ylaysiz, siz asabiy odammisiz?», «Bekordan-bekor qo'rquv yoki xavotir his qilasizmi?», «Kayfiyatingiz qanday?» va hokazo savollar bersangiz, bemor hammasini «asab»ga yo'yib, shubhalanib, ensasi qotadi-yu, noto'g'ri javob beraveradi.

Bemor tashxis aniqlangandan keyin o'z kasalining nomini tezroq bilishni istaydi. Negaki, *«mavhumlikdan ham dahshatga soladigan narsa bo'lmaydi»*. Undan tashqari, bemor kasallikni aniqlab olmaguncha, do'xtir davolashni ham boshlay olmaydi, deb to'g'ri o'ylaydi. Shu bilan birga, bemor tuzalib ketish uchun o'zi nimalarni bilmog'i kerakligini aniqlashni istaydi: kun tartibi qanaqa bo'lishi kerak, qanday dorilar yoki davolar olmog'i lozim, bu qancha davom etadi; tuzalib, ishga yaroqli bo'lib olishi uchun nimalar qilmoq zarur? Bundan tashqari, u qo'llab-quvvatlashni kutadi, u kasali og'ir emasligini, unga yordam ko'rsata olishlarini eshitgisi keladi. Bemor bilan so'zlashganda shularning barini ko'zda tutmoq kerak.

Bemorga tashxis haqida so'zlaganda oddiy, tushunarli tilda gapirish kerak. Odatda, ba'zi atamalar oddiy fuqaro uchun dahshatli bo'lib eshitaladi. Shuning uchun u so'zlarni ishlatmagan ma'qul. Agar bemor tashvishlanib: «Voy o'lmasam, astma bo'lib qolibmanmi?», -desa bormi, demak, bu atama uning uchun o'ta azobli, tuzalmas kasallikni bildiradi. Shunda tajribali shifokor yoki hamshira hech ikkilanib o'tirmay: «Yo'q, sizda astmaga moyil bronxit bor», - deb javob beradi. Astma bilan bu kasalliklar orasida farq kam, davolash ham bir xilda. Mabodo, vrachga sarkoidoz tashxisi qo'yishga to'g'ri kelsa, shifokor yoki hamshira, avvalo bemorga, bu atamaning sarkomaga (rakka) yoki boshqa xavfli o'smaga aloqasi yo'qligini, umuman, bu kasallik nisbatan zararsiz ekanligini tushuntirmog'i lozim.

Shuningdek, miokard infarktining o'tkir o'tayotgan chog'ida bemorga shifokor yurak xuruji yoki yurak tomirlarining bo'g'ilishi cho'zilganini aytadi va oradan bir necha kun o'tib, bemorning ahvoli yaxshilanib, shifoxonaga ko'nikib qolganidan keyin infarkt bo'lganini, lekin hozir xatar o'tib ketganini aytadi. Stenokardiya bilan og'rikan bemorga uning kasalini yurak tomirlari bo'g'ilishi sifatida tushuntirgan ma'qulroq. (Yana shunisi borki, «tomirlar bo'g'ilishi» bahonasida nitroglitserinni iste'mol qilishga da'vat etish oson ko'chadi. Stenokardiya, infarkt, yurakning ishemik kasalligi kabilar bilan bog'liqligi tufayli bu dorilarni ko'plar yoqtirmaydi)

Mashhur ingliz olimi Kelnan shunday yozgan: *«har qanday qiiib bo'lsa ham, dahshatli tashxis e'lon qilishdan qoching»*. Albatta, bemor haqiqatni aytishni talab qilishi mumkin, ammo haqiqatni yumshatib yetkazish muhim tadbirdir. Bemorga uning tashxisini ma'lum qilish lozim bo'lganda insonparvarlik oldingi o'ringa o'tmog'i kerak. «Bemorga haqiqatni aytish, faqat haqiqatni, lekin butun haqiqatni emas» degan naql bor. Masalan, koronar arteriyalarning trombozini gapirish o'rniga, yurak xuuji, rak degandan ko'ra yanpi paydo bo'lgan o'sma, gipertoniya degandan ko'ra xafaqonlik, tashvishlanish nevrozi degandan ko'ra asabiylashgan bosh og'rig'i degan durustroq. Bu so'zlar yumshoqligidan tashqari tushunarli hamdir.

Shuni ta'kidlab o'tmoq joizki, tashxis yumshatib aytilganda yolg'onni juda oshirib yuborish ham kerakmas. Shunchaki haqiqatni yumshatibroq so'zlash, bemorning kelajagi haqida o'ylab, unda o'zidagi kasallikni yengib chiqishga ishtiyoq uyg'otib qo'yilsa bo'lgani. Zero, bemorning tuzalishi uchun bo'lgan ishonchi kasallikka qarshi kurashdagi dastmoyadir. Bunday paytda, asossiz inkor etish yoki shunchaki ko'ngil ko'tarishga o'rin yo'q, nafi ham tegmaydi. Bemor haddan tashqari optimistik so'zga ishonishi u yoqda tursin, shifokorni yengil tabiatli odam deb hisoblaydi.

Yana «keksalik» nomli tashxis bor. Ba'zan keksa bemorlar qari ekanliklaridan xijolat chekishadi. Ularning nazdida endi tibbiyotning ularga nafi tegmaydi. Mutaxassislarining vaqtini bekorga olayotganday tuyuladi. Aksariyat, ular shifokor yoki hamshiraning: «Do'xtirga yuguravermay, yoshingizni yashab qo'yganingizni eslashingiz kerak!», deydi

so'zlarni eshitishdan cho'chiydilar.

Bunday choglarda shifokor yoki hamshira bemorning keksaligi, uning dardini davolashga mone'lik qilmasligini bildirib qo'yimg'i kerak. Ko'pincha shunday bemorning ko'nglini ko'tarib qo'yish uchun hazil-mutoyiba qilish mumkin. «Bir chol tizzasi og'riyotganidan nolibdi. Shifokorning «Bu hammasi qarilikniki», - degan javobini eshitib jahl bilan: «Bo'lmagan gap, ikkinchi oyog'im ham saksonga kirgan, lekin unisi og'rimayapti-ku!» dermish. Bu latifada chuqur tibbiy ma'no bor. Albatta, shifokor keksalikni davolamaydi, lekin keksalik va kasallik - tamom boshqa narsa. Qariyaning shikoyati yoki somatik kasallik bilan, yoki (buni sira unutmang kerak) bu yoshda ko'p uchraydigan depressiya bilan bog'liqdir. Odatda, somatik kasallikka tashxis qo'yish qiyin emas. Lekin turlicha mujmal shikoyatlar quvvatsizlik, sakrovchi og'riqlar, uyqusizlik va hokazolar, aniq belgilangan kasallikka jo bo'lmasa, depressiya haqida o'ylash kerak. Negaki, uning borligi aniqlansa, yaxshi davolashga yo'l ochib beradi.

Aniq somatik kasallikka uchragan chog'da ham keksa odam qo'llab-quvvatlashlarga, ruhini ko'tarishlarga muhtoj.

Bemor kasalligining nomini bilib oldi ham, deylik. Endi uning ko'nglini ko'tarish, umidlantirish kerak. Agar bemorning kasali xavfsiz bo'lsa yoki davolash oson bo'lsa, bu muammo emas. Lekin tuzalmas dardga muhtalo bo'lgan taqdirda ham, baribir yumshatib gapirishning nozik yo'llarini topish mumkin. Masalan, bemorda yaqinda stenokardiya paydo bo'lgan, deylik. Bu haqda u birinchi bo'lib shifokordan eshitishi kerak. Albatta, eng yaxshi davolash ham na infarktdan, va na bir zumda olamdan ko'z yumishdan saqlab qololmaydi; to'la darddan forig' bo'lib ketish haqida esa hozircha gapirishga o'rin yo'q. Lekin bemor bularni bilishi shart emas, buni bilishidan manfaat ham yo'q. Shunday bolgach, bemorga shu o'rindagi holatdan kelib chiqib, shunga o'xshash gap aytish mumkin: «Siz chekmaysiz, diabetingiz yo'q, qon bosimingiz yaxshi: demak, kasaligingiz bilan kurashishda «uch-nol, sizning foydangizga». «Yaqinda kasalga chalingansiz, xastaligingiz o'tib ketmagan, jismingizda yomon o'zgarishlar yuz berib ulgurmagan. Agar davolanishdan erinmasangiz, yaxshi natijalarga erishishimiz mumkin», yoki «Sizda og'irlashtiradigan ikki holat bor: chekasiz, gipertoniyangiz bor. Lekin yaxshi jihatlar ham yo'q emas, sizda diabet yo'q. Diabet shunday bir kasallikki, agar shu xastalik bo'lsa, atrosklerozni rivojlantirib yuboradi, undan tashqari, bu

holatni davolash qiyin. Gipertoniya masalasiga kelsak, hozir uni davolashda qoiimizda shunaqangi imkoniyatlar borki, biz bundan qo'rqmasligimiz kerak. Chekishni tashlash esa o'z qo'lingizda, qiyin demang. Masalan, AQShda millionlab kishilar zarurat tug'ilganda chekishni tashlashadi. Sizning tanishlaringiz orasida ham bundaylar ko'p bo'lsa kerak. Infarkt bo'lmay desangiz, sigaret chekishni tashlash zarur. Irodangiz va dori-darmon bo'lsa, kasallikni yengishimiz tabiiy». Bemor bilan muloqot chog'ida uni stenokardiya, ayniqsa, ertalab yoki havo bulut bo'la boshlaganda bezovta qilishini bilgach, aytiladi: «Demak, kasaligingiz skleroz emas, tomirlar bo'g'ilishi tufayli huruj qiladi. Tomirlar torayishi skleroz tufayli bo'lganda har safar tez yurganda yurakda og'riq his qilardingiz. Axir skleroz darajasi bir kunda o'zgarib turmaydi-ku. Sklerozga doir o'zgarish sizda ham bo'lishi kerak. Shuni bilib qo'yingki, tomir bo'g'ilishini tuzatish sklerozni tuzatishdan ko'ra osonroq».

Diqqinapas bilan og'rigan bemorga esa shu yo'sin, remissiya chog'ida, yoz oylarida harsillash va siqilish to'g'ri kelmasligini eslatish kerak. Kasallik juda cho'zilayotgani bilan o'pkada og'ir organik o'zgarish yo'qligini ta'kidlash joiz. To'la remissiya (butunlay tuzalish)ning endilikda bo'lishi qiyin. Astma, boshqa ko'pgina kasalliklar ham, asosan, to'lqinsimon o'tishini: og'ir hurujlardan keyin tinchlangan chog'lari ham bo'lishini hisobga olganda, har holda yaxshilanishga yuz tutish mumkinligi ko'rinadi. Hatto mana shunday og'ir holatda ham so'z bilan bemorni shifo topib ketishiga umidvor qilish mumkin.

Bemorni maqtab qo'yish foydali, buning kasallikka aloqasi bo'lmasa-da, tibbiyotdagi biror yangilikni qayd etib o'tish kerak. Masalan, bemor chekishni tashlagan, deylik: «Juda zo'r ish bo'libdi-ku. Bundan chiqadiki, irodangiz mustahkam ekan. Tuzalish uchun juda zarur narsa bu»; bemor badan tarbiya bilan shug'ullana boshlagan, deylik: «Xo'p ish bo'пти-da, qani endi hamma bemorlar ham sizdaqa bo'lsa!» Bemor ayol qirqqa borib qolgan, deylik. Yaqinda u farzand ko'rgan: «Yashang-ey, qahramon ekansiz! Eson-omon qutulibsizmi, demak yuragingiz yaxshi!» deyiladi va hokazo.

Agar bemor xomushlik bilan to'rt marta infarktni yoki 7 marta pnevmoniyani boshidan kechirganini aytsa, uni ko'zdan kechirgach, hazil-mutoyiba bilan: «Sizning tajribangiz ko'rsatadiki, infarkt yoki pnevmoniya juda dahshatli kasallik emas. Necha-necha bor kasallikni boshdan kechirsangiz-da, umumiy ahvolingizning yaxshiligiyoq buni ko'rsatib turibdi», - deyish mumkin bo'ladi.

Bemor bilan bunday muloqot yupatibgina qolmay, uni hayotdan umidvor qilib, tuzalib ketishiga ishonch uyg'otadi. Shu bilan birga, shifokor va hamshiraning ko'rsatmalarini to'liq bajarishga undaydi.

Bemorni kutib olgach, hamshira bo'limdagi kun tartibi qanday bo'lishini ham tushuntirishi kerak. Bemorlarning ko'pi bu maslahatlar qanchalar muhimligini anglab yetmaydi. «Bizning klinikada professorimiz chekuvchi bemorlarni davolashni yoqtirmaydilar», - deyiladi ilk suhbatlarda.

Bemorga yangi kun tartibi belgilaganda uning kasallikka chalingunga qadar bo'lgan ijtimoiy hayot turmush tarzini va shart-sharoitini hisobga olib belgilash lozim ma'salan, namozxon qariyalarga).

Har qanday taqiq va chegaralashlarga tanqidiy yondashmoq joiz. Zero, ko'pincha bu taqiqqlar avvaldan qolgan, eskirgan ta.lib'ardandir. Masalan, o'tkir infarkt miokard bilan og'rigan bemoriarga tayinlanadigan kun tartibining qanchalar o'zgarganini eslab ko'raylik. Ilgari bemorlar ikki hafta davomida faqat chalgancha yotmog'i lozim bo'lardi. Faqat shundan so'nggma yotgan joyida yoniga ag'darilishga ruxsat berilardi. Uch haftadan so'ng o'tirishga ijozat tegar. 4-5 haftadan keyingina ilk qadamlar qo'yishga ruxsat etilardi. Qarang-a, to'la bemor yotgan o'rnida tuvakka bo'shanish uchun qanchalar og'ir harakat qilishga majbur edi. Axir bundan ko'ra yonboshi bilan ag'darilib, sekin tuvakka o'tirish oson emasmi? Ba'zida shundoq ham bolardiki, tunda bemor uyg'onib, o'zining yonboshlab yotganini ko'rsa, dahshatga tushib ketardi. Yuragimga tuzatib bolmas zarar keltirib ezib qo'ymadimmikan? - degan xavotirga tushardi.

Shunday ham bo'lardiki, ba'zi bemor bir necha kun uyda dard chekadi, poliklinikaga piyoda qatnab yuradi. Uning infarkt bo'lgani esa kechikib aniqlanardi. Lekin bu bemorning kasalligi odatdagidan og'ir o'tmasdi. Mana shunday kuzatishlarda, qimir etmay yotish unchayam zarur emasmikan, degan fikr tug'iladi. Hozirgi kunda bunday bemoriarga faol harakat qihsh kun tartibi buyuriladi.

Ba'zi shifokorlar bemor turmushining nozik taraflari bo'lgan jinsiy hayot haqidagi savollarni berishga iymnadilar. Shifokor yoki hamshira bemorning aytilmay qolgan gaplari borligini anglab yetmog'i, yumshoqlik va yotig'i bilan kerakli maslahatini darig' tutmasligi kerak.

Masalan: Ambulatoriya qabuliga 26 yoshlardagi oriqqina, rangpar bir juvon kelib, tezda charchashi, o'qtin-o'qtin shamollab qolishi, kasallik o'tgandan keyin ham issig'i chiqib, 37,1 - 37,2" darajada muqim turishidan noligan. To'rt yildan beri dard tortar ekan. Surishtirilganda uyqusi yomonligi, ertalabdan bequvvatligi, kechga borib ahvoli biroz yaxshilanishini aytgan. Kechda hatto, kitob o'qisa ham charchar ekan, ko'pincha yuragining tez urishi bezovta qilar ekan. Ishtahasi yaxshi, ozmayapti; hayz ko'rishi buzilmagan, qon kam ketar ekan; bir marta bola oldirgan. Lekin boshqa farzand ko'rmagan; to'rt yil burun eridan ajralgan; yolg'iz o'zi alohida yashaydi; ukasi og'ir diabet kasalligi bilan birga kechgan septik endokarditdan vafot etgan. Fizik tekshirishlardan ma'lum bo'lishicha, hech qanday patologik o'zgarish yo'q. EKG normada. Bemor ko'rinishidan indamas, ruhiy azoblanayotgandek ko'rinadi. Shuning uchun ham fizik tekshirishlardan so'ng qaytadan surishtirish kerak, degan fikrga kelingan: «Ko'pincha kayfiyatingiz qanday, yaxshimi, bir me'yordami, siqilasizmi, g'amginmisiz?» - kabi savoliar berish kerak. Odatda: «Kayfiyatim yomon», - degan javob olasiz. «Ich-ichingizdan titroq keladimi?», - «Ha, ko'pincha» - «Odamlar bilan tez tillashib keta olasizmi, mehmonga ko'p borasizmi?» Shunda bemor jonlanadi, hijolat bilan jilmayib, javob qiladi: «Ahyonda bo'lsa ham vino ichishga cho'chiyman, ichsam, o'zimni yomon his etaman». Bemor o'zidagi depressiyadan tashqari, u yolg'izlikdan azob chekishi ham bilinadi. Demak, kasallikning boshlanishi sevgilisidan ajralgan yoki shunga o'xshash sabab oqibatidan kelib chiqadi. Ukasining yurak kasalligidan nobud bo'lganligi ham uning o'z salomatligidan tashvishlanishga olib borgan. Shu holatda qolgan bemorga: «Sizning yuragingiz bilan o'pkangiz sog'lom. Analizlarning natijasi ham yaxshi, ozayotganingiz yo'q, rentgenda ham biron yomon narsa ko'rinmadi. Sizda ozgina depressiya (tushkunlik) sindromi bor. Qo'rqadigan joyingiz yo'q, hali yoshsiz, hayotdan zavqlanib, lazzatlanib yashamoq kerak. Salomatligingizga shunchalar ishonchim kattaki, agar farzand ko'rsam bo'ladimi, deb mendan so'rasangiz, hech ikkilanmay ruxsat bergan bo'lardim», - degan ma'qul. Bemor jilmayadi va iymanibgina: «Salomatligimning mazasi bo'lmagani uchun erga tegishga qo'rqib yurar edim...»-deydi. -«Qo'ying-e, hech havotirlanadigan o'rni yo'q. Boshqalardan kamligingiz yo'q! Hammasi yaxshi bo'ladi. Yaxshi odamni uchratsangiz, turmush quring, farzand ko'ring, oldindan besh-o'n yillik rejalarigizni tuzib qo'ying!» Bu gaplardan keyin qarabsizki, bemor yayrab-yashnab ketib, yordam ko'rsatganingiz uchun sizdan minnatdor bo'ladi.

So'ng yana yarim yildan keyin sobiq bemorga duch kelganingizda ko'rasizki, uning ahvoli durust, shikoyati yo'q, kayfiyati yaxshi, demak, depressiyadan qutilgan.

Shifokorning parhez saqlash haqidagi ko'rsatmalarining ham ahamiyati katta. Bu o'rinda parhez, imkoni boricha, sog'lom odamning bekamu ko'st, mazali taomiga o'xshashi kerak. Odatda, parhezga doir taqiqlar ko'p emas. Masalan, taomda tuz ko'p bo'lishi jismimizda suyuqlikni ushlab qoladi, arteriya qon bosimini oshiradi; shuning uchun tanasida shish bo'lgan yoki gipertoniya bilan og'rikan bemor tuzni kam iste'mol qilishi kerak. Shuningdek, tozalangan uglevodlarni kamaytirish qandli diabetni davolashning asosi bo'lib qoladi. Buyrak yetishmovchiligi aniq namoyon bo'lgan chog'da ovqatda oqsilning ortiqchaligi azotemiyani oshiradi. Ahyonda uchraydigan chillashir (kleykovinnaya enteropatiya), bod, gemotsistinuriya va hokazo kasalliklarda maxsus parhez muhim ahamiyat kasb etadi.

Me'da, o'n ikki barmoq ichak yara kasalliklarida ko'pdan-ko'p belgilangan parhez davolash o'z ahamiyatini yo'qotyapti. AQSh, Fransiya kabi ko'pgina mamlakatlarda hozir yara bilan og'rikan kasallarni odatdagi ovqatini yeyaverishga ijozat etiladi. (Ayniqsa, bemor yaraga qarshi gistamin N-2 blokator dorilarini iste'mol qilsa).

Kundalik ovqatimizdan u yoki bu mahsulotni chegirib tashlash odam jismida vitamin yoki mikroelementlar va bioaktiv modda (qo'shimcha)larning yetishmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Parhez qanchalar xilma-xil bo'lsa, oziq shunchalar to'liq bo'ladi.

Shunday qilib, parhezga doir cheklash zarurati tug'ilsa, juda qisqa muddatga buyurilishi kerak.

Ko'pincha bemorlar «qat'iy», ya'ni bir xilda, maza-matrasiz va uzoq muddat ichida pahez qiladilar. Bu ixtiyoriy jafokashlar, odatda, nevroz dardiga chalingan kishilar. Ular aterioskleroz bo'lishidan qo'rqib, qaynatma sho'rvani ichishdan o'zlarini tiyadilar, «gastritim bon», deb ko'p meva va sabzavot iste'molqilmaydilar, «jigarim og'rib qoladi», deb qovurma yoki yog'li ovqat yemaydilar va hokazo. Shunisi ham borki, bu cheklanishlarga ular, azbaroyi zaruratdan u yoki bu oziq-ovqatni yomon ko'targanlari uchun emas, balki u yoki bu parhezningnafini eshitganlari uchun unga rioya qiladilar. Natijada dastlabki kasallikka ko'pincha bu gastrit emas, balki nevroz, kolit yoki xolesistit, qabziyat yoki o'ylamay qilingan parhez oqibatida paydo bo'lgan yana boshqa bir yatrogen kasalligi kelibqo'shiladi.

Bunday bemorlarga oziq-ovqatning xilini kengaytirish va tartibga solish kerak. Ammo avvalgi fikrlarini va qo'rquvlarini yengib o'tish oson emas. Mana shunday chog'larda, agar bemorning kasalligi oshqozon ichak yo'lida boisa, ayrim shifokor va hamshiralar, u yoki bu ovqatning hazmi qanaqaligini aniqlashga harakat qiladilar. Masalan, bemor o'n yildirki, o'zining qovurma ovqat, tuxum yemasligini aytdi, deyiik. Shunda unga savol beriladi: «Mehmonga borganingizda qazi, kotlet yoki qovurma ovqat yeyishga to'g'ri kelar, axir?» - «Ha, ahyonda bir», - «Xo'sh, har gal mehmondan qaytganingizda joningiz azobda qoladimi?» - «Yo'q, odatda hech nima qiimaydi, juda ehtiyot bo'laman-da». Bu hol mehmondorchilikdan keyin bo'lgan o'tkir xolesistit va pankreatitning xuruji - ruxsat etilmagan taomni yegani uchun emas, balki keragidan ortiq ovqat iste'mol qilgani uchun bo'ladi.

Kun tartibi va parhez haqidagi ko'rsatmalardan keyin dori-darmonlar masalasiga o'tish mumkin. Lekin bemor bu dorilarni muntazam, sira qoldirmasdan, ayni belgilangan soatda ichishiga ham erishmoq joiz. Bu juda qiyin. Buni to'la amalga oshirishda erinchoqlik, unutilish, «ximiya»dan cho'chish, umuman dorilarni yomon ko'rish xalaqit beradi. Dori buyurishda vrach ko'rsatmalari aniq-ravshan bolmog'i kerak. Hech qachon bemorga: «Mana bu dorini bir kunda 3-4 marta ichasiz- yo uch marta yoki to'rt marta!» demaslik kerak.

Ko'pincha bemor dorini qanday ichish kerak - ovqatgachami, ovqatdan keyinmi, deb so'raydi. *Hamshira qaysi dorini qay payt ichishga buyurishni oldindan o'zi uchun aniq bilib qo'yimog'i kerak.* Ba'zi dorilarning organizmga zararsizligi katta ahamiyatga ega. Masalan, aholi o'rtasida ko'p iste'mol qilinadigan aspirin, ya'ni atsetilsalitsil kislotani, oshqozonning shilliq qatlamiga zararli ta'sirini kamaytirish uchun ovqatdan keyin buyuriladi. Shuningdek, nikotin kislotasini, nikoshpan kabi dorilarni ham, so'rilishini sekinlashtirish, shu bilan uning qo'shimcha ta'sirini kamaytirish maqsadida ovqatdan keyin iste'mol tayinlanadi. Aksincha, siydiradigan dorilarning tez so'rilish uchun ovqat yemasdan avval qabul qilish belgilanadi. Negaki, dori qonga qancha ko'p aralashsa, siydirish quvvati shuncha kuchli bo'ladi. Shu maqsadda antibiotiklar ham ovqatgacha qabul qilinadi. V-adrenoblokatorlar va uzaytirilgan ta'sir ko'rsatuvchi nitropreparatlar: nitrosorbid, sustakni stenokardiya paydo bo'lmasligi uchun ovqatdan 20-30 daqiqa avval ichish belgilanishi kerak.

Aksariyat dorini qay paytda qabul qilishning ahamiyati yo'q. Lekin shunday taqdirda ham: «Mana buni-ovqatgacha, bunisini-ovqatdan keyin», deb belgilash psixologik jihatdan co'g'ri bo'ladi. Xuddi shunday, dorini qancha muddat davomida ichish (2 hafta, 1 oy va hokazo) hamaniq belgilanmog'i lozim. Aibatta, keyinchalik birkunda q;ncha ichish miqdori ham,

qachongacha ichish ham o'zgartirishi mumkin. Ammo, bari-bir, dori belgilanganda, bir kunda necha marta ichish kerakligi aniq aytilishi kerak. Ba'zi dorilar, masalan, mezim-forte, festal, kreon, setsal kabilarovqat bilanqo'r-hibiste'molqilinadi.

Navbatdagi uchrashuvda shifokor bemordan: har.ima dorilarni ichdimi. noxush ahvol ro'y bermadimi. kayfiyati qanday-yaxshimi, avvalgidan yomonmi yoki o'zgarish izmi, qiziqsinib surishtirishi iozim. Ko'pincha bemorning tayinlagan tavsiyalarini to'la-lo'kis bajarmaganligi ma'lum bo'ladi. Yo buyurilgan dori topilmagan bo'ladi, yoki dori noxush qiladi, ba'zida esa: «dori haqidagi yozuvni o'qidim, shunaqa «dahshatli» asoratlar yozilibdiki, ichmaslikka qaror qildim» deydi bemor. Lekin, ba'zan davolanish joniga tegib ketgan bemorlar ham uchraydi. Har qanday bo'lganda ham bemordan xafa emasligingizni, uning bu harakatida o'zingizga ishonchsizlik ko'rmayotganingizni sezdirishingiz kerak. Agar yo'l qoyilgan beparvoliklardan qat'i nazar natija yaxshi bo'lsa, demak - nur ustiga a'lo nur. Mabodo, bemor ahvoli yaxshilanmasa, bemor davolanishni oxiriga olib borilmagani sabab bo'lganini uqdirisli, yaxshi natijaga erishmoq uchun erinmay, uzluksiz davolanish lozimligini ta'kidlamoq darkor.

Shunaqasi ham bo'ladiki, ba'zi bemor shifokor yoki hamshiraga yoqmaydi. Bunday tuyg'udan qanday qilib forig' bo'lish mumkin? Ko'pincha uchraydigan holatlarni ko'zdan kechirib chiqaylik-chi, tibbiy amaliyotimizda qo'l kelib qolsa ajab emas. Shifokor bemor yoniga kelganida u ahvoli yaxshilanmaganidan noliydi. Uning so'zlari sizga qattiq botadi. Siz undan minnatdorchilik so'zlarini kutgansiz. Bemorning nolishlari, norozi qiyofasi vrachning qitiq patiga, nafsoniyatiga tegadi, xafa bo'lib qoladi. «Hech bo'lmasa, mana shu odam meni o'z holimga qo'ysa edi.» deb jig'ibiyron bo'ladi. Lekin qizig'i shundaki, bemor sizdan naf ko'rmayapman, deb hisoblasa ham, negadir yana sizga murojaat etaveradi.

Og'ir, alamli hayol kechirgan yoki yolg'iz odam, ko'nglini yozgisi keladi, hech bo'lmasa, biron-bir kishining mehribonlik ko'rsatishiga intizor bo'ladi. Mabodo, yaqin kishisini yo'qotgan bo'lsa, sizning mehribonligingiz unga dalda bo'ladi va oradan ko'p o'tmay yana huzuringizga keladi. Bergan dorilaringizdan naf ko'rsa-ko'rmasa keladi. Demak, *u faqat daxo izlab kelmayapti ekan-da.* Dori bilan bo'lmasa-da, unga nafingiz tegayapti ekan. Mana shuni anglab yetsangiz, ko'nglingiz ko'tariladi. Unga achinasiz, ko'ngliga qaraysiz. Shunda siz bu bemorga borgan sayin kuchli, qimmatli dori yozib borish nodarkorligini anglaysiz. Ba'zida bunday bemorga: «Ahvolingiz qalay, og'riq yo'qmi, hansiramayapsizmi, yo'talmayapsizmi?» deganga o'xshash bir necha savol bersangiz bas, bemorning boshi ko'kka yetadi - yolg'iz emasligini, og'ir damlarda murojaat etadigan kimsasi borligini angelaydi. Bundan chiqadiki, u sizning huzuringizga yaxshi so'zingiz uchun keiyapti. Axir shuning o'zi ham davo, sizning tom ma'nodagi shifokor ekanligingizni tasdiqlovchi dalil emasmi?

Ba'zida esa biron bemorning sustkashligi shifokorni g'ijintiradi. Shuning uchun ham xayolda undan ensangiz qotsa-da, uning bu sustkashligiga gipotireoz yoki depressiya belgisi emasmikan, deb qarang. Agar unga berilgan bir necha tegishli savollar taxminingizni tasdiqlasa, tashxisni to'g'ri topganingizdan boshingiz osmonga yetadi. Agar bemorning xotirasi haqiqatan ham susaygan bo'lsa, unga qayta-qayta uqtirgandan ko'ra, o'sha maslahatingizni bir parcha qogozga yozib berganingiz ma'qul. Bu bor yo'g'i 1-2 daqiqa vaqtingizni oladi. Yozma ko'rsatma bemorga hamma muolajalaringizni to'g'ri bajarishda beqiyos yordamchi bo'ladi.

Vaqtingiz ziq bo'lib turganda biron mahmadona bemor sizni g'ijintirishi mumkin. Shoshilayotganingizni shama qilib, soatga qarab qo'yishingiz bemorga qattiq tegib ketishi mumkin.

Bemor shifokorga o'z hukmini o'tkazib, tekshiruv va davolash usulini o'z xohishicha buyurishga urinadi, o'ziga alohida e'tibor tilaydi. Bunday paytda, hamshirada sovuqqonlik bilan ataylab dag'al muomala qilish xohishi paydo bo'ladi. Lekin bular aslida taltaygan xudbinlar emas, dardi-kasali dastidan hadiksirab qolgan bemorlar, xolos. Shu qo'rquv tufayli navbat kutishga ham toqatlari yetmay, zudlik bilan qabul qilishni talab eta boshlaydilar. Har qanday odamda ham bunday betamizni boplab o'rniga o'tqazib qo'yish istagi paydo bo'lishi tabiiy. Lekin aslo bunday qilib bo'lmaydi! Aks holda kutgan tibbiy yordamni topmagan bemorning xavotir va tashvishi oshadi, o'zini avvalgidan battar tuta boshlaydi. Bunday paytlarda, aksincha, uni diqqat bilan ko'zdan kechirib, xa votirlari asossizligini ko'rsatmoq joiz. Axiyri ishonchli qo'llarga tushganini his etgan bemor bir necha daqiqadan so'ng tinchlanib qoladi.

Bemor astmaga yo'liqqan, deyiik. U ko'pdan beri prednizolon qabul qiladi va uning dardi, xayoli imkoni boricha kasaldan tezroq qutulish. Savol-javobdan ma'lum bo'lishicha, necha-necha bor bunga urinib ko'rilgan-u, lekin har gal ahvol og'irlashib, shifoxonaga, reanimatsiya bo'limiga tushib qolavergan. Demak, bu bemor kasallikning steroid talab shakliga giriftor bo'lgan. Bunday bemorga kortikosteroidlardan forig' bo'lishni va'da qilish o'rinsizdir.

Quyidagicha maslahatlar bilan ko'ng'ini ko'tarish kerak. «Ko'rib turibsiz, gormoal dorilardan o'z ixtiyoringiz bilan voz kechganingizda ham, vrach olib tashlaganda ham ancha aziyat chekayapsiz. Shundan bilsangiz bo'ladiki, bu vrachning xatosi emas, balki shundan bo'lak dori kasalingizga asqotmay qolgan. Kasalingiz boshdayoq og'ir kechgani uchun gormon bermaslikning iloji bo'lmagan. Bu dori hozir sizni reanimatsiyadan qutqarib turibdi. Bunga boshqa dori bilan erishilsa-ku, yaxshi bo'lardi-ya. Lekin bunday bo'lmayapti. Shundan o'zingiz xulosa chiqaravering. Boshqa ko'p kasalliklarda bemorga qattiq ta'sir ko'rsatadigan dorilar beriladi, masalan, og'ir qandli diabet kasalligida bemorlar o'zlariga kunda insulin sanchadilar. Bu dori ularning umriga umr qo'shadi, ahvollarini har holda ancha yaxshilaydi. Siz bo'lsangiz kortikosteroidlar buyrak usti bezini «ishdan chiqaradi» deb qo'rqasiz. Axir adrenalin, efedrin yoki astmapent yurak va qon tomirlari uchun zararlasmisi? Bronxial astmani davolamasa, o'pka emfizemasi paydo bo'lishi ma'lum-ku! Har holda bemor o'zini durustroq his qilishi uchun hamma zarur choralarni qilishga majbur emasmi? Demak, dardingizdan forig' bo'lmaguningizgacha gormonlarni bermasligimizning imkoni yo'q. Shunday bo'lgach, mumkin qadar uni kamaytira borib, dardingizga darmon bo'lib turish vazifamizdir!»

Shundan so'ng (bemorning turii dorilarni ko'tara olishi va ularning nafidan kelib chiqib) bemor bilan (intal, kortikosteroidli aerzollar, nafasolish gimnastikasi, balg'am ko'chiruvchi dorilar kabi) qo'shimcha davolar haqida maslahatlashib olmoq joiz. Shu bilan birga, kortikosteroidlarni kamaytirish bu dorini aksariyat ertalabga tayinlash, kun oralatish. kamaytira borishni tezlatish, zarurat tug'ulganda yana dozani oshirish va hokazolar haqida so'zlab ham berish mumkin.

Va nihoyat. intalga o'xshash astmaga qarshi keyinroq chiqqan dorilar uzoq vaqt kortikosteroidlardan foydalanib kelgan bemorlarga undan voz kechish imkonini ham berayotganini, yaqin orada undan ham foydaliroq dorilar chiqib qolishi mumkinligini aytib, bemorni umidvor qilsa bo'ladi. Bunday suhbatlar bemorni ancha tinchlantiradi. Shu bilan birga, kortikosteroid dorilar shubhasiga barham beradi. Bemor o'z kasalligidan hadeb xavotirlanavermaydi. Yana *shunday toifa bemorlar* bo'ladiki, ular jahldor, alamzada, qo'pol bo'lishadi. Shunday kishilar bedavo dardga giriftor bo'lsalar bormi, ular bilan munosabatda bo'lish yana ham og'ir kechadi. Bunday bemorlar odatda, do'xtirma-do'xtir, shifoxonama-shifoxona yuraverib, jondan to'yib, tibbiyot xodimlariga ishonchlarini yo'qotib bo'lgan.

Bunday paytda shifokor ularga avvalo bemor, deb qaramog'i darkor. Shifokor ularning alamzadaligi, gumonsirashi, pala-partishligiga bu odamning tabiati, deb emas, kasallik belgisi deb qaramog'i kerak.

Bemorga nisbatan shunday yondashish shifokorni ham tinchlantiradi, ham bemorni xotirjam kazatish imkonini beradi. Bunday bemorga nisbatan mana shunday bosiqlik bilan munosabatda bo'lish o'z samarasini ko'rsatmay qolmaydi.

Shifokorlar uchun necha-necha kunlar davomida og'ir kasal bemorxonaga kirib, borgan sayin yaqinlashib kelayotgan muqarrar o'lim oldida o'zining zaifligini his qilishdan og'ir narsa bormi? Bunday bemorning ko'ziga qanday qaraydi unga nima deydi? Bemorxonada boshqa bemorlarni ko'rishi bilan turli fikrlar miyasini parmalay boshlaydi. Mana shunday bemor tepasiga keldingiz ham. Bemor devor tomonga o'girilib, xuddi mudrayotgandek, bir tekis nafas olib yotibdi. «Kechasi bilan uxlamay chiqdi», - deydi yonida yotgan ayol. - «Uxlab qolgan bo'lsa kerak». Siz yengil tortib xo'rsinib olasiz. Boyaqishni uygotish kerak emas, dam ola qolsin. «Kechroq kirib o'taman,—deb va'da berasiz-u, shoshib bemorxonadan chiqasiz. Keyinroq esa, umuman qaytib kirgingiz kelmaydi... Ishingiz ko'payib ketib, ish kuni oxirlab boradi- bemorxonada tushlikdan so'nggi orom soati yetib keladi. Nima qildim bezovta qilib, deb o'ylaysiz. Yaxshisi, ertaga kira qolaman...»

Yoshlikda, amaliy tajribasi ko'p bo'lmagan vrach va hamshiralarning ko'pchiligi shunday qiladi. Xuddi shunday sharoitda keyinchalik o'zingdan uyalib, azob chekib yurmaslik uchun nima qilmoq kerak? Yordam berishga ilojsizmiz degan chog'da bemorga qanday yordam ko'rsatish mumkin? Bu borada «unday qilmoq kerak, bunday qilmoq joiz» deb hammaga bir xilda ko'rsatma berib bo'lmaydi. Ammo bu muammo bobida yaxshilab bosh qotirilsa, shubhasiz yagona to'g'ri xulosaga kelish mumkin.

O'limning yaqinlashib qolganligi hatto sog'lom kishiga ham dahshatli tasir ko'rsatishi mumkin. Lekin bemor asta-sekin so'nib borarkan, kun sayin ozib-to'zib, zaiflashib borishi ustiga og'riq, hansirash va boshqa azoblarni tortaverib, taqdirga tan berib qo'yadi. O'lim uning uchun biz o'ylagandek dahshatii emas, uning qadriyatlar mezonini o'zgartirgan. Birinchi o'ringa vujudi faoliyatining buzilishi, qabziyat, ter bosish, ishtaha yo'qligi, kongil behuzurligi kabilar o'tib oladi. Bundan tashqari, bemor ongini og'riq azobi egallaydi. Ayniqsa, o'zini yolg'iz his etganda bemorda og'riq zo'raygandek tuyuladi. Biz kasal tepasiga kelganimizda uning o'lim changalida ekanligini bir daqiqqa xayoldan chiqargan holda, bemor ko'z o'ngida

ayanchli bo'lib ko'rinmaslik darkor. Bemorga umri tugab borayotganidan emas, balki og'riq azobini chekayotganligidan baxtsiz, deb qarash kerak. Shundagina u ko'z oldimizda yordamimizga muhtoj oddiy bemor bo'lib qoladi va biz unga xo'jako'rsinga emas, chinakam, vijdonan jiddiy yordam ko'rsatishga urinamiz.

Yuqorida bayon qilganimiz bemorni eslaylik. Bu odam uyg'oq bolsa-da, o'zini uxlaganga solib yotgan, ehtimol yosh shifokor yoki hamshiraning jovdiragan ko'zini ko'rmaslik, erta-indin tuzalish haqidagi yolg'onni eshitmaslik uchun shunday qilgan.

Mana shuning uchun ham og'ir bemor huzuriga bir necha daqiqaga bo'lsa ham, boshqalardan ko'ra tezroq, kunda bir necha martadan kirish kerak. Uning tomir urishi (pulsi)ni sanash, tilini ko'rish, choy tavsiya etish yoki ichirish. tagidagi choyshabning quruq yoki tozaligini hamshira bilan birgalikda tekshirib ko'rish mumkin. Xullas, bemorga shifokor xamshiraning e'tiborida ekanligini eslatib turish juda muhim.

Kundalik ertalabki ko'ruv chog'ida ham bunday bemorga boshqalardan ko'ra ko'proq e'tibor qilish iozim. Esankiraganingizni sezdirmasligingiz, soxta ko'tarinkilik kayfiyatida ham bo'lmasligingiz kerak. Bemor kravati chekkasiga xotirjamgina o'tiring, tomir urish (puls) ini sanang, hamdardlik bilan ko'ziga tik boqing, bir necha soniya jim o'tiring balki birinchi bo'lib bemor so'z ochar.

Bemordan kechagi topshiriqlarni bajargan-bajarmaganini, albatta so'rang. Har kuni ichi qanday yurishganini, siyishi qandayligini, o'tgan kecha-kunduzda nima tamaddi qilganini, dorilarni vaqtda ichayotganini surishtiring. *Bemorning ahvoli qancha og'ir bo'lsa, unga qilingan parvarish shunga yarasha katta ahamiyat kasb etadi.* Mana shunday so'rab-surishtirish bemorda minnatdorchiilik tuyg'ularini uyg'otadi.

Hammaga ayonki, «rak» degan so'zni eshitgan har qanday bemorning yuragi hapqirib ketadi. Negaki, bu kasallik qattiq azob berish va tezda olib ketishi bilan hammani zir titratadi. Shunday ham bo'ladiki, ba'zida bemor to'satdan: «Nahotki rakka chalingan boisam?» deb so'rab qoladi. Bu paytda har qanday tajribali shifokor yoki hamshira nima javob qilishini bilolmay esankirashi mumkin. «Bunchalar qiynalishingiz rak bo'lganingiz uchun emas, kasallik qattiq yopishganligi, jismingizning zaiflashib qolganligidan». Shunday javob qilganda, bemorni aldagan bo'lmasiz. Bunday og'ir vaziyatda bemorga to'g'ri gapirishga, lekin rostni ochiq aytmaslikka harakat qilish kerak. Binobarin, bizda ateroskleroz yoki diabetdan butunlay forig' qilib yuboradigan dori-darmonlarimiz bor deya olamizmi? Yoki bu kasalliklar kutilmaganda yurak fibrillyatsiyasi, emboliya, buyrak yetishmovchiligi va hokazolar tufayli o'limga sabab bo'lmaydimi? Bemorning ko'nglini cho'ktirib yubormaslik uchun ba'zida diagnozni o'zgartirib aytish ham hayot-mamot zaruratiga aylanadi. Masalan, bemordagi belgi (simptom)lar takrorlanadigan boshqa bir kasallikni atash ham mumkin. Ya'ni oshqozon yoki oshqozonosti bezining yomon shishini - «xronik gipertrofik gastrit», kallyoz yarasi, pankrenekroz yoki o'pka shishini - «pnevmoskleroz» deb atash mumkin.

Bemorni qo'llab-quvatlash va uning ko'ziga tik qarash uchun shifokor va hamshira bemorning ruhini ko'tarish va boradagi gaplarga uni ishontirishi kerak. Kuni bitib borayotgan bemor uchun shifokor va hamshira uning ahvolini yengillashtirish maqsadida tibbiyotimizda bor bo'lgan imkoniyatlardan keng foydalanishi kerak.

Xullas, bemor hali hayot ekan, unga imkoni boricha yordamga shoshilmoq joiz. Zero, dunyodan ko'z yumayotgan bemorga dori berar ekanmiz, ikki maqsadni ko'ziaymiz: avvalo og'riq, hansirash, nafas qisish, ko'ngii behuzurligi va boshqalarni yengillashtirishga harakat qilamiz; ikkinchidan, kasallik bilan kurashar ekanmiz, bemor jismida oz bo'lsa-da darddan forig' bo'lishga imkon beramiz.

Ko'pchilik kishilar shifoxonada davolanish chog'ida ancha aziyat chekadilar. Avvalo, o'zining dard-kasali, boshqalar chekayotgan azobni, qolaversa, kimningdir o'limini, kun sayin ko'rish malol keladi. Shuning uchun o'zining shifoxonadan chiqarilishi mumkinligi haqidagi xabarni eshitib, quvonib ketadi. Lekin, ahyonda bir bo'lsa ham bu xabarni eshitib, ruhi cho'kib ketadigan bemor ham uchraydi. Bundaylar o'sha zahotiyuq, ahvollari unchalik yaxshilanmaganini aytadilar yoki butunlay yangi shikoyatlarni ayta boshlaydilar, qaytadan nazoratdan o'tkazishni talab qiladilar. Ba'zida, cho'zilib ketgan kasalliklarda esa, nogironlikni aniqlagunlaricha yoki nogiron (invalid)lar uyiga jo'natilguniga qadar shifoxonadan chiqarmasliklarini so'raydilar...

Bunday paytda shifokor og'ir ahvolda qoladi: qat'i turib, muddatida shifoxonadan chiqaray desa, bemor xafa bo'lib qoladi. Buning ustiga-ustak yana u shifokordan shikoyat qilishi ham mumkin. Bemorning noo'rin xafa bo'lganini ko'rish noxush holatdir. Shuningdek, ustingdan shikoyat tushishi ancha ko'ngil g'ashliklarga sabab bo'ladi. Shunday paytda nima qilmoq kerak?

Avvalo, ba'zi bemorning shifoxonadan chiqishga mone'lik ko'rsatishi sabablarini

o'rganaylik.

1. Ko'pincha bunga kasallik yoki uning qaytalanishidan qo'rqish sabab bo'ladi. Axir shifoxona - bemorni kechasi-yu-kunduzi birday, turli balolardan saqlovchi, kasallik yengib qo'yishiga yo'l qo'ymaydigan bir qo'rg'on-da. Xavfsizlikka o'rganib qolgan odam birdan «qo'rg'ondan» tashqari chiqarib yuborilishini eshitganida vahimaga tushadi. Bundan buyon kasallikka qarshi kurashda yolg'izlanib qoladi, atrofni qurshagan oq xalatlil «posbon»lar bu yerda qolib ketishadi-da.

Bunday bemorlar ketishi kerakligini tushunib turgan bo'lsa-da, har xil bahonalar qilib, yana bir necha muddat shifoxonada qolishga urinadi. Bundan shunday xulosa chiqarmoq kerakki, bemor shifoxonaga qattiq o'rganib qolgan. Bu yerda hamshiralar u chaqirmasa ham har kun tong bilan uning huzurida hoziru-nozir: tugmachani bossa bas - hamshira yonida paydo bo'ladi; uni bu yerda oq yuvib, oq tarashadi, choyshab, yostiq jildlarini almashtirib turishadi, ovqat yeyishga noli kelmasa, yedirib ham qo'yishadi. Dorini qachon ichaman, deb ham o'tirmaydi - vaqtida keltirib berishadi. Xullas, uyida o'zi qilishga majbur narsalarni bu y.~rda u uchun bировlar bajarishadi - bemorning shifoxonada bo'lishi har taraflama unga qulay. Bunday paytda, bemorning yaqin qarindoshlarini yordamga chaqirgan ma'qul.

2. Bu sabablardan ikkinchisi, bemorning shifoxonada davolanishdan umidi kattaligidir.

Masalan, bemor bronxial astma tufayli shifoxonaga yotqizilgan deylik. Davolanish muvaffaqiyatli o'tib, bo'g'ilishi barham topdi. Uning nazarida, bu yerdagi ajoyib shifokor va hamshiralar yana bir oz harakat qilishsa, ya'ni uzoqroq davolashsa, uni bu la'nati kasallikdan batamom forig' qilib yuboradiganday tuyulgani tufayli... Lekin biz bilamiz-ku. yana yarim yil shifoxonada saqlay olganimiz bilan bemor orzusi amalga oshmasligini.

Bunday paytda biz bcmorga tibbiyotimizning hozirgi imkoniyatlari darajasini tushuntirmog'imiz kerak. Albatta, uning hafsalasi pir bo'lishi tabiiy. Lekin payti kelib, o'zi tushunib olar deb, shifoxonada olib qolgandan ko'ra to'g'risini aytmog' maqsadga muvofiqdir.

3. Bemor nazdida shifoxona sharoiti uyidagidan yaxshi boisa, bemorning ketgisi kelmaydi. Hech kimi yo'q, majruh bemor shifoxona sharoitida o'zini yaxshi his qiladi. Ijnga bunday g'amxo'rlik ko'rsatadilar, yeyish-ichish tayyor, o'rin solmaydi, ovqat tayyorlamaydi, dori izlamaydi, degandek...

Yana shunday toifa qariyalar bo'ladi-ki, ularning uyga qaytishini «uchib-qo'nib» kutuvchi kishilari ham yo'q. Bundaylarga qanchalik rahm qilib, bir necha kunga olib qolishga urinmaylik, bundan unga naf yo'q. Zero, shifoxonada oladigan davolarini olib boigan.

NEVROTİK KASALLİK TASHXISI

Har bir shifokor va hamshira kunda bu kabi bemorlarga duch keladiki, ularning butun klinik ko'rinishi yoki asosiy qismi nevrotik kasalliklar bilan bog'liqdir. Har qanday kasallik qo'rquv, xavotir, tashvish va boshqa qator salbiy his-tuyg'ular tug'diradi. Jismoniy somatik kasalliklar, butunlay boshqa bir sabablarga ko'ra, allaqachon paydo bo'lgan nevrotik buzilishlar tufayli kelib chiqadi. Yana shunisi ham borki, nevroz bilan og'rikan bemor ko'pincha psixoterapevtga emas, balki terapevtga murojaat qiladi. Negaki, nevroz allaqachon ichki a'zolari dardga chalintirib qo'ygan bo'ladi.

Bunday paytda klinik manzara aralash, g'alati, u yoki bu nozologik birliklarning odatdagi ko'rinishiga to'g'ri kelmagan nevrotik buzilishlarni jismoniy kasalliklardan qay yo'sin ajratsa bo'ladi

Bu oson emas. Negaki, bemor odatda «nerv»dan emas, balki aniq bir noxush hislar: og'riq, hansirash, yurak «gupur»i, bo'shashish, bosh aylanishi, qabziyat va hokazolardan aziyat chekayotganligidan noliydi.

Bunday bemorlarni nima qilish kerak? Buning javobi oddiy. Maxsus tadqiqotlarning ko'rsatishicha, poliklinikaga murojaat qilgan bemorlarning to'rt dan uch qismi jismoniy kasallik bilan emas, balki nevroz kasalligi bilan og'rikan bo'ladilar.

K.Gaiening taxminiga ko'ra, *bemorlar shikoyatining oltmish foizi jismoniy emas. balki emotsiona! belgilardan iborai bo' ladi.* Nevrotik kasalliklar hamma mamlakatlarda va hamma davrlarda odam ko'p duchor bo'ladigan dardlardandir. Buning hayratlanari joyi yo'q: zero, a'zo qancha murakkab bo'lsa, uning dardga chalinishi shuncha oson. Nerv sistemasiday murakkab narsa bor ekanmi?

Agar kasallik faqat nevrotik buzilishlardan iborat bo'lib, bemor psixoterapiya uchun «pishib yetilgan» bo'lsa bormi, unda har qanday dori - antibiotik bo'ladimi, safro haydovchi bo'ladimi yoki spazmolitik bo'ladimi, foyda keltiraveradi. Bu o'rinda platsebo effektini yodda tutmog'imiz kerak.

Har qanday kasallikning birlamchi tashxisi - shu kasallikning bo'lishi ehtimoli borligini unutmash kerak. Agar nevroitik buzilish ko'p uchrasa, demak uni har doim yodda tutmoq kerak. Albatta, bosh og'rig'idan shikoyat qilganlarida bosh suyagi ichidagi shish haqida ham, meningit to'g'risida ham o'ylamoq joiz. Zero, bu kasallik vaqtida aniqlanmasa bemor halok bo'ladi. Lekin shunisi borki, shish bilan meningit kamdan kam uchraydigan kasallik, aksariyat, bosh og'rig'i nevroitik buzilish belgisidir.

Ma'lumki, nevroz chog'ida jismoniy o'zgarish bo'lmaydi: bemorning shikoyatlari fizik va laboratoriya tekshirishlarida tasdiqlanmaydi.

Agar xolis tekshirishlarda qandaydir organik patologiya ma'lum bo'lsa, nevroz haqidagi taxmin bekor qilinadi. Aslida esa, yo bir-biridan xolis mustaqil organik va nevroz kasalligi, yoinki organik kasallikning nevroitik reaksiyasi tufayli og'irlashish yuz bergan bo'lishi mumkin. Lekin shunisi borki, nevroitik buzilish haqida tashxis qo'yish uchun organik o'zgarish bor-yo'qligi ahamiyatsizdir. Negaki, bu kasallik asabiy-ruhiy sohaga tegishli bo'lib, uni aniqlash uchun fonendoskop ham, nevropatolog to'qmoqchasi ham kerak emas. Buning uchun bemor bilan suhbat va uni kuzatish kifoya. Mana bir misol.

Qirq sakkiz yashar bemor ayol yurak atrofi va to'shida, ko'krak orqasida og'riq borligidan, kechasi yuragi o'ynashidan, dam olgan chog'ida havo yetishmasligi, kekirish, ichi qotishi, uyqusizlikdan shikoyat qiladi. Bemor ayol hayajon, tahlkada, fikr-xayoli o'zidagi noxush his-tuyg'ulari bilan band. Turli shifoxonalarda boiganligi, har xil mutaxassislar tekshiruvidan o'tganini joniqib hikoya qiladi. Shikoyat ko'p-u, lekin aniq bir nima demaydi. Kasalini bir jumla bilan ifodalay olmaydi. «Doim yuragimni his etaman». Qandaydir bo'shshab turadi, ob-havo o'zgarishi bilan o'zimni yomon his etaman: qonim ingichka naychadan c'tayotganday...» kabi nolishlar. Ancha-muncha so'rab-surishtirishlardan so'ng og'riq uzoq cho'zilishi, jismoniy zo'riqish bilan bog'liq emasligi aniqlanadi; odatdagi vazifalarni bajarganda harsillamaydi. Arteriya bosimi, ahyonda simob ustunining 160/90 mm ga yetadi-yu, ammo odatda, me'yorda yuradi. Uyqusi yomon, uzoq yillar mobaynida uxlatadigan dori iste'mol qiladi. So'nggi yillarda hayz ko'rishi muntazam emas. Oilali, farzandsiz, ishlamaydi. Moddiy sharoiti yaxshi. Shifoxona va uyda ko'p marta davolangan, tashxislari turli-tuman: vegetososudistaya distoniya, spondilez, miokardit, yurakning ishemik kasalligi, klimakterik kardiopatiya.

Yaqinda klinikada yana mufassal tekshiruvdan o'tgan va unga diafragmaningqizilo'ngach teshiginingsirg'aluvchi dabbasi tashxisi qo'yilgan. Bunaqa kasalni tuzalmaydi, deb eshitgan bemor ayolning dard-dunyosi qorong'u.

Bemor ayol bilan suhbat jarayonida ma'lum bo'ladiki, yurakning hech qanday organik patologiyasi bunday shikoyatlarga o'rin qoldirmaydi. Shikoyatlari o'n yil burun: klimaks haqida gap bo'lishi mumkin bo'lmagan paytdan boshlangan. Bu yerda nevroitik hodisalar shunchalar ko'pki, buning natijasida barcha xilma-xil shikoyatlari o'z izohini topadi. Organik kasallik topish uchun bemorni yangidan-yangi tekshiruvlardan o'tkaziladi. Mana, nihoyat yechim ham topildi - diafragma dabba! Bemor ayolning hikoyasiga ko'ra davolovchi vrach, hamshira u bilan birga rentgen kabinetiga birga kirganini, dabba aniqlanganda «sevinganlaridan irg'ishlab ketganligini» so'zlab bergan. (N.A.Magazannik. «Isskustvo obsheniya s bolnimi»).

Bu misoldan ko'rinadiki, shifokor bemorni qanchalik kuzatmasin, navbatida bemor ham uning har bir harakatini ipidan ignasigacha bilib, kuzatib turar ekan.

Shuning uchun ham shifokor va hamshira *har bir bemorning ichki dunyosidan xabardor bo'lmog'i*, hech bo'lmaganda uning tomir urish (puls)ini bilganchalik bilmog'i kerak. Negaki, *bemorni shaxs sifalida bilmoq uni muvaffaqiyatli davolashda qo'l kelishi tabiiy.*

Bemorni davolashga kirishishda uning ichki dunyosini anglab olmoq uchun nimalar qilmoq kerak? Buni amalga oshirish biz o'ylaganimizdek juda qiyin emas. Buning uchun, avvalo, bemorga bir necha oddiy savollar berildi. Masalan, «Uyqungiz qanday, yaxshimi yoki yomonmi?» Uyquning notinchligi, uyqusizlik, uzilib turishi, ziyrak uxlash, dahshatli tushlar ko'rish bemorning hayajonda va tashvishdaligini ko'rsatadi. Uzluksiz uyqu dori ichish - ruhiy tushkunlikning asosiy belgilaridandir. Lekin ba'zan bemorda uyquchanlik, hatto kunduzi ham uyqu bosish kuzatiladi. Ammo bu hol bizni qiziqtirgan uyqusizlikdek muhim emas.

Bizda yengii ruhiy azoblanish (depressiya) juda keng tarqalganligini hisobga olgan holda quyidagi savollar bilan bemorning ahvolini bilib olish qiyin emas. «O'zingizni qay payt yaxshi his qilasiz - ertalabmi, kunduzimi yo kechqurun?». Ruhiy azobda qolgan kimsa, odatda, erta bilan bo'shshadi, kechga borib kayfiyati yaxshilanadi. Bo'shshish holatiga e'tibor qiladigan bo'lsak, ruhiy azobdagi kishida bu hol yurakdagi yetishmovchilik tufayli bo'lgandagi kabi jismoniy emas, ruhiydir: ya'ni kitob o'qiganda, suhbatlashganda, televizor ko'rganda ham

charchaydi. Bemordagi bu ruhiy tushkunlikning mohiyatiga yetib olish uchun undan: «Aytingchi, bequvvatmisiz yoki hech nima qilgingiz kelmaydimi?» deb so'ralsa, uning ahvolini tushunish mumkin. Buning ustiga bemorning yashash sharoiti ham bilib olinsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Shunda shifokor bemorning ruhiy azoblanishi sabablarini yaxshi anglab oladi: biron yaqinini yo'qotgani, turmushi buzilgani yoki farzandsizlikdan ezilayotganini angelaydi.

«Ishxonada sharoit yaxshimi?», «Oilangiz kattami, kim bilan yashaysiz?» kabi savollarga olingan javob bilan bemorning kayfiyati, ruhi va hatto ijtimoiy ahvolini anglab olish mumkindir.

Shifokor va hamshira bemorning faqat dardinigina emas, balki uning turish-turmushi, tabiatini har taraflama o'rganish chog'dagina u muvaffaqiyatga erishadi.

Demak, bemorni to'g'ri davolash uchun, kasallikni ainiqlashdan tashqari, uning ruhiy holatini ham chuqur o'rganish talab etiladi. Buning uchun shifokorda laboratoriya tekshiruvlarini mustaqil tahlil qilish uquviga ega bo'lish bilan bir qatorda tibbiy ruhshunoslikdan xabardor bo'lmog'i lozim. Shifokor va yuqori ma'lumotli hamshira butun faoliyati davomida bir-birini to'ldiruvchi bu ikki jismoniy va ruhiy nuqtai nazarni chuqur egallagan taqdirdagina buyuk bobomiz Abu Ali ibn Sinoning « Bemor borki, uni so'z bilan davolasa boiadi» degan so'zlariga amal qilgandagina muvaffaqiyat qozonishi tabiiydir.

DEONTOLOGIYA - OILAVIY SHIFOKORNING QONI VA JONI

Oilaviy tibbiyotning rivojlanishi oilangiz barcha a'zolari kasalliklarining kechishini kuzatishga imkoniyat yaratdi. Shifokorning bemor va oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarida deontologiya bilimlariga ega bo'lgan holda yondashishi muhimdir. Mashhur fransuz yozuvchisi Andre Moruaning yozishicha, shifokor doimo buyuk hakimlardek o'z kasbining mas'uliyatini his qilishi kerak.

Shifokorning faoliyati har bir bemorning betakror, murakkab, o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Bemorning har biri o'zaro munosabatlarni yangicha shakllantirishga majbur etadi. Shifokor awalo, fuqaro va qolaversa. jamoat arbobi bo'lgani sababli, undan nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy siyosiy hayotda o'ta ziyolilik talab etiladi.

Amaliy tibbiyotga hayotini bag'ishlagan inson o'zida shu kasbga nisbatan iste'dodi bor-yo'qligini, shifokor vazifasini bajara olishini aniq bilishi kerak. Eng murakkab sharoitlarda bemor va uning oila a'zolariga tez, malakali, beminnat yordam berishi, bemor manfaatlarini o'z manfaatlaridan yuqori qo'ya olishi lozim. E'tiqodi bo'lmagan shifokorni qobiliyatsiz san'atkor yoki shoirga qiyoslash mumkin.

Oila shifokori ko'p hollarda, o'zining majburiyatlaridan tashqari, bemor hayotining mohiyatini tushungan holda, uning oilaviy tashvishlaridan (ular ko'pincha xastalikning asosiy omili bo'ladi) ham xabardor bo'lishi muhim o'rin egallaydi. Ko'pincha, shifokor faoliyatida voqelikni malakali tahlil qilish va ehtiyotkorlik bilan maslahat berishga to'g'ri keladi. Xususan, turmushning nozik muammolarini hal etishda faol ishtirok etish; turmush o'rtog'iga nisbatan qanday munosabatda bo'lish, farzandlarini, qay tarzda tarbiyalash; ish joyidan ketish yoki kasbini tamom o'zgartirish va b. Shu tariqa, shifokor oilaning do'stiga, bemorning nafaqat ijtimoiy hayot masalalarida, balki siyosat sohasida ham nufuzli maslahatchisiga aylanadi. Bugungi murakkab davrda shifokorning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni beqiyosdir.

Shifokor obro'si, avvalambor, o'z sohasidagi chuqur kasbiy bilimlari, bemor va yaqinlari bilan muloqotning o'ziga xos xususiyatlarini tushuna olishi, ularning tashvishlari va kechinmalarini yurakdan his qilishi, xasta odam bilan ehtiyotkorona muloqot o'rnata bilishi va uning tezda to'la-to'kis sog'ayib ketishida muvaffaqiyatni ta'minlay olish kabi fazilatlaridan shakllanadi.

Shifokor har doim o'zini tuta bilish me'yori, sabr-toqati va kasbiy burchini sezishi, bemorga g'amxo'r bo'lishi lozim.

Shifokorning bemor va yaqinlari, kasbdoshlari bilan bachkana, dimog'dor munosabatda bo'lishi uning nufuzini tushiradi.

Aytish lozimki, shifokor o'ziga nisbatan hurmat kutishga ham haqli. Bemor qavmu qarindoshlari bilan suhbat shifokordan katta san'at, odob, xushmuomalalik, jiddiylikni talab qiladi. Shifokor ularni qiziqtirayotgan savollarga javob berishi, tashxis, tekshirish, davolash

rejasi haqida aytib berishi lozim.

Agar xastalikning oqibati noxush bo'lsa, bu haqda ehtiyotkorlik bilan so'zlash, bemorning qarindoshlarini qayg'uli yakunga asta-sekin tayyorlash kerak. Bu kabi holatlarning barchasida ham qisqacha «ha» yoki «yo'q» bilan chegaralanmaslik lozim. Javobning uchinchi -«ehtimol» ko'rinishi ham mavjud. Ba'zan, to'g'ridan-to'g'ri javob hamma vaqt o'rinli bo'lmaydi. Mutaxassis javobi bemorning qarindoshlariga keskin salbiy ta'sir etishi mumkin. Pirovardida qavmu qarindoshlar zaruriyati bo'lmagan tekshirish usullarini, yangi dori vositalarini qo'llashni talab etadilar. Bu vaqtda odob, sabr-toqat bilan keskinlashgan o'ta nozik sharoitni yengillashtira oladigan tushuntirish ishlarini olib borish zarur. Bemorga turli maslahatlarni berish, ba'zi masalalarni konsilium usuli bilan hal etish, mutanosib ruhiy muhitni yaratishga ko'maklashadi. Shikoyatlar va ziddiyatlar zaminini bartaraf etadi.

Demak, tibbiy deontologiya oilaning ijtimoiy davo muammolarini hal etishda ko'prik bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun oila shifokori ko'p qirrali deontologik uquvga ega bo'lishi, terapiya, xirurgiya, ginekologiya, pediatriya, psixiatriya, gerontologiya kabi sohalarning nozik tomonlarini bilgan holda muloqot o'rnatishi lozim.

TALABALARNING BEMOR BILAN MULOQOTI

Shifokorlik ishi sharafli, olijanob va mas'uliyatlidir. Chuqur nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan kishigina bunga qodir. Shifokorlik kasbi tinimsiz o'qib-o'rganishni, o'z mutaxassisligini doimiy ravishda takomillashtirishni talab etadi. Talaba-shifokor uchun o'ziga nisbatan bemorning ishonchi, muhabbati va hattoki hayratini qozonishi sharaflidir. Tibbiyot oliygohiga o'qishga qabul qilingan yigit va qizlar oilasida shifokorlar bo'lsa-da, tibbiyotning va shifokorlik kasbining barcha muammolarini to'liq tasavvur eta olmaydilar. Bu mashaqqatli yo'lda talaba tajribali shifokor-muallimlarning tibbiyot ilmi, shifokorlik kasbi to'g'risidagi fikr-mulohazalariga e'tiborli bo'lishlari lozim.

Oliy tibbiy ta'lim mobaynida talaba kun bo'yi, ko'pincha tunda ham ishlaydi. Talaba juda ko'p kitoblarni mutolaa qilishi, qator fanlarni o'zlashtirishi va eng avvalo, mustaqil ravishda murakkab fikrlashni o'rganishiga to'g'ri keladi. Mashaqqatli kirish imtihonlarini topshirib, oliy o'quv yurtiga qabul qilingan talaba uzoq muddatli o'qish davomida ba'zan yo'qotishlar bilan kechadigan tushkunlik holatiga qarshi kurashga kuchi yetishi haqida jiddiy o'ylashi zarur.

Bo'lajak shifokorlar ta'limning birinchi yilida o'zida kechayotgan vaqtinchalik ruhiy depressiya natijasida emas, balki o'z imkoniyatlarining chuqur tahlilidan keyingina tanlagan kasbidan voz kechish-kechmaslik haqida tugat qoror qilishi kerak.

Talaba ayni vaqtda bemorga yordam bera olmaydi, lekin uning azob-uqubatlariga e'tibor qaratishi lozim. Har bir talaba bemor bilan uchrashuvga ilgari tayyorgarlik ko'rishi, doimo o'z xulq-atvori, tashqi ko'rinishini nazorat qilishi zarur. O'talig'idagi birlashtirilgan bemor bilan o'zaro munosabatida talaba ohangdagi maromga e'tiborli, bosiq bo'lishi va nutq madaniyatiga amal qilishi kerak.

Ko'pincha talabalar klinikaga kelganlarida bemorlar bilan so'rashishni, ularning ahvolidan xabar olishni, bemorlarning o'rinlaridan turishlariga, eshikni ochishlariga, zinapoyadan ko'tarilishlariga yordam berishni unutadilar. Talaba - klinikada shifokorning kichik hamkasbi. Klinikadagi katta mutaxassislarga tegishli bo'lgan qoidalar talaba uchun ham taalluqlidir. Klinika - bu eng avvalo shifoxona va u qo'shimcha holda talabalar ta'lim oladigan dargoh vazifasini bajarsa-da, bu yerdagi hamma narsa asosiy maqsadni: bemorni davolashni ko'zda tutishi kerak. Buni hamma, ayniqsa talabalar yodda tutishlari lozim. *Klinikada talabalar probirka va kimyoviy reaktivlar bilan emas, balki tirik, aksariyat hollarda baxtsiz odamlar bilan muomalada bo'ladilar.* Ularning ba'zilari jismoniy azoblanadilar, o'tkir og'riq sezadilar, boshqalari esa o'ta holsizlikni boshdan kechiradilar. Asabiy yoki befarq bemorlar ham uchraydi, lekin ularning barchasi o'z tashvishlariga ega bo'lib, bu kechinmalarga yana qo'rquv ham qo'shiladi. Ular ko'pincha tekshirishlar natijalarini ruhiy zo'riqish bilan kutish holatlarini boshdan kechiradilar. O'zlarini otaliqqa olgan talabalardan esa qo'shimcha ma'lumot olishga harakat qiladilar.

Uzoq davom etgan tayyorgarlikdan so'ng talaba, nihoyat, bemor bilan birinchi bor uchrashadi. Bu bo'lajak shifokor hayotida muhim hodisadir. Agar shu daqiqada talabaning yurak urishi tezlashmasa, u ziyrak va yaxshi shifokor bo'lib yetishishiga ishonish mushkul.

Kasallik xususiyatidan qat'i nazar, bemor uchun xastalik bu baxtsizlik va azob-uqubattir. Kasallik tufayli ba'zan u o'qishni, ish faoliyatini to'xtatadi, ish haqini yo'qotadi, uyi, oilasini sog'inadi, xastalikdan, operatsiya va o'limdan cho'chiydi.

Talabalar bemorlar huzurida va o'zaro suhbatlarida ham o'ta ehtiyotkor bo'lishlari zarur; xasta odam talabalarning ayrim o'ylamay aytgan so'zlaridan butunlay boshqacha, teskari

xulosalar chiqarishlari mumkin. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar doimo buni yodda tutishlari va bemorlarning savollariga o'ta ehtiyotkorlik bilan javob berishlari, baodoblik bilan o'zini javobdan olib qochishlari, nozik savollarga keyingi safar javob berishlarini aytishlari lozim. Biroq bilmagan narsalarni aytishdan saqlanishlari zarur.

Bemorxonalarda o'tkaziladigan mashg'ulotlar paytida talabalar o'zlarini chetdan kuzatayotgan bemorlarning murabbiylarga (ba'zan talabalar muallimdan uzoqda turadilar, o'zga ishlar bilan shug'ullanadilar) nisbatan ixloslarini so'ndirmaslik uchun tinchlik saqlashlari va o'zlarini munosib holda tutishlari kerak.

O'zlarining xulq-atvorlari bilan murabbiy talabani nufuzini pasaytirmaslik, bemor ahvolini og'irlashtirmaslik, uning azob-uqubatlarini ko'paytirmaslik uchun, qadimiy va doimiy «Eng avvalo, bemorga zarar keltirma» maqoliga amal qilgan holda muloqot qilganlari ma'qul.

O'ziga talabchan, o'ta intizomli, sarishta, va'dasining ustidan chiqadigan talabagina bemor ko'ziga «issiq ko'rinadi» va undan buyurilgan kun tartibi hamda davolash usullariga amal qilishini talab etishi mumkin, bemor o'zini ko'pincha mushtoq bo'lib kutayotganini talaba esdan chiqarmasligi kerak.

O'zining imkoniyatlari darajasida talaba bemor ahvolini ba'zan shirin so'zi va jilmayishi, ba'zan jismoniy yordam ko'rsatish bilan (bu kamtarona, lekin juda foydali vositalardir) yengillatishi zarur. Albatta, talaba yosh, sog'lom insondir va hech kimsa undan klinik mashg'ulotlarning boshlanishi bilan doimo va hamma joyda jiddiy bo'lishni, kulmaslik hamda xursand bo'lmaslikni talab qilishga botinmaydi.

Biroq talaba-shifokorning avvalo, tashqi qiyofasi va orastaligi bilan ajralib turishi zarur. Tozalik va sarishtalik -gigiyena va kasalliklarning oldini olishning birinchi shartidir. *Shifokorlar kirlanganligi tez ko'zga tashlanishi sababli oq xalat kiyadilar.* Talaba shifokor bunday tartibga o'qishning birinchi kunlaridanoq ko'nikishi lozim. Uning kiyimi orasta, toza va yaxshi dazmollangan bo'lishi kerak. Agar talabani xalati kirlangan, g'ijim bo'lsa, o'zi esa soch-soqoli o'sgan, orasta bo'lmasa, yo'lak yoki bemorxonadagi tartibsizlikka e'tibor bermasa, bunday odam bilan ishlash noxush, davolanish esa mushkuldir. Talabani sochi kesilgan, soqoli olingan bo'lishi darkor. Bo'lajak shifokorlar, ayniqsa talaba-qizlar o'ta yangi rusumga ergashmasliklari, barcha narsalarda, shu jumladan, modada ham me'yorni bilishlari kerak. Talaba-qizning (kalta yubka, ko'ylakda) bemor krovatiga o'tirishi, ayniqsa bemor yosh yigit bo'lsa, juda noqulaydir. Shuningdek, o'ta bashang turmaktangan soch ham no'rindir. Yoyilgan sochlar, so'nggi rusumdagi modadagi yubka (ko'ylak) va shimlar o'z egasining jiddiyligiga shubha tug'diradi. Qisqasi, shifokor-talaba g'ayrioddiy ko'rinishda bo'lmasligi lozim. Tirnoqlar olingan bo'lishi shart, negaki uzun tirnoqlar ostida kir to'planadi. Ikkinchi tomondan, uzun tirnoqlar noqulay va hatto perkussiyada og'riqqa sabab bo'ladi. Chuqur palpatsiyani esa umuman o'tkazib bo'lmaydi, chunki bunday tirnoqlar bemor tanasini tirnab, so'ngra bu sohalarda yiring toplanishiga olib kelishi mumkin. Xulosa shuki, uzun tirnoqlar talaba va shifokor uchun ortiqcha bezakdir. Ayol-qiz talabalar va shifokorlar tirnoqlarini bo'yamasliklari (ayniqsa, yorqin rangli bo'yoqlar bilan) kerak. Bemorga chiroyli qosh-ko'zlar, yoyilgan sochlar, bo'yalgan tirnoqlar emas, e'tibor va g'amxo'rlik qimmatlidir.

Talaba ba'zan o'ta yoqimsiz muolajalardan voz kechishi mumkin emas. U zarur bo'lganda, bemorning axlatini ko'zdan kechirishga, mikroskop ostida tekshirishga, kezi kelganda, kirlangan bemorlarni ham diqqat bilan ko'rishga majbur. Gangrena yoki absessga duchor bo'lgan bemor to'shagi yonida badbo'y hidga chidashga ko'nikish kerak. Bu hid bemor kiyimi, to'shak anjomlari va sochlarida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Tuberkulyoz, zahm, vabo yoki moxov bilan kasallangan bemorlardan cho'chimaslik darkor. Tibbiyotga bo'lgan muhabbatni fizika, matematika, tarixga bo'lgan sadoqat bilan taqqoslab bo'lmaydi. «Shifokorlar iste'dodi» haqida bejiz gapirmaydilar, bu bemorlar, baxtsiz va uqubat chekayotgan odamlarga nisbatan muhabbatni nazarda tutadi. «Yaxshi odamgina yaxshi vrach bo'la oladi», - deb buyuk polyak shifokori va olim Vladislav Beganski qayta-qayta uqtirgan. Shifokorlikdan bo'lak kasb yo'qki, mutaxassisga shunchalar yuqori ma'naviy talablar qo'ygan bo'lsin. Shunga ko'ra, shifokorlik ta'limida boshqa fanlar bilan bir qatorda, shifokorlik ma'naviyati yoki tibbiyot deontologiyasi muhim ahamiyatga ega.

Tibbiyot institutida shifokorning jamiyatdagi o'rni va burchi haqida dastlabki tasavvurlar beriladi. Shu sababli, birinchi kunlardanoq talabalarga shifokorlik ma'naviyatining asosiy tamoyillarini o'rgatish zarur. Talaba-vrachlar shifokorlik xususiyatlari, uning ruhiy-emotsional ta'siri bilan belgilangan tengi yo'q vazifaning yuklatilganini anglashi darkor. Bemorlar bilimdan tashqari o'zlariga nisbatan e'tibor, ziyraklik, xushmuomalani talab qiladilar. Oliy o'quv yurtida ta'lim olish jarayonida buni talabalarga o'rgatish o'ta murakkab vazifa. Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasida talaba klinikaga qadam qo'ygan birinchi kundanoq

shifokor ma'naviyatining asosiy tamoyillari va shifokor-talaba qanday bo'lishi mumkinligi haqida suhbatlar olib boriladi. Deontologiya masalalari va tibbiyot ilmi allomalariga maxsus ma'ruzalar bag'ishlanadi. O'qituvchilar har kuni bevosita shifoxonada shifokorlik ma'naviyati me'yorlarini namoyish qilgan holda talabalarga shaxsiy namuna ko'rsatib, tarbiyalaydilar.

Klinika muhitining o'zi ham bo'lajak shifokorlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi lozim. O'quv yilining oxiri (may oyi)da, kafedrada talabalar ishtirokida deontologiya masalalariga bag'ishlangan an'anaviy konferensiya o'tkaziladi. Odatda, turli kurslarda tahsil olayotgan talabalar, muallimlardan iborat katta auditoriya yig'iladi. Yetakchi mutaxassislar - turli kasb olimlari taklif qilinadi. Konferensiya klinikaning deontologiya bo'yicha doimiy faoliyat ko'rsatuvchi zalida o'tkaziladi. Xuddi shu yerning o'zida deontologiyaning turli masalalariga bag'ishlangan adabiyotlar ko'rgazmasi ham mavjud. Shuningdek, har bir talaba shifokor ma'naviyati va deontologiyasi yuzasidan referat yozishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

YATROGENIYA, EVTANAZIYA HAQIDA

Kasallikning ichki holatini o'rganish ikki shaxsning psixologik muloqoti hosilasidir. Ulardan biri tibbiyot xodimi - shifokor, hamshira, ikkinchisi esa bemor. Bu o'rinda shifokor, hamshiraning shaxsi bemor ruhiyatiga ta'siri shu qadar kattaki, u hatto (ba'zi bir holatlarda) kasallikning kechishiga ta'sir qilishi ham mumkin. Shifokorlar tomonidan o'tkaziladigan ruhiy muolaja bemorga katta foyda beradi, bunda uning ishonchli so'zi juda katta ahamiyatga ega. Bu so'z shifokorning asosiy qurolidir. Demak, shifokor va hamshiraning so'zi bemorga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir etishi mumkin. *Shifokor yoki hamshiraning bir og'iz so'zi bemor tuzalishiga yoki uning dardini og'irlashtirib yuborishi, boshqa ikkilamchi kasalliklarni keltirib chiqarishi ham mumkin.*

Yatrogen kasalliklari shifokor, hamshira va sanitarlar xatti-harakatlari va gap-so'zlarning yoki bemorga qilingan boshqa salbiy ta'sirdan kelib chiqadigan xastalikdir. Shuning uchun hamshiralar tibbiy psixologiyaning ahamiyatini boshqa xodimlarga qaraganda puxta va mukammal egallab olishlari va uni amaliyotda qo'llashlari lozim bo'ladi. Bemor yoki sog'lom odamlarning barisi ham tib xodimining noto'g'ri harakati natijasida bir xil ruhiy iztirobga yoki yatrogen kasalligiga duchor bo'lavermaydi. Yatrogeniya nevropat va psixopatlarida juda oson yuzaga keladi. Albatta, bunda ularning gavda tuzilishi va nasliy holatlari hisobga olinadi. Yatrogen kasalliklarga astenik va psixasteniklar moyil bo'lib, ular kelajakdan qo'rqadilar, uni qora tusda ko'radilar va o'zlarini ruhiy, jismoniy holatlaridan doimo hadiksiraydilar.

Tib amaliyotida yatrogen kasalliklarga sabab bo'ladigan 4 asosiy omilni nazarda tutish kerak:

1. Bemorning anamnezini y'ig'ish.
2. Bemorning ichki holatini o'rganish.
3. Laborator tahliliga baho berish.
4. Tashxis va kasallik oqibatini aniqlash.

O'zaro muloqot chog'ida bemorning oldin boshidan kechirgan kasalliklariga ham katta ahamiyat berish zarur, shuningdek, kasallik etiologiyasini va patogenezini o'rganishda bemorni ta'sirlab qo'yishdan ehtiyot bo'lish kerak. Ayniqsa, xavfli o'sma, yurak xastaligi va uyida, yaqinlarida ruhiy kasalligi mavjud bo'lgan bemorlarga nisbatan nihoyatda ehtiyotkorlik va muloyimlik bilan muomala qilish talab etiladi.

Ba'zi yatrogen kasalliklarning paydo bo'lishi bevosita instrumental yoki laborator tekshirishlarga bog'liq. Ayniqsa bunda qon, siydik va boshqalarning noto'g'ri tahlili sabab bo'ladi.

Rentgenologik va ultratovush tekshirishlarning natijalarini ehtiyotsizlik bilan aytish ham yatrogeniyaga sabab bo'lishi mumkin.

Shuni unutmaslik kerakki, qishloq varchlik punkti (QVP) ambulatoriya, poliklinika, qabul bo'limlarida, shifoxonada bemorga, avvalambor, ruhiy tinchlik yaratib berish kerak, chunki bu holat davolashning samarali quroli hisoblanadi. Yatrogeniya mexanizmlari hali to'la-to'kis o'rganilmagan, chunki shu damgacha tana va run bir-biridan ajratilgan holda o'rganilmoqda. *Umuman aytganda, har qaysi tibbiyot xodimi bemor bilan suhbatni to'g'ri tashkil qilishi, uning ishonchini qozonishi, o'zaro munosabat oralig'ini saqlashi, o'ziga ishontira olishi, unga hamdard bo'lib, imkon qadar aniq javob qaytara olishi darkor.* Tib xodimlarining har bir xatti-

harakati va gap-so'zlari bemorga yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi va uni ruhan tetik qiladi.

Shifokor bemor bilan birinchi uchrashuvidanoq uning ruhiy holatiga nisbatan nihoyatda ehtiyotkorlik bilan muloqot qilish mahoratini takomillashtirib borish yatrogeniyaning oldini oladi.

Hozirgi kunda jahon shifokorlari orasida shov-shuvga va munozaraga sabab bo'lgan «*evtanaziya*» haqida ikki og'iz so'z. Evnataziya - bu og'ir, tuzalmas kasallikka, masalan, rakning oxirgi bosqichiga muhtalo bo'lgan bemorning o'limini istakka binoan tezlashtirish va qiynoq azoblaridan qutqarish va tabiiy o'limni turli dori-darmonlar yordamida yengillashtirishdir. «*Evtanazis*» so'zi (*grekcha*) *baxtli, azobsiz o'lim degan ma'noni anglatadi.*

Keyingi yillarda tibbiyotda erishilgan yutuqlar tufayli, bemor o'limi bilan bog'liq bo'lgan deontologik muammolarga katta e'tibor berila boshlandi. Hatto og'ir holatdagi bemorlarning o'limi ham reanimatsiya (jonlantirish) bo'limida kam uchraydigan hodisa hisoblanadi. F.Benonning yozishicha: «Shifokorning burchi -faqatgina bemorni sog'lig'ini tiklabgina qolmasdan, balki shu kasallik natijasida paydo bo'lgana zob-uqubatlarni, og'riqni yengillashtirish, bemorning o'limini yengil, tinch va azobsiz kechishiga yordam berishdan iboratdir. Hozirgi davrda evtanaziya haqida turli qarama-qarshi fikrlar mavjud. Evtanaziya tarafdorlari bu so'zni «yoqimli. yengil o'lim» deb baholasalar, qarshilar esa buni qotillik, deb izohlaydilar.

Evtanaziyaning ikki xil: faol va sust turlari farqlanadi

Sust evtanaziya - bu davoni to'xtatish orqali o'limni tezlatish. Masalan sun'iy nafasni o'tkazmaslik.

Faol evtanaziya - ahvoli og'ir, uzoq vaqt surunkali kasallik bilan og'rib kelayotgan bemorlarga, masalan MNS shikastlangan, tug'ma majruh va xavfli o'sma kasalligi bo'lgan bemorlarga ma'lum vosita va harakatlar orqali o'limni tezlatish. Bundan tashqari, ixtiyoriy va majburiy evtanaziya ham mavjud. Ixtiyoriy evtanaziya bemorning talabi va roziligi bilan bajariladi. Binobarin, o'lim muqarrar va undan qochib bo'lmaydi, u hayotning so'nggi bosqichi hisoblanadi. Majburiy evtanaziyada bemorning fikri e'tiborga olinmaydi. Yana «antievatanaziya» atamasi ham mavjud. Bu holatda barcha vositalardan foydalanib, qanday bo'masin bemorning hayotini saqlab qolish nazarda tutiladi.

Tasavvur qilaylik, ertaga evtanaziyaning tan olishni ruxsat etuvchi qonun chiqdi. Shu zahoti qator muammolar paydo bo'la boshlaydi. Ya'ni:

1. Evtanaziyaning kim o'tkazadi? Bu ish uni amalga oshirishni istamaydigan shifokor zimmasiga yuklatilsachi?

2. Kasallikning erta bosqichlarida, uni davolash uchun kurash va bemorning hayotini saqlab qoluvchi faol izlanishlar susayib ketish holatlari ko'rinish boshlaydi.

3. Shu bilan birga, qarindoshlarning befarqligi, bemorga uy sharoitida qaray olmasliklari sababli yoki har qanday to'lovga rozi bo'luvchi. uning o'limidan manfaat topuvchilar uchun yo'l ochiladi. Tibbiyot xodimlarining evtanaziyadan o'z manfaatlari uchun foydalanish holatlari paydo bo'la boshlaydi. Evtanaziya yordamida ba'zi jinoyatchi guruhlar o'zlariga xalaqit berayotgan odamdan qutulish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Shuningdek, transplantatsiya maqsadida (organlar kerak bo'lib qolganda) evtanaziya yordamida odamdan qutulishning qo'shimcha imkoniyatlari paydo bo'ladi.

4. Qiziq, hozirgi sharoitda evtanaziya muammosini qanday yechish mumkin? Qachonki, bemorlar dori vositalari va davolash asboblari yo'qligi natijasida o'lib ketayotgan bo'lsa. Aftidan shu sabab bo'yicha ham evtanaziyaning tez-tez qo'llashga imkoniyat yaratilganga o'xshaydi. Natijada quyidagi ikki savol paydo bo'ladi:

1. Lekin bunga shifokorlar-hamshiralarning ma'naviy jihatdan haqlimi?

2. Bungungi kunda evtanaziyaning amaliy tibbiyotga kiritish lozimmi?

Bu savollarga javob bermoq uchun boshqa mamlakatlarning tajribalarini o'rganish, tibbiy an'analarini ko'zda tutish, tibbiy bioetikasi masalasini, deontologiya, yuridik huquqlar, psixologiya va nihoyat, bemorlar, ularning qarindoshlari va jamoat fikrlarini bilish, ularni izchil o'rganish zarur. Shulardan keyingina ehtiyotkorlik, sinchkovlik bilan evtanaziya muammosini baholash mumkin. Lekin nima bo'lganda ham shifokor qasamiga sodiq qolishi va bemorning hayotini saqlashga, uning ahvolini yengillashtirishga harakat qilishi kerak.

Bemorning hayotdan ongli ravishda ko'z yumishi hech qachon rahm-shafqat yuzasidan qilingan ish deb baholanmaydi. 1950 yilda AQShda: «Bemorning xohishi va qarindoshlari ruxsatiga ko'ra og'riqsiz vositalar bilan o'limni tezlatish kerakmi?» - degan savolga 36%, 1973 yilda esa 50% ijobiy javob olingan. Bugun Gollandiya dunyo bo'yicha «evtanaziya muolajasini» qonunlashtirgan birinchi mamlakat hisoblanadi. Ma'lumotlarga qaraganda, har

yili 4 mingga yaqin bemor evtanaziyani tanlar ekan.

Bizningcha, qaltis va nozik masalaga shifokorlik deontologiyasi nuqtai nazaridan rad javobini berish kerak. Buqrot asarlaridan biriga «O'ldirma» degan naqlni epigraf qilib olgan. U: «Men shifokorlik faoliyatimda bemorning o'limiga sabab bo'ladigan biron bir dorini ishlatmaslikka qasam ichaman», -degan. Xuddi shu orinda hazrat Alisher Navoiyning «Tabib jallod emas», degan iborasini eslash kifoyadir.

II BOB

TIBBIYOT BIOETIKASI VA DEONTOLOGIYASIGA DOIR NUTQ VA MAQOLALAR

Talabalarning deontologik tarbiyasi

va uni

takomillashtirish yo'llari

- Hurmatli Ilmiy kengash raisi, Prezidiumi va a'zolari! Aziz hamkasblar!

Tibbiyot ahllari orasida hozirgi kungacha yechilmay kelayotgan bir jumboq bor: «Tibbiyot-bu ilmimi yoki san'at?»

Uzoq va yaqin o'tmishdagi allomalar va bugungi olimlarimizning e'tiroficha, tibbiyotga avvalo o'ziga xos bir fundamental fan sifatida qarash kerakligi hech kimda e'tiroz yoki shubha tug'dirmaydi. Lekin uni amaliyotga joriy eta o'ish, tabobatchilik sirlarining hayotdagi tatbiqi katta bir san 'at («San'atlar ichida eng ulug'i» - Aflotun iborasi bilan) ekanligini ham tan olishga to'g'ri keladi.

Tabobatchilik sirlari esa tabobat deontologiyasi, ya'ni burchga sodiqlik bilan chambarchas bog'langan va hamohangdir.

Biz, tib instituti domlari talabalarimizga tibbiyot ilmini o'qitishga asosiy kuchimizni sarf qilishga harakat qilamiz-u, lekin tabobatchilik sirlari va deontologiyasini o'rgatishga deyarli ahamiyat bermaymiz va buning uchun soatlar ajratmaymiz. Talabani odamiy fazilatlarini izlab topish va takomillashtirish borasida yetarli tarbiyaviy ishlar olib bormaymiz.

Biz talabalarimizda o'zbek xalqining tarixan ma'naviy va madaniy mentalitetiga xos bo'lgan insoniy («komil inson») fazilatlarini shakllantirmog'imiz zarur. Bu ajoyib fazilatlarini, ya'ni odamiylik (insoniylik), andishalilik, kattalarga hurmat, kichiklarga mehribonlik va g'amxo'rlik, rahbarga ehtirom, Vatanni sevmoq, jasoratlilik, beg'arazlik, mehmonnavozlik, bag'rikenglik, ota-onani e'zozlash kabilarni Prezidentimiz e'tiroficha, dunyo sivilizatsiyasining taraqqiyotiga hissa qo'shgan buyuk allomalarimiz - Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubrolarning bebaho asarlaridan qidirish kerak.

Tibbiyot bioetikasi va deontologiyasi bo'ajak shifokorlarning burchi va odobi haqidagi fan bo'lib, vrachlar, hamshiralari va kichik tibbiyot xodimlarining xatti-harakatini belgilaydigan mafkuraviy dasturulamaldir.

Talabalarni deontologik tarbiyalash dasturi tibbiyot institutlarida chuqur va mazmunan boy ravishda ishlab chiqilishi lozim. Bu borada bizning 2-ToshTI hozirgi Toshkent Tibbiyot Akademiyasida olib borilayotgan deontologik tarbiyaviy ishlarning ayrim yo'nalishlari, tajribalari, marosimlari diqqatga sazovor. Bularga institutga kirish imtihonlaridan o'tganlarni «Talabalikka qabul qilish», «Sinov daftarchasini topshirish», birinchi bor klinikaga qadam qo'ygan 3-kurs talabalari uchun «Klinikaga yo'l» va Buqrot qasamyodini qabul qilish, O'zbekiston shifokori qasamyodining bitiruvchilar tomonidan qabul qilinishi va odob-axloqqa oid turli ommaviy-tarbiyaviy tadbirlarni kiritish mumkin.

Shifokorlik deontologiyasi fan sifatida keng tarmoqlarga ega. Shuning uchun talabalarni deontologik ruhda tarbiyalash barcha gumanitar va zaminij kafedralarning va ayniqsa, klinik kafedralarning asosiy darslari o'qilayotgan jarayonga domlalar tomonidan qo'shib olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Shifokorlik deontologiyasi fan sifatida keng falsafiy tushuncha bo'lib, shifokor bilan bemor o'rtasidagi munosabat, shifokor bilan bemorning qarindoshlari, yaqinlari orasidagi munosabat, shifokorlarning hamkasblari, o'rta va kichik tib xodimlari bilan munosabatlari, shifokor va bemorning davolash jarayonidagi huquqlari, ustoz va shogird munosabati, shifokorlik siri va xatolari kabi muammolar bilan shug'ullanadi.

Bioetik deontologik tamoyillarning tibbiyot amaliyotida to'g'ri joriy qilinishi - bo'lajak shifokorlarning ongi, saviyasi, dunyoqarashi, bilim mezonini va qaysi jamiyatda

yashayotganligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida shifokorlarning bemorlar bilan deontologik munosabatlari bir xilda bolgan emas, zamon talabiga qarab o'zgarib borgan. Shifokorlar odobi, xatti-harakatlarini baholash mezoni ham shunga muvofiq ravishda o'zgargan. Biz domlalar-ziyolilar O'zbekistonimizning milliy istiqloq mafkurasini boyitish ishida yuqori malakali shifokorlarni tayyorlash va ularni deontologik chiniqtirish borasidagi o'z dasturlarimiz bilan qatnashmog'imiz lozim. Bu dasturning negizida talabalar ongiga hozirgi zamon dunyoqarashini shakllantirish barobarida tibbiy oliy o'quv yurtlarida ma'naviyat, ma'rifat, falsafa, madaniyatshunoslik, O'zbekiston tarixi, tib tarixi, dinshunoslik, huquqshunoslik, odobnoma, iqtisodiyot nazariyalarini o'qitish zarur.

Yuzaki qaraganda, deontologiya umumiy fanga yaqin tushuncha bo'lsa ham, ammo har bir shifokorlik mutaxassisligining o'ziga xos qirralari mavjud. Qolaversa, terapevtlar, xirurglar, stomatologlar, psixiatrlar, onkologlar, umumamaliyot yoki oilaviy shifokorlar deontologiyasi bir-biridan farq qiladi. Deontologiyaning bunday nozik nuqtalari domlalar tarafidan klinik fanlarga qo'shib o'qitiladi.

Shifokorlik deontologiyasi asosida shifokorning bemor bilan munosabati yotadi. Shifokorning butun bilimi, burchi, odobi, tashqi ko'rinishi, xatti-harakatlari bemorda unga nisbatan ishonch uyg'otishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bemorda o'ziga shu shifokorgina malham, najot bo'la oladi, degan umid va tuyg'u paydo bo'lishi kerak. Buning uchun, avvalo shifokor bilan bemor muloqot san'atini egallagan bo'lishi kerak.

Afsuski, biz talabalarga bemorlar bilan gaplashish (bemorning anamnezini to'plash) san'atini chuqur o'rgatmaymiz, bunga o'quv dasturlarimizda yetarli soatlar ajratilgan emas. Lekin bu deontologik tarbiyaning eng muhim va dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Boshqacha aytganda, vrach bemorga eng avvalo so'zi, gapi orqali ta'sir qilish san'atiga ega bo'lishi shart.

Rus olimi Bexterevning «Agar vrachning birinchi suhbatidan so'ng bemor yengil tortmasa, u vrach emas», degan iborasini eslang. Ayrim chet el tibbiy oliy o'quv yurtlarida bu masalaga jiddiy yondashuvni ko'ramiz. Masalan, Angliyaning Glazgo shahridagi dorilfununning tibbiyot fakultetida professor Xamshir Barber rahbarligida 3-5 kurs talabalariga mo'ljallangan «Bemorlar bilan muloqot san'ati» kafedrasini mavjud.

Bemor bilan suhbatlashish san'ati bemorning ismi-sharifi, nasl-nasabi, kasbi-kori, lavozimini hisobga olgan holda o'ziga xos ravishda olib borilishini talab qilishini bilamiz. Ammo suhbat mazmunida bemorning dardi asosiy mavzu ekanligini chuqur tahlil etmaymiz. Boshqacha qilib aytganda, muloqot deontologiyasi bemorning asosiy klinik diagnozi atrofida bo'lishi shart. Aytaylik, shifokor bilan bemor suhbatining o'zagida bemor dardiga malham bo'lish, kasallikning kechishi, oqibatlar haqida tushunarli, to'g'ri, ob'ektiv ma'lumotlarga asoslanib (ularni boshqalarga oshkor qilmasdan), davolanib kelishga umidini paydo qilib yotadi. Muloqot san'atini egallagan bakalavr yoki umumiy amaliyot shifokori miokard infarktga, miya insultiga, rakka, bronxial astmaga, silga, shizofreniya, zahm, OITS (SPID) kabi xastaliklarga uchragan bemorlar va ularning yaqinlari bilan bir tarzda suhbat qurmasligi kerak-ku, axir! Murakkab jarrohlik operatsiyasidan oldin bemorlar va uning yaqinlari bilan olib boriladigan qiyin va uzoq suhbat uslubini nega o'rgatmaymiz?

Endi shifokor va bemor hamda uning qarindoshlari bilan MODDIY MUNOSABAT haqida, Bu – deontologiyaning eng nozik muammolaridan hisoblanadi. Hozirgi kunda bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi jamiyat qura boshlangan o'tish davrida bu masalani chetlab o'tsak ham bo'lar edi. Lekin talabalar bilan suhbatlarda bu mavzu tez-tez ko'tariladi, shuning uchun men aziz domlalarimizga hozirgi o'tkinchi davrni sabr-matonat bilan, chidam bilan, oq xalatimizga dog' tushirmay, bemorlarimizga sidqidildan beg'araz va qolaversa, ko'pchiligimizga xos fidoyilarcha xizmat ko'rsatishni davom ettirishni tushuntirishlaringizni istar edim.

Bu borada men buyuk tib allomalimiz Buqrot, Abu Ali ibn Sino, Zakariyo ar-Roziy va boshqa ko'plab mashhur allomalarning o'git-nasihatlarini, shuningdek, O'zbekiston respublikasi shifokorining qasamida, avvalo, shifokor faoliyatining ko'rki sifatida BEG'ARAZLIK g'oyasi ustun qo'yilganini ta'kidlamochiman. Nomi zikr qilingan aliomalar umri davomida shohona hayot kechirmaganliklari, kundalik moddiy sharoitga ko'nirik, kamtarin va kamsuqum yashaganliklari tarixdan ma'lum.

Siz bilan biz, ya'ni davlat tasarrufida xizmat qilayotgan shifokorlar, domlalar tabiatiga yulg'ichlik, poraxo'rlik, tamagirlik kabi illatlar ziddir.

Bemor tuzalib, o'zini qiynagan kasallik azobidan butunlay forig' bolgandan so'ng, shifokorlarga, ularning fidoyi sidqidildan qilgan xizmatlariga yarasha qilmoqchi bo'lgan moddiy «rahmat» i shifokorlarning imoni va vijdonining mezoni bilan baholanadi.

Shifokorlik deontologiyasi talabdan insoniy fazilatlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Bilimdonlik, odamiylik, jasorat, mehr-muhabbat, xushmuomalalik, oqillik, halollik, insof, pokizalik, sofdillik, ziyraklik, hozirjavoblik, bosiqlik, kamtarlik, izlanuvchanlik kabi fazilatlarni talabalar o'z domla-ustozlaridan o'rganishlari kerak. Ma'lumki, shifokorlik deontologiyasi talabdan avvalo bilimdonlikni talab qiladi. Bu uning umumiy bilim ko'lami, tibbiyot institutida olgan sabog'i, oliygohni bitirgandan so'ng o'z ustida tinmay ishlab, bilim malakasini to'ldirib borishiga bog'liq. Xalqaro Sog'liqni Saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, odamlar orasida uchraydigan kasalliklarning soni o'n mingdan, xastalik belgilari esa yuz mingdan ortiq. Har yili dunyoda kasalliklarga qarshi minglab yangi dorilar ishlab chiqariladi. Ularning hammasini institutda o'qib yurgan davrda talabalarga o'rgatib ulgurib bo'lmaydi. Bugun talabalarimiz bilim doirasini kengaytiramiz, XX asrda ochilgan yangi kasalliklar bilan tanishtiramiz, ularni tashxislash va davolash borasida tushuncha beramiz. Masalan: legionellez, xelikobakterioz, zaaminellez, davriy kasallik, ekstragenital kasalliklar, gestozlar, OITS da ichki a'zolarining jarohatlari haqida yetarli ma'lumot berilmaydi. Hayotiy va vrachlik faoliyati davrida shifokor bu haqida turli tibbiy kitoblar, jurnallar va ayrim manbalardan foydalangan holda o'z bilimini boyitib boradi.

Xalqaro Sog'liqni Saqlash tashkiloti statistikasi bo'yicha yiliga 6000 ga yaqin oylik jurnal (ularda 200.000 ga yaqin ilmiy maqolalar bosiladi) va 8000 ga yaqin turli kitob, dasrluk, monografiyalar chop qilinadi. Kitob va tib adabiyotiga muhabbatni ham talabalar ustozlaridan o'rganishlari lozim.

Endi talabalarining tashqi ko'rinishlari haqida. Shuni amalga tatbiq etish ham eng avvalo ustozlarga bog'liq. Aytaylik, agar domlaning o'zini boshida qalpog'i bo'lmasa, uni qanday qilib talabalardan talab qila oladi?

Shifokorlik deontologiyasi tibbiyot tarixini yaxshi bilishni taqozo etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, shifokorlik deontologiyasi haqida ta'lim berayotganimizda talabalarga shifokorlarning kasbiy faoliyati va shaxsiy fazilatlari qanday bo'lishi kerakligi borasida so'z yuritganimizda biz ko'proq rus adabiyoti namoyondalari Chexov, Veresayev, Bulgakov, Kronin va hokazolardan izlar edik. Holbuki, ulug' shoirlarimiz Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiylar ijodida tabobat va tabiblarga doir qimmatli fikr va mulohazalar mavjud.

KELAJAKNI O'YLAB

Akademiyamizda talabalarining deontologik tarbiyasini takomillashtirish borasida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylayman:

1. Akademiyamizda talabalarni deontologik ruhda tarbiyalash dasturini va ishlarini muvofiqlashtiruvchi o'quv-metodik markaz tashkil qilish kerak (buni bizning kafedra qoshida ochish mumkin).

2. Akademiyamizda akademik litsey o'quvchilarining tibbiyotga e'tiqodini test-sinov nazorati asosida o'tkazish dasturini ishlab chiqish kerak.

3. Akademiyaga kirgan 1 -kurs talabalari va ularning ota-onalari bilan o'quv yili arafasida o'tkaziladigan an'anaviy «Talabalikka bag'ishlov» va tantanali talabalik vadasini institutimiz muzeyi oldida, ya'ni Ibn Sino va boshqa buyuk allomalar xiyobonida uyushtirish va muzey bilan tanishish, kafedra rahbarlari bilan suhbat tashkil etish maqsadga muvofiq.

4. Har bir kafedraning ishchi dasturida tibbiyot deontologiyasi masalalari amaliyoti o'z o'rnini topgan bo'lishi kerak.

5. Yilda o'tkaziladigan tibbiyot xodimlari bayramini talabalar bilan nishonlashni rejalashtirish lozim.

6. Talabalarimizni muzeylarga, san'at koshonalariga, teatrlarga olib borish va shu asnoda estetik tarbiya masalalari shunchaki ko'r-ko'rona bo'lmasligini ta'minlash zarur.

7. Har bir talaba o'qish davrida mustaqil ravishda «Tibbiyot deontologiyasi tabobatning qoni va joni» («Deontologiya dusha i mudrost vrachevaniya») mavzuida referat yozishi va unga qo'yilgan baho bitiruvchining umumiy reytingiga qo'shilishi kerak.

8. Talabalarining yilda o'tkaziladigan an'anaviy ilmiy konferensiyasida alohida mustaqil «Tabobat deontologiyasi seksiyasi» tashkil qilish va turli klinik kafedralarda tibbiyot tarixi va deontologiyasi bo'yicha tayyorlangan ilmiy ma'ruzalar shu seksiyada muhokama qilinishi maqsadga muvofiq.

9. Akademiyamizning «Tibbiyotnoma» gazetasi sahifalarida doimiy «deontologiya maktabi» rukni ostida tegishli maqolalar berib borish darkor.

10. Bitiruvchilarimizning «O'zbekiston shifokori qasamyodi»ni

jo'r ovozlilikda emas balki yakka tartibda, Ibn Sino haykali qoshida qabul qilishi kerak. Bu marosim ham institutumiz muzeyi oldida o'tkazilsa, ayni muddao bo'lardi.

«DAVRON ELINING JISMIDA HAM JON BO'LG'IL...»

AZIZ DO'STLARIM! Siz butun hayotingizni olijanob shifokorlik kasbiga bag'ishlashga ahd qildingiz. Siz tanlagan bu yo'l sharaflil va e'tiborli, lekin qiyin va mashaqqatlidir. Sizning kelajak hayotingiz-tibbiyot bilan bog'langan insonparvarlik va baxt-saodatning buyuk namunalari o'zida mujassamlashtirgan fidokorona va xolis mehnatdan iborat. Ya'ni bu sog'liqni xastalik ustidan qozongan g'alaba quvonchi, bu - qaytarilgan quyosh nuri va qutqarilgan hayotning minnatdorchiligidir. Lekin bu - xavotirli kunlar, bezovta tunlar, bu dil hayajoni va ikkilanish qayg'usi hamdir. Siz inson salomatligi va hayoti uchun hamma ishni qila oldingizmi, o'zingizni mas'uliyatli faoliyatingizda hamma vaqt qo'rqmas va beminnat mard kishi bo'lib qola olasizmi? Sizning o'z oldingizga qo'ygan maqsad sari harakatingizni hech narsa to'xtatmasligi kerak, chunki hayot yo'lingizni ongli ravishda tanlagansizki, bu yo'ldan yurishga hamma ham qodir emas...

Yosh hamkasblarim! Sizning hayotingizda amaliy vrachlik ta'limotini o'zlashtirishdek uzoq va qiyin jarayonni boshlash payti keldi. Siz klinikaga, bemor kishining murakkab va dramatik olamiga kirib kelayapsiz. Uni o'zlashtirishdagi yangi sahifani siz uchun klinika ochib beradi, siz uning ostonasini hayotingizda balki ilk bor bosib o'tmoqdasiz. Siz shu onni, ya'ni birinchi bor bemor bilan uchrashish orzusini ikki yildan buyon kutdingiz. Ushbu kun va daqiqani eslab qoling. Eng aziz va qutlug' xotiralar bilan bir qatorda shifokor bo'lib yetishishdagi mana shu bosqich boshlangan daqiqalarni ham yodingizda tuting! Bemor bilan birinchi uchrashuv shifokorlik kasbini tanlagan talabaga naqadar hayajonli on, agar shu daqiqada yuragingiz hapqirmasa, ya'ni taxikardiya bo'lmasa, unda sizlardan yaxshi shifokor chiqishi qiyin bo'ladi.

Xasta odamning ruhiyatini tushunish, uni har tomonlama tekshirish, kasalligini aniqlash, unga to'g'ri davo muolajalarini tavsiya qilish bo'lajak shifokordan tib ilmini chuqur o'rganishni, tabobat sirlarining kalitini qo'lga kiritishni, bilimdonlikni talab qiladi. Undan tashqari, bo'lajak do'xtir o'z shifokorlik burchiga, ya'ni tibbiyot deontologiyasiga, buyuk bobolarimiz Gippokrat, Ibn Sino o'gitlariga, O'zbekiston Respublikasi shifokori qasamiga sodiq bo'lishni, bemor va uning qarindosh-urug'lariga mehr-shafqatli, insonlarga xos xislatlarni, xususan, odamiylik, saxovatlilik, fidoyilik, rostgo'ylik, poklik, mardlik, xushyorlik, xushmuomalalik, farosatlilik, jonkuyarlikni o'zida mujassamlashtirishi kerak, tamagirlik, poraxo'rlik, bag'ritoshlik, loqaydlik, g'ayirlik, hasadgo'ylik kabi illatlardan butunlay xoli bo'lish esa sizning insoniy qiyofangizni belgilab beradi. Faqat yaxshi odamgina yaxshi shifokor bo'la oladi, degan edi polyak shifokori Beganski. Siz o'zingizda shifokor uchun zarur barcha odamiy sifatlar: qat'iylik va mulohazalilik, puxtalik va noziklik, qattiqqo'llik va marhamatlilik, vazminlik va hamdardlik, ulug'vorlik va oddiylikni tarbiyalash va mujassamlashtirish uchun klinikada yuksak ma'naviyat fanini o'tasiz. Sizning yuragingizdagi insonga nisbatan buyuk muhabbat hissi yo'lini hech qachon befarqlik va loqaydlik to'smasin, o'zgaralar qayg'usi va azobi hamma vaqt sizda hamdardlik va qiziqish uyg'otsin.

Ulug' bobomiz Abu Ali ibn Sino shifokorning ko'zi burgutniki kabi o'tkir, qo'llari qizning qo'llari kabi nozik, yuragi shernikidek dovyurak va aqlli ilon kabi donishmand bo'lishini ta'kidlagan. Shifokorning butun hayotini mashhur shifokor va yozuvchi Anton Pavlovich Chexov qahramonlikka tenglashtirgan. Uning tashqi va ichki ko'rinishi va dunyosi chiroyli bo'lishini va aqli donishmandlarnikidek bo'lishini istagan.

Endi ikki og'iz so'z talabalarning klinikadagi odobi haqida. Klinika - bu nafaqat davolash maskani bo'lib, bir vaqtning o'zida sizga muqaddas darsxona hamdir. Bu yerda bemorni davolash, bilim olish va ilmiy-izlanish ishlari birgalikda olib boriladi. Klinika -talabaning shifokorlik san'ati va mahoratini o'rganadigan muhim bosqich, insoniylik va ma'naviyat - vrachlikning ajralmas fazilatlarini tarbiyalash maktabidir.

- Klinikadagi talaba - faqat tarbiyalanuvchi bo'lib qolmasdan, balki shifokorning yosh hamkasbidir, unga ham katta kasbdoshlaridan talab qilinadigan qonun-qoidalar to'la-to'kisligicha taalluqlidir.

- Talaba klinikadagi ish vaqtini bemorni o'rganish, shifokorlik usullarini bilib olish, to'plangan bilim va mahoratini mehnatsevarlik, harakatchanlik, sabot, sinchkovlik, maqsad sari intilishni namoyon etgan holda chuqurlashtirish va mukammallashtirish uchun sarf qilishi zarur.

- Bemorlarning o'ta ta'sirchan va tez buziluvchan asab sistemasini ehtiyot qilgan holda, talaba klinikadagi davo-himoya tartibiga qat'li rioya qilishi zarur, talabaning bemorlar xonasida yoki klinikaning boshqa joylaridagi do'stlari, ustozlari yoki bemorlar bilan suhbatlari

tinch, osoyishta ravishda bo'lishi kerak.

- Talaba madaniyatli bo'lishi va bu xislatni boshqalarda ham tarbiyalashi lozim; xushmuomalalik, ehtiyotkorlik, andishalilik, soddadillik va kamtarinlik - faqatgina bezak bo'lib qolmasdan, balki, eng avvalo, bo'lajak vrachning zarur fazilatlaridir. Bemorlar xonasiga kirganda yoki tanish bemor bilan klinikada uchrashib qolganda, talaba ziyraklik, ochiqko'ngil va xushmuomalalik bilan salomlashib, uni salomatligidan xabardor bo'lishi kerak.

- Bemorni o'rganishda talaba uning to'shagiga o'tirmasdan bu maqsadda stul yoki taburetkadan foydalanishi lozim;

- Talaba shuni esda tutishi kerakki, u klinikada uchrashadigan bemor kishi o'zini professional malakasini oshiradigan ob'ekti emas, balki, avvalo undan yordam kutuvchi shaxs, o'rtoq va do'stdir har bir bemor talabaning o'z to'shagi yonida qilayotgan xatti-harakati zarur va foydali ekaniga to'la ishonishi lozim.

- Bemorlar bilan muloqotda talaba deontologiya tamoyillariga to'la rioya qilishi zarur; bemorga istalgan daqiqada yordam berishga tayyor bo'lishi, mehribonlik va hamdardlik hislari, burchga sodiqlik tuyg'ulari talabaning klinikadagi harakatlarini boshqarishi lozim.

So'zning buyuk kuchi va yuksak ahamiyatini doimo esda tutish zarur. So'z - bu inson xastaliklarining buyuk tabibi - tajribasiz, no'noq qo'llarda xavfli yaroqqa aylanib qolishi mumkin. Kasallik bilan kurashda so'zni o'zining do'sti va ittifoqchisiga aylantirish talabaning qutlug' burchidir.

-Talaba klinikada o'zining tashqi ko'rinishiga doimo e'tibor berishi kerak; tatbiq qilingan kasbiy kiyim formasi (toza oq xalat, sochlarni berkitib turadigan qalpoqcha va charmli yengil oyoq kiyim) talabaning kasbiy qiyofasini belgilaydi. Orasta bo'lmagan, betahorat, ozoda kiyinmagan, soch-soqoli o'sgan, tirnoqlari uzun, pardozi vositalariga haddan tashqari berilish belgilari bo'lgan va chekuvchi talabalar bemorlar va klinika xizmatchilirida o'ziga nisbatan hurmat uyg'otmaydi.

Talaba rus yozuvchisi A.P.Chexovning ushbu ajoyib so'zlarini hech qachon yoddan chiqarmasligi lozim: «Insonda hamma narsa go'zal bo'lishi kerak: ham qiyofasi, ham kiyimi, ham qalbi, ham fikri».

So'zimni O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning hech qayerda nashr etilmagan misralari bilan tugallamoqchiman:

Shifokordek ulug' zot-ku, yo'qdir dunyoda,
Sizdeklar bor, uning qadri tag'in ziyoda.

«TALABALIKKA BAG'ISHLOV» VA «KASBIY HAYOTGA YO'LLANMA»

Hiirnatli 1-kurs talabalari, assalomu alaykun!

Sizlarni, ota-onalaringizni va yaqin qarindoshlaringiza: og'ir va mashaqqatli test-sinovlardan o'tib, yuqori balga ega bo'lib, Toshkent Tibbiyot Akademiyasi talabasi degan yuksak nomga erishganingiz bilan chin qalbimdan samimiy tabriklayman.

Siz ajoyib va mashaqqatli shifokorlik kasbini ongli ravishda va e'tiqodingizga ishonib tanlagansiz, ieb o'ylayman. Sizni g'aroyib shifokorlik kasbini va tibbiyot ilmini o'rganishdek buyuk maqsad va og'ir vazifalar kutadi. Siz bugundan boshlab tibbiyotning turli fanlarini o'zlashtirishga kirishar ekansiz, o'zingizni jangga kirgan zobitdek his etishingiz lozim. Odamzot paydo bo'lgandan beri dunyoda ikki kuch o'rtasida jang bo'laveradi. Bu kurash insonlarda uchraydigan minglab kasalliklar va ularga qarshi otlangan shifokorlar o'rtasidagi jangdir. Bu jangda golib bo'lish uchun bo'lajak shifokorlar, ya'ni Sizlar, nafaqat aytilgan minglab kasalliklar nomini, balki ularning yuz minglab belgilari (simptom va sindromlar)ni aniqlash va minglab davolash usullarini qo'llashingizga to'g'ri keladi.

Bularning hammasini bilish va o'zlashtirish uchun Sizga akademiyaizning kafedralari, klinikalari, domlari yordamga shay bo'lib turishibdi. Sizdan faqat tinimsiz mutolaa, mehnat va jasorat talab qilinadi. Bugungi o'qishni ertaga qo'ymasligingiz kerak. Domlaringiz topshiriqlarini o'z vaqtida bajarishingiz lozim. O'qigan darslik yoki monografiyalar, ilmiy yoki tibbiy-ommabop risolalar, domalalardan eshitganlaringiz yoki tungi navbatchilik paytida ko'rgan, kuzatgan kasallaringiz hamma-hammasi yodingizda saqlanib qolishi darkor yoki yon daftaringizdan o'rin olishi kerak. Qani cdi agar har biringizda shaxsiy kompyuter bo'lsa (o'sha kunlarga iloyo yetkazsin), nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Barcha eshitgan, o'qigan narsalaringizyoki axborotlaringizni kompyuterga joylab borsangiz, bebaho zarrin xazina egasi bo'lar edingiz.

Yaxshi shifokor bo'lish uchun yaxshi odam bo'lish kerak, deydi donolarimiz. Odamiylik xislatlarini, burchga sodiqlik o'g'itlarini o'rgatadigan bioetika va deontologiya fani bo'lib Siz

uning tamoyillarini yaxshi o'zlashtirib olishingiz, Buqrot, Maymonid va O'zbekiston shifokorining qasamyodlariga amal qilgan holda o'qish tartibingizni joriy qilishingiz va faqat yaxshi va a'lo baholar bilan akademiyaingizni bitirishingiz shart. O'rtamiyonga o'qigan talabaga oliygohimizda joy bo'lmasligi kerak.

Siz dunyoga mashhur Tashkent Tibbiyot Akademiyasi talabasi bo'ldingiz. Endi siz a'lo o'qishingiz, odamiy fazilatlaringiz, namunaviy xulqingiz bilan oliygohimizning obro'siga o'z hissangizni qo'shishingiz, mustaqil O'zbekistonimizning haqiqiy vatanparvari, komil insoni, ziyo taratuvchi fidoiy shifokori bo'lib yetishishingiz kerak. Bu muqaddas va sharaflil yo'lni yorituvchi, ko'rsatuvchi yulduzlarimiz Buqrot va Ibn Sinolarning ruhlari madadkor hamda Alloh rahnamomiz bo'lsin!

Hurmatli yosh hamkasblarim!

Yetti yil mobaynida orziqib kutgan kun - jonajon Toshkent Davlat 2-Tibbiyot institutini muvaffaqiyatli tugatganingiz munosabati bilan Sizlarni, ota-onalaringizni, oila a'zolaringizni va yoru birodarlaringizni chin qalbidan muborakbod etaman.

Bugun Sizlar Davlat imtihonlarini qoyilmaqom qilib topshirib, Mustaqil O'zbekiston Respublikasida «hakim» (do'xtir) degan yuksak unvonga ega bo'ldingiz va bu bilan Siz buyuk xalqimizga, istiqloq yo'lida kirgan Vatanimizga kelajagi Prezidentimiz ta'birlari bilan aytilgandek, yangi buyuk davlat qurilishiga va Sizlarga intizor bemorlarga xizmat qilishga tayyor ekanligingizni namoyish etdingiz.

Siz bu yildan boshlab shahar poliklinikalarida va qishloq shifokorlik punktlarida oilaviy (umum-amaliyot) shifokorlik lavozimida ishlab, aholimiz sihatiga xizmat qilasiz. Qayerda, qaysi sohada va qanday lavozimda faoliyat ko'rsitmay, Siz endi doimo shifokorlik e'tiqodingizga, bugun tantanavor qabul qilgan O'zbekiston shifokori qasamyodiga sodiq qoli shingizga, bemorlarga mehr-shafqatli bo'lishingizga, o'qish davringizda olgan ilm va bilimlaringizni astoydil namoyish qilishingizga, o'zingizni halol, fidoiy va beg'araz mehnatingiz bilan sevikli va jonajon akademiyaingizning obro'siga putur yetkazmasligingizga, domlaringizni bergan ta'limu o'gitlarini doimo yodda tutishingizga, shifokorlik deontologiyasiga zid, nojo'ya xatti-harakatlar (qo'pollik, loqaydlik, tamagirlik, poraxorlik, nopoklik) bilan o'zbekning oq paxtasidan tikilgan oppoq xalatingizga dog' tushirmaslikka va biz domlarning yuzini yerga qaratmaslikka harakat qilasizlar, degan umiddaman.

Talabalik oltin davrlaringizni eslab yurishingiz, kursdoshlar bilan orttirilgan o'zaro do'stlik rishtalarini mustahkamlashingiz, shifokorlar an'anasiga ko'ra har 5 yilda «Alma mater» (oliy bilimgo'ingiz) qo'ynida yig'ilib, biz domlaringiz oldida ishlaringiz, faoliyatlaringiz, oilaviy baxtingiz, yutuqlaringiz haqida hisobot-axborot berishlaringizni intizorlik bilan kutamiz. Toki, biz domlalar sizlarni jafokash va mehnatkash xalqimizning sihatini, ayniqsa, onalar va bolalar salomatligini saqlashdek ulug' va ezgu faoliyatingizdan xabardor bo'lib, quvonib yuraylik.

Shuni unutmangki, haqiqiy shifokorlik hayotingiz bundan keyin ham doimo izlanishda va mustaqil o'qishda, o'rganishda bo'lishingizni taqozo etadi. «Mana bugun men shifokor diplomiga ega bo'ldim, endi bamaylixtir do'xtir bo'lib ishlayveraman», - deb o'ylasangiz juda yanglishgan bo'lasiz, chunki Sizni shifokorlikning o'ta mashaqqatli kunlari kutadi, tinimsiz bilimingizni oshirib borishga to'g'ri keladi. Hali hech kim - biror shifokor yoki olim tib ilmining tubiga yetmagan. Hatto buyuk allomamiz Shayx-ar Rays, Ibn Sino ham tibbiyotda hamma narsani o'qidim, uqdim, bildim, deb ayta olmagan. Aksincha «Bilmaganim bilganimdan ko'p» deb e'tirof etgan.

Mashhur yunon faylasufi Demosfen shifokorning hayotini «daryo oqimiga qarshi suzayotgan suzuvchiga o'xshatgan: u bir oz harakatini to'xtatsa, o'ziga dam bersa, suv oqimi uni orqaga yoki chetga surib yuboradi», degan.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining statistik axborotiga ko'ra, dunyoda har yili 8 ming tibbiy kitoblar (darslik va monografiyalar) chop etilar ekan. 6 ming davriy jaridalar (jurnal, oynomalar) va ularda 200000 dan ortiq original ilmiy maqolalar bosilar ekan. Yiliga dunyo mamlakatlari farmatsevtika sanoati klinik sinovdan o'tgan 3 mingga yaqin dori-darmonlarni shifokorlarga tavsiya etar ekan. Yaxshi mutaxassis bulardan xabardor bo'lishi kerak. Buning uchun, avvalo, o'zimizning O'zbekistonimizda oxirgi yillarda chop etilayotgan «O'zbekiston tibbiyoti jurnali»dan va boshqa yangi nashrlar - «O'zbekiston vrachlari Assotsiatsiyasining Axboroti», «Patologiya», «Teri-tanosil kasalliklari axboroti», «Nevrologiya», «Pulmonologiya va fiziatriya», «Akusherlik va ginekologiya», «Markaziy Osiyo tibbiy jurnali», «Hamshira» jurnali, «Oila shifokori» gazetasi va boshqa turli sohaviy to'plamlarni muntazam o'qib borishingiz, O'zbekistonda va chet ellarda o'tkazilayotgan ko'pdan-ko'p anjumanlar (konferensiya, simpozium, seminarlar)da faol qatnashish imkoniyatini qidirishingiz shart. Bu

bilan Siz bilim zahirangizni to'ldirib borsangiz, bemorlar, xalqimiz va domlalarimiz oldida baobro', el sevgan shifokor sifatida tanilasiz. Aziz yosh hamkasblarim! Sizlarga oq yo'l va oq fotiha berib, mashaqqatli va sharaflilik faoliyatingizda Alloh rahnamo bo'lsin, Ibn Sino yulduzi yo'lingizni doimo yoritib tursin, akademiyamiz bog'ida haykallari o'rnatilgan, xalqimizning dunyo tanigan buyuk ajdodlari va allomalari Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ar-Roziy, Jurjoniy, Masixiy, Iloqiy, Umidova, Asqarov, Otaxonov, Zohidov ruhlari doimo qo'llasin, insho'lloh, deb xitob qilishga ruxsat etgaysizlar!

QASAMYODGA SODIQ BO'LAYLIK

Mana, jumhuriyat shifokorlarining 1-qurultoyi o'tganiga ham ancha bo'ldi. Vaqt yildirim kabi tez o'tayapti. Odamlar mehnat qilmoqda, izlanmoqda, yaratmoqda. Biz anjumanda qancha kam-ko'stlarni kuyinib gapirdik. Shifokorga xos bo'lmagan toshbag'irlik sabablarini axtardik, illatlardan qutulish yo'llarini izladik.

Men ma'ruzalarni e'tibor bilan eshitar ekanman, hamkasblarimiz dilida yig'ilib qolgan fikrlar tubida ulkan og'uqlar yotganini his qildim. S'ezddan keyin ham, hozirda ham bu masalalar, aminmanki, egniga umid bilan oq xalat kiygan har bir hakim hukamoni, do'xtiru shifokorni tark etmaganligi aniq. Ana shu holat bois, anjumandagi mulohazalarim va hozirdagi o'ylarimni umumlashtirib, hamkasblar bilan fikrlashishni lozim topdim.

Darhaqiqat, shifokorlarimiz orasida e'tiqodsiz, o'z kasbiga loqayd qaraydigan, o'z burchi va qasamiga xiyonat qiladigan, bilim va odob darajasi cheklangan, foydasidan zarari ko'proq, tibbiyot olamiga adashib kirib qolgan "shifokor"lar ham yo'q emas. Kelajakda jamiyatimiz shunday «shifokor»lardan xoli bo'lishi uchun nima qilish kerak?

«Yaxshi shifokor bo'lish uchun yaxshi odam bo'lish kerak» degan mashhur-polyak shifokori Beganski. Menimcha, bo'lajak shifokor asosan oilada shakllanadi. Agar u shifokor oilasi bo'lsa nur ustiga nur. Nevaramning (o'g'lim ham, kelinim ham shifokor) yaqindagina tili chiqdi. Undan: «Sherzod, katta bo'lganingda kim bo'lmoqchisan?» deb so'rasak, «Do'xtir bo'laman» deb javob beradi. «Doxtir bo'lib nima qilasan?», «Kasallarga ukol qilaman», «Ukolni

114

nima bilan qilasan», «Nina bilan», «Qanday nina bilan?» deb so'rasangiz, «Razoviy nina bilan» deb javob qaytaradi.

Xo'sh, endi tasavvur qilaylik, bunday oilada o'sgan bola balog'at yoshigacha tibbiyot haqida boshlang'ich tasavvurga ega bo'lishi tabiiy. Lekin 15 yildan so'ng Sherzod tibbiy oliygohga kira oladimi, yo'qmi? Agar kira olsa, shifokor avlodining 3 bo'g'ini sifatida u yaxshi do'xtir bo'la oladimi? Yaxshi do'xtir bo'lish uchun nasl-nasabining ahamiyati bormi? Bunga ijobiy javob berish kerak. Azaldan Sharqda tabibning bolasi tabiblik qilgan. Bu kasb otadan bolaga meros, qolaversa, Allohning inoyati sifatida o'tib kelgan. Ko'p bolali tabibning kasbi agar uning besh-oltita bolasi bolsa, shulardan biriga o'tgan. Ya'ni ota tabib iqtidorliroq farzandiga ko'proq e'tibor berib, kasbini uning ruhiga singdirib borgan. Ota olamdan o'tgach, shu farzand ota ishini davom ettirmasa kasal bo'lgan. Ya'ni otaning «odam»lari uni tinch qo'ymaydi. Demak, yaxshi tabib bo'lishda faqat xohish emas, kelib chiqish ham ahamiyatli ekan. Yunonistondagi o'n sakkizinchi shifokorlar (Asklepiylar) avlodi Buqrot (Gippokratdek) allomaning dunyoga kelishidan ham ma'lumki, tabiblik qadimdan sulola sifatida davom qilishi bejiz emas, albatta.

Masalan, eski shahar bozori yaqinida istiqomat qilgan mashhur bolalar do'xtiri professor Aziz Maqsudovni hamma tanir edi. Aziz akadan shifo topganlar bolalari kasal bo'lsa, uning o'g'li do'xtir Anvar aka Maqsudovdan najot axtarishadi. U kishi hozir ota kasbini ulug'lab kelyapti.

Tibetda tabobatni mashhur shifokorlar avlodi boshqaradi. Eng oliy unvon - lama shifokor unvoniga ega bo'lish uchun faqat aqli, zakovat, bilim va tajriba yetarli emas. U kamida 14 shifokor avlodining nasabiga mansub shaxs bo'lishi ham kerak ekan.

Ikkinchi masala, talabalarga chuqur bilim berishdan tashqari, ularda insoniylik fazilatlarini tarbiyalash, shifokor odobi darslari mukammallashtirish muhim bo'lsa-da, amalda bu sohaga, ya'ni shifokorlik deontologiyasiga yetarli ahamiyat bermaymiz. Deontologiya bu tabobatlik san'atini, shifokorlik odobini, burchini, o'z kasbiga sodiqlikni, odamiylikni o'rgatadigan fandır. Afsuski, o'qilish dasturlarimizda deontologiya fani uchun maxsus soatlar ajratilgan emas. Shifokorlik faoliyatimizda uchrab turadigan salbiy nuqsonlarning qusuri ayrim tabobat ahllarining shifokor odobidan bexabarligi, o'z kasbining o'ta mas'uliyatligini tushuna bilmaganliklaridadir.

Ma'lumki, turli kasblardan farqli o'laroq faqat bizning hamkasblarimiz o'z shifokorlik burchini sidqidildan ado etishga qasam ichadilar. Lekin to'g'risini aytganda, hammamiz ham shu qasamyodni yod bilamizmi? Shifokorlarimizga shifokor qasamini ichirish marosimi to'g'ri tashkil qilinganmi?

Hozirgacha jo'r ovoz qasamyod etish o'rniga har bir bitiruvchi shifokor yakka tartibda o'z domlari, sog'liqni saqlash vazirligining vakili oldida xuddi imtihon bergandek qasamni yoddan aytishi va shundan so'ng uning diplomida shifokorlik qasamyodini qabul qilgan kuni yozilgan qo'shimcha dastxat boiishi lozim. Xullas, shifokor oliygohda odob malakasini ham egallashi, bu fazilat bilim sifatida baholanishi zarur. Buning uchun har bir tibbiyot oliy bilimgo'hida deontologik tarbiyaviy ishlarimizni turli-tuman shakllarini muvofiq tarzda odob fanlari bilan qo'shib olib boradigan «shifokor deontologiyasi» kafedrasini yoki juda bo'lmasa, kurs ochilishi dolzarb masaladir. Agar taklifim ma'qullangudek bo'lsa, sinov Toshkent Davlat 2-tibbiyot oliy bilimgo'hida tajriba etilishini istar edim.

Uchinchi masala, o'zligimizni anglash - tibbiyot tarixi, sharq tabobatidan boxabarlik haqida. Afsuski, bizning ko'chma ma'nodagi «soqov-ko'rligimiz» arab imlosida yozilgan ajdodlarimizning nodir tibbiy asarlarini o'qib o'rganishga xalaqit berayapti. Shunday bo'lsa ham tilshunos va sharqshunos olimlarimizning holi qudrat riyozati mahsuli bo'lgan tarjimalarini o'qib, tabiblarimizning tabobatchilikdagi bilim va san'atlariga lol bo'lib, qoyil qolasan, tasanno o'qiysan kishi. Masalan, biz shu kungacha talabalarimizga shifoxonalarda bemorning kasallik tarixini yozilishini rus vrachi va olimi, terapevt M.Ya.Mudrov (XIX asr boshlari) tomonidan joriy qilingan, deb o'qitib kelamiz. Holbuki, bu ishni M.Ya.Mudrovdan qariyb 1000 yil avval sharqning ulug' allomasi va hakimi Muhammad Zakariyo ar-Roziy boshlagan. Ulug' olimning o'zbek tiliga tarjima qilingan «Ar-Roziy va uning shogirdi yozib qoldirgan «Kasalliklar tarixi» degan risolasida 799 ta bemorning kasallik bayoni chuqur tahlil qilingan.

O'tmishimiz tarixini bilishga intilishimiz kechmishning yangi-yangi qirralarini ochayotganligi quvonarli holdir. Bunga yana bir misol. Ma'lumki, qadimdan tibbiyotni va tabobatni aks ettiradigan turli ramziy timsollar mavjud. Shulardan biri, yonib atrofga nur tarqatadigan shamdir. Unga XVII asrda yashagan mashhur golland vrachi Van Tyulp «Yonib o'zgalarga nur tarqataman» degan naqlni aytgan. Lekin Van Tyulpdan taxminan 300 yil burun yashagan hazrat Abdurahmon Jomiyning bu borada ziyoli tabibga qarata aytgan she'riy naqlini keltiraman.

Shamdek bo'l, shamni ko'r,
Kuyib qalbu tan
O'zgalalar dilini qiladi ravshan.

Shamdek kuysa ham o'zgalalar dilini ravshan qilish baxtiga muyassar bo'lmoq haqiqiy shifokor qismati ekan, bu mas'uliyatni anglab yetmay shifokorlikka da'vogar bo'lishga haqqimiz yo'q.

SHIFOKOR QASAMYODI HAQIDA

Hozirgi zamon tib ta'limotida shifokorlik bioetikasi va deontologiyasi alohida o'rin tutadi. Bu fanni shifokorlar faqatgina mehr, g'oyaviy ishonch bilan o'rganishdan tashqari, uning turli tamoyillarini o'z qonlariga singdirishlari zarur.

Deontologiya chin odamiylikning shunday bir mahsuliki, unda shifokorning kasb mahoratigina shakllanmasdan, iymoni, ongi, burchga sadoqati ham takomil topadi.

O'zbekiston tibbiyot oliygohlarida deontologik tarbiyaning asosiy o'zagini asrlar bo'yi sinovdan o'tgan shifokorning ruhiyati ramzi-shifokorlar qasamyodi tashkil qilishi shart.

Buyruqbozlik, ikkiyuzlamachilik, iymonsizlik avj olgan mustabid tuzumida boshqa insoniy fazilatlar kabi shifokor qasamyodi ham o'z mohiyatini yo'qotish darajasiga yetgandi. Shu boisdan ba'zi bir bemorga mehrsiz, ilmiga amal qilmaydigan, shifokorlikni shunchaki kun kechirish vositasiga aylantirgan iste'dodsiz, insof-diyonatni unutgan kimsalar paydo bo'lib, tibbiyotdan odamlar e'tiqodini qaytarib yuborishgan edi.

Odamlar ongida chuqur ma'naviy o'zgarishlar yuz berayotgan, qadriyatlarimiz qayta tiklanayotgan bugungi kunda olijanob kasb egalari bo'lmish shifokorlar qasamyodi ham o'zgacha b'r ma'no kasb etishi tabiiy, bunga zarurat ham tug'ilib qoldi.

Biz uchun eng muhimi tibbiyotdagi tarixiy qadriyatlarimizni davom ettirish, ularni bugungi

ilmiy taraqqiyot an'analari bilan uzviy bog'lab boyitishdan iborat. Aslini olganda, Gippokrat deontologiyasining rivojlanishi ma'naviy jihatdan o'rta Osiyo xalqlarining madaniyati bilan uzviy bog'liq. Nemis olimi S.Shtraxmayer (1973)ning ma'lumotlariga ko'ra, arab xalifaligida barcha shifokorlar uchun Gippokrat qasami majburiy bo'lgan. Biroq, arab tilida keng tarqalgan bu qasamyodda yunon tilidagi asl nusxadan chekinilgan. Mashhur musulmon fan arbobi, Buqrot qasamyodining tarjimoni Xurayin ibn Ishaqning e'tirof etishicha qasamyod qayta chuqur ishlanib, xristian-nestorian gumanizmi shaklini olganini ta'kidlaydi.

O'rta asrlarda arab dunyosida shifokorlar burchi va axloqini belgilovchi Maymonid qasamyodi mashhur bo'lgan. Bu qasamyodda hakimlar va tabiblar burchi, odobi va mas'uliyati borasida qimmatli fikrlar aytilgan. Xususan, shifokorlarni boy va kambag'al, do'st va dushman, pok va gunohkor bandalarga birday xizmat qilishga: o'z ustida doimo ishlab, bilimlarini chuqurlashtirishga da'vat etilgan.

«Maymonid qasamyodi» tibbiyot deontologiyasi asosini tushunishda muhim qadam edi. Shuning uchun uning g'oyaviy mohiyati O'zbekiston shifokorlarining yangi qasamyodining asosiy manbai bo'lishi tabiiydir. Shu bilan birga, qasamyodni yangidan tuzayotganda, biz tibbiyot deontologiyasining avvalgi manbaiga ham, yana hammadan oldin «yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ish» nomli mashhur uchlikni o'z ichiga olgan Sharqning muqaddas kitobi - «Avesto»ga ham murojaat qildik. Oxirgi manbalardan esa «Rus tib xodimlarining kulliyot va'dalari» va fransuz talabalari qasamyodidan ham foydalandik.

Deontologik asoslarga muhim qo'shimchalardan shunday hujjatlar kiritildiki, unda so 'nggi o'n yilarda paydo bo lgan asosiy muammo -bemorda tajriba o 'tkazish mumkin bo 'Imagani ko 'rsatildi.

Biz tomonimizdan yangi tuzilgan O'zbekiston shifokorlik qasamyodi asosida odob ruhi - ahillik va mehr-oqibat bilan hayot kechirish haqidagi ta'limot yotadi.

MEHR CHASHMASI

Inson - tirik tabiatning tojdori. Binobarin, odamiylik, mehr-shafqat, muhabbat, o'zgalar baxtidan quvonish, baxtsizlik yuz berganda yurakdan achinish, hamdardlik bilidirish, tasalli berish, ko'ngil ko'tarish faqat oliy fazilatli insongagina xos bo'lgan xislatlardir.

Ilmiy tibbiyot asoschisi Buqrot har bir shifokor o'z kasbiga so'nggi damgacha sodiq qolishi uchun qasamyod qilmog'i darkor, deya ta'kidlagan bo'lsa, mashhur rus terapevti Maksim Petrovich Konchalovskiy «Iste'dodsiz rassom, qobiliyatsiz aktyor bo'lish mumkin, ammo yomon shifokor bo'Lsh mumkin emas, bu - jinoyat», degan edi.

Inson umriga tahdid qilayotgan turli-tuman kasaliiklarni batamom tugatish, yurak va o'pka xastaliklariga davo topish, yurak, buyrak, hatto jigarni ko'chirib o'tkazish itransplantatsiya) muammolarini muvafaqiyatli hal etish, odam irsiyati jumboqlarini ildam va ijobiy hal etish kabi g'oyat katta mas'uliyat fidoyi shifokorlar zimmasida.

Ayni paytda shuni ham unutmangki, ko'p hollarda tabibning dori-darmonidan ko'ra, bir og'iz shirin so'zi bemorning shifo topishiga ko'proq ko'mak beradi. Negaki, shifo topish bemorning o'zini qanday his qilishi bilan chambarchas bog'liq.

Agar siz rassomning o'zi chizayotgan rasmiga bo'lgan mehrini, tabibning o'zi davolayotgan bemorga nisbatan mehri bilan taqqoslasangiz va diqqat qilsangiz, haqiqiy shifokor bilan soxta shifokorning farqini bilib olasiz. Biz ham ana shu tabibning tabibliгинi ko'rsatib turadigan jihati- uning bemorlarga munosabati haqida bir oz to'xtalmoqchimiz.

Shifoxonaga kelgan bemor (umuman har bir inson) o'zining ichki ruhiyatidan kelib chiqib, atrofda gilardan, aniqrog'i, shifokor va hamshiralardan, xullas har bir kishidan mehr-shafqat kutadi. Bemorga ayniqsa, hakim (shifokor)ning munosabati kuchliroq ta'sir qiladi.

Mudrovning shifokorlarga qarata aytgan gapini eslaylik: «Shuni unutmangki, siz bemorni tekshirayotgan chog'ingizda u ham sizni o'rganadi, kuzatadi».

Darhaqiqat, e'tiborga, bir og'iz shirin so'zga tashna bemor o'zi bilan suhbat boshlagan shifokorning ko'rinishi, nigohi, chehrasi, tovush ohangi, suhbatni mazmunli boshqara bilishiga qarab, unga baho beradi. Agar muloqotimizning birinchi daqiqalaridayoq biz bemorga ochiq chehra bilan yuzlanib, uning ko'nglini ochguvchi so'zlar bilan murojaat etib, unda tez tuzalishiga ishonch hosil qila olsak, qisqasi, so'z san'atkorligi orqali o'z shifokorlik kasbimizga, o'zimizga maftun eta olsak, bu davolash jarayonini boshlashdagi birinchi yutug'imiz bo'ladi.

Taassuflar bo'lsinkim, keyingi paytlarda faqat shifokorlardagina emas, umuman ko'pchilik o'rtasidan mehr-oqibat, odamiylik, olijanoblik, insonparvarlik his-tuyg'ulari ko'tarilib boryapti. Bu holat ayniqsa, shifoxonalarda davolanayotgan ba'zi bir mushtipar onaxonlarimiz va aziz

otaxonlarimizning qarovsiz, e'tiborsiz qolayotganliklarida ko'rinadi. Bu ajdodlarimizga xos bo'lmagan bir qabihlikdir. Bu illatning mumkin qadar tezroq oldini olmoq lozim.

«Qarisi bor uyning parisi bor», deydi dono xalqimiz. Shuning uchun ham «Dam g'animat, diydor g'animat» o'g'itini unutmagan holda birog'iz shirin so'zga maxtal bo'lib yotgan bemor ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar ko'nglini ovlashga o'z vaqtida ulgurishimiz kerakki. keyinchalik tag'in yoshi ulug'larning:

Men ham edim seningdek,

Sen ham bo'larsan meningdek.

Yoki

Och holini to'q bilmas,

Kasal holini sog'.

kabi hikmatlarini eslab, xijolat tortmaylik...

«Odam yaxshilik qilishni yerdan topib olmaydi, odamlardan o'rganadi», deydi Chingiz Aytmatov. Birov uchun qayg'urish, o'zganing tashvishini o'z tashvishidek his qilish, birovning g'amiga sherik bo'la bilish bu barchaning insoniy burchidir. «Azaga yoki xasta odamni ko'rgani borgan kishilarga borganidan qaytguncha boshidan obi rahmat suvi tomib turadi», deydilar momolarimiz. Yana shu o'rinda bemor va xastalarni yo'qlash, eslash haqidagi Muhammad alayhissalomning hadislaridan esga olishni joiz topdik.

- Ochlarga ovqat bering, bemorlarni borib ko'ring va hojatmandning hojatini chiqaring.

- Mo'minlarning bir-birlarida oltita haqlari bor: salom berish, chaqirsa borish, maslahat so'rsa - berish, aksirsa javob aytish, kasal bo'lsa - borib ko'rish, o'lsa - borib dafnda qatnashish.

- Bemorni ko'rib kelish uchun yo'lda kelayotgan odam o'zini jannat bog'larida yuribman. deb hisoblayversin.

- Ikki ne'mat borki, ko'p odamlar unga yetisha olmay hasrat qiladilar, biri - tani sog'liq, ikkinchisi - xotirjamlik.

- Kimki boshiga musibat tushgan odamdan hol so'rab, ta'ziya bildirsa, o'sha musibati odamga berilgan savob miqdoridagi savobga ega bo'ladi.

- Xayri-ehsonni bechora holga berishlik sadaqa hisoblansa, uni qarindoshga berishlik ham sadaqa, ham muruvvatdir.

Keyingi vaqtlarda jumhuriyatimizda betoblar, shikastlanganlar, yetimlar, urushdan nogiron bo'lib keiganlar, hech kimi yo'q, qarigan chog'larida yakka qolgan qariyalarimiz taqdirlarini o'yiab, juda yaxshi xayrli ishlar qilinyapti. Hatto 2002 yil Qariyalarni qadrlash yili, deb Prezidentimiz tomonidan e'lon qilindi. Teleko'rsatuvlar orqali berilgan «Navro'z telemarafoni» va «Hayot quvonchlari va tashvishiari» ko'rsatuvlarida tasvirlangan qariyalar uylaridagi manzaralar, o'z davrida azizu mukarram bo'lib yurgan ota va onaxonlarimiz ko'rinishlarining (juda yaxshi yaratib qo'yilgan sharoitlarga qaramay) naqadar ayanchliligi har qanday insonning eng nozik dil pardalarini titratib, beixtiyor ko'zlaridan yosh qalqitmay qo'ymaydi.

O'zbek xalqi asrlar mobaynida o'ta mehnatkash, odamshinavanda, mehmondo'st, mehribon, oqilu dono bo'lib shuhrat topgan va hech kimdan o'z mehr-shafqatini ayamagan. Biz shifokorlar xalqimizning asl farzandi sifatida bunday yaxshi udumlarga sodiq qolsak, o'zgalarni o'z mehr chashmamizdan qondira olsak, juda soz bo'larmidi?!

Inson bilan tirikdir inson,

Muhabbatda hayotning boshi,

Odamzodga baxsh etadi jon

Odamlarning mehr quyoshi.

«Oq nilufarlar kabi...»

Yuqoridagi to'rtlikni mutolaa qilarekanman, bu misralar go'yo hurmatli domlamiz E.Y. Qosimovga atalgandek. Eslayman. 3-kursga qadam qo'ygan yilimiz hayotimizdagi eng hayajonli, eng unutilmas damlar edi. Chunki biz bemor bilan birinchi bor shifokor sifatida muloqotda bo'ldik. Bizga bemor bilan so'zlashuv-muloqot san'ati, ular xastaliklarining tashxis yo'llarini aziz va muhtaram ustozim, ichki kasalliklar kafedrasining dotsenti (hozirda professori) Qosimov Erkin Yo'ldoshevichdan o'rgandik. Aziz talabalar, men sizlarga bugungi kunda ustozingizning eng noyob, yaxshi fazilatlarini o'zingizda mujassamlashtirishingiz tarafdoriman, chunki faqatgina shu nodir inson E.Y. Qosimov tufayli tabobat, san'at, odamiylik, chin insoniylik sir-asrorlaridan voqif bo'ldim. Bu inson shunday ekanlarki, uyar o'z shogirdlarining eng nozik, eng serjilva qirralarigacha bilib, hayotga to'g'ri yo'naltirar ekanlar. Ular tabobat ilmini chuqur bilish bilan birga san'atini sevishimizni, tinimsiz adabiyotlar mutolaa qilishimizni talab etardilar. Bir kuni men bemorni tekshirish usullari bo'yicha javob berayotgan edim, domla: «Qani starosta, shu kunlarda qanday badiiy adabiyot o'qiyapsiz, qaysi teatrlarga borib turibsiz?» deb so'rab qoldilar. Men hayajonlanib, javob qaytara olmay qoldim.

Endi bilsam, ustozlar qorong'ilikdagi shamchiroqdek avvaldan yolimizni yoritar ekanlar.

Ustozimiz Erkin Qosimov o'sha davrdayoq yetuk shifokorning quyidagi fazilatlarini bizga sanab o'tgan edilar: bilimdonlik, oqillik, o'z kasbining mohir ustasi bo'lish, odillik, halollik, ziyraklik, xushmuomalalik, sofdillik, xayrixohlik, hozirjavoblilik, bosiqlik, nokizalik, sinchkovlik.

Ustoz E.Y. Qosimov ajdodlarimiz singari tom ma'noda ziyolidir. Domlamiz nafaqat tibbiyot ahllari o'rtasida, balki adabiyot va san'at namoyondalari o'rtasida ham katta hurmat va mehrga sazovor bo'lganlar. O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning quyidagi misralari fikrimizning dalilidir:

DOMLA ERKIN QOSIMOVGA

Ajoyib shahri Toshkentda shifokor domla Erkinsiz,

Behad hurmat, muhabbatga sazovor domla Erkinsiz.

Nazokat, lutfu ehson birla elda topdingiz hurmat,

Hamisha do'stu yorga do'st, vafodor domla Erkinsiz.

Ajabmas ahli tibdan xulqu odob izlagan Sino

Rizoman, deb ko'rinsa Sizga oshkor, domla Erkinsiz.

Demishlar bolari ham tuhfa aylar nina birlan bol.

Baayni qo'lda shprints, dilda ash'or domla Erkinsiz.

Birovga yaxshilik qilgan gohi ozor chekkaydir,

Ozor ko'rmang degayman hech, beozor domla Erkinsiz.

Bu davronda mudom yayrab yashab yurmay saodat kim

Saodatga bo'ling doim shaydor, domla Erkinsiz.

Ijod aylar tag'in xushnud shifo topgan Abdullo,

Yurak mehrin g'azal etdi, sababkor domla Erkinsiz...

YUNON VRACHLAR- SULOLASINING 18-AVLODI

Gippokrat Yunoniston (Gretsiya)ning Kos orolida tug'ilib, o'sha yerda mashhur Kos tibbiyoti maktabiga asos solgan. Otasi otasining otasi kabi vrach bo'lgan. Gippokrat shifokor sifatida Gippokratlar sulolasining 18-avlodidir. Bu narsa «ona suti bilan kirgan»dek gap bo'lib, u zamonlarda aksincha bo'lishi ham mumkin emas edi. U otasidan «boshlang'ich» bilim olib, Yevropa bo'ylab sayohat qilganida, ko'p shifokorlar tajribasini o'zlashtirgan. Sharq

mamlakatlarida ham bo'lib, Sharq tabobatini ham yaxshi o'rgangan.

Gippokrat Perika boshqaruvi zamonida tug'ilgan bo'lib, bu davr Demokrit, Fidiy, Sofokl, Yevropid, Gerodotlar eng gullab-yashnab ijod qilgan davrdir. Shuning uchun uning tibbiy bilimi mustahkam falsafiy asosga ega bo'lib, o'z g'oyalarini adabiyot va san'atning mumtoz namunalari bilan bog'lagan.

Odamlar shu oila vakillari tomonidan yaratilgan 72 tibbiy ilmiy ishni Gippokratga tegishli deb hisoblashgan. Lekin Gippokratning mustaqil ishlari soni atigi 20 ta edi.

Gippokratning tibbiyot oldidagi buyuk xizmatlari nimalarda ko'rinadi? U vrachlardan birinchi bo'lib buyuk kuzatuvchilik va mantiqiy iqtidorini namoyon qilgan, ya'ni kasallik negizini aniqlagach, uning kechish jarayonini oldindan ko'ra bilgan. Gippokrat ilk bor tibbiyot nazariyasini uning amaliyoti bilan bog'lagan. Shuningdek, inson salomatligi atrof-muhit holatiga va bemorning shaxsiy xususiyatlariga, hayot sharoitlariga va yoshiga bog'liqligini ta'kidlagan. Birinchi marta *Gippokrat bemorni davolaah uchun parhez buyurish kerakligini kor satgan, kasallikni nafaqat davolash, balki uning yuzaga kelishi oldini olish g'oyasini ilgai surib. shu bilan kasalliklar profilaktikasiga asos solgan.*

Gippokrat - amaliyotda birinchi bo'lib bemorda eshitish, to 'qillatish, paypaslash usullarini qo llagan genial shifokor, jarrohiy asboblar bilan ustalik bilan ishlagan o 'ziga xos belakror jarroh. U odam harakat a'zolari tizimi - suyaklar, bo'g'imlar, boylamlar, mushaklarni yaxshi bilganligiga shubha yo'q. Surtma dorilardan foydalangan, bog'lamlar qo'ygan va shuning uchun tan jarohati xastalıkları, suyak, bo'g'im chiqishlari, siniqlarni yaxshi davolagan. Bularning hammasi Gippokratning ko'p janglarda shifokor sifatida qatnashganligidan dalolat beradi.

U shifokorlardan birinchi bo'lib haqiqiy shuhrat mazasini tatib ko'rdi. Shifokorlar o'z kasbiy qasamyodini «Gippokrat qasamyodi» deb atashganligiga hayron bo'lish kerak emas.

Gippokrat o'zidan oldin yig'ilgan xalq tabobati tajribalarini umumlashtirgan va shifokorning bemor to'shagi yonida o'zini tutishi qonun-qoidalarining dastlabki ilmiy asoslarini yaratgan.

Minglab shifokor avlodlari o'rganib va bajarib kelgan Gippokrat qasamyodida shifokorlik faoliyatining asosiy axloqiy - etik tamoyillari mujassamlashgan. Unda aniq ravishda shifokorning professional burchi chizgilari keltirilgan. Shu jumladan, bemor odamga uning kim bo'lishidan qat'i nazar beg'araz, samimiy va halol xizmat qilishi kasalga har qanday zarar keltirishdan o'zini tiyishi, xastalik sirini oshkor etmaslik, ta'magirlik, befarqlik, loqaydlik illatlaridan xoli bo'lish kabi sifatlar talab qilinadi. O'tkir faylasuf Gippokrat shifokorning axloqiy-etika sifatlarini yuqori baholagan va «bemorga zarar yetkazmaslik» uchun «me'yor hissi»ga ega bo'lishga chorlagan.

Gippokrat qasamyodi vaqt o'tishi bilan o'z haqqoniyligini ko'rsatdi va uning tarbiyaviy jihatlari hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Uning terapiyasi «ziddini ziddi bilan» davolashdan kelib chiqqan. Bu - mehnatdan keyin dan olish, dam olishdan keyin esa mehnat bo'lishi kerak, demakdir.

Gippokrat kasallik bilan kurashda bemor tabiatini, uning «fizis»ini inobatga olishni o'rgangan, organizmning tibbiy talablarini stimmullash muhimligini ta'kidlagan. U omilga tayangan mistikaga emas, faqat bilim va amaliyotdan kelib chiqardi. U zamondoshlariga dahshat solgan epilepsiya (tutqanoq kasalligi)ni samarali ravishda o'rgandi. Bu kasallikni davolash haqida u «Illohiy kasallik to'g'risida» degan ilmiy ish yozib, bu kasallik ilohiy tabiatga ega emasligini ta'kidlagan.

Gippokrat o'sha zamon uchun progressiv bo'lgan gumoral nazariyaning (lotincha «gumor» - namlik) muallifi bo'lib, uning asosiga 4 falsafiy stixiya - olov, tuproq, havo va suvni qo'yib, ular bilan organizmning 4 asosiy suyuqligini bog'lagan. Uning fikricha, olovga safro, tuproqqa qora o't, havoga qon, suvga shilliq (flegma) mos keladi: safro jigar tomonidan, qora o't taloq tomonidan, qon yurak ishi natijasida, shilliq (flegma) odam miyasi tomonidan ishlab chiqariladi. Boshlanishda bu suyuqlik spermadan hosil bo'ladi va oziq-ovqat, suyuqliklar bilan quvvatlanib, shu tufayli organizmda hamma fiziologik jarayonlar kechishi ta'minlanadi, deb hisoblagan.

Shuning uchun Gippokrat to'g'ri ovqatlanishga katta e'tibor bergan. Odam sog' bo'lganida 4 suyuqlik muvozanatda bo'ladi, kasallansa, suyuqliklardan biri ortiqcha miqdorda bo'ladi. Shu taxminlar asosida keyinchalik Gippokratda 4 psixotip yoki odam mizojlari haqida ajoyib g'oya tug'ildi. Agar organizmda qon ko'p bo'lsa - inson sangvinik xarakteriga, safro ko'p bo'lsa - xolerik xarakteriga ega bo'ladi; organizmda qora o't ko'proq bo'lsa - odam melanxolik, shilliq ko'p bo'lsa - flegmatik bo'lishi mumkin.

Kasalliklar profilaktikasi va ularni davolashda Gippokrat astrologiyadan kelib chiqardi, o'zining «Oldindan aytilish haqida», «Aforizmlar» degan asarlarida u astrologiyani va bemor

goroskopini bilmagan shifokorning davolashga haqqi yo'q, deb ta'kidlagan.

Oradan ming yil o'tgach, Gippokratning bemorlarni yil faslini, iqlimining o'ziga xosligini, tuproq va suv holatini, bemorning hayot sharoitlari va yoshini inobatga olib davolash haqidagi g'oyasini «Paramirum» yaratuvchisi, mashhur Paratsels samarali ravishda davom ettirdi.

Garchi Gippokrat zamoni allaqachon o'tib ketgan bo'lsa-da, lekin buyuk shifokor tavsiyalari bugun ham ahamiyatini yo'qotmadi, balki yanada dolzarb bo'lib qoldi.

TIBBIY TIMSOLLAR

«Kosa ustiga egilgan ilon», «Yonib turgan sham». Bular shunchaki badiiy tasvir bo'lmay, donishmandlik va insonparvarlik timsoli sifatida ming yillardan beri e'zozlanib, avloddan-avlodga o'tib keladi. Qolaversa, har ikki tasvir jahon xalqlari ongida insonga tani-sog'liq, xushkayfiyat va bardamlik hadya etuvchi tibbiy timsollar sifatida singib ketgan.

Azaldan Sharqning rivojlangan madaniy markazi bo'lmish O'rta Osiyoda ham qadimgi Yunonistondagi singari tabobat, tibbiyot ravnaq topgan bo'lib, kosa ustiga egilgan ilon timsoli shu mintaqada yashagan xalqlar uchun taxminan miloddan avvalgi XIII asrdan beri qahramonlik, olijanoblik, sadoqat va muhabbat ramzi sifatida e'zozlanib kelinadi.

Keyinchalik tibbiyotning jahoniy timsoliga aylangan yuqoridagi tasvir o'ziga xos hududiy va mintaqaviylik tufayli zamonlar o'tishi bilan ham shaklan, ham mazmunan o'zgarib borgan. Biroq ramzlarda ilon tasviri saqlanib qolavergan.

Shuni ham ta'kidlash joizki, qadimgi Yunonistonda tibbiyot xudosi hisoblangan Asklepiy va uning qizi Gigiyca nomlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan ilon tasviri hozirgidek kosaga egilgan holda emas, donishmandning hassasiga o'ralgan holda bo'lgan.

Ilon tasviri bor timsollar Vavilonning tabobat xudosi Niggizzidi nomi bilan ham bog'liq. 1877 yilda Iroq hududidagi ko'hna tepani (qadimgi Tello) qazish chog'ida eramizdan avvalgi XIII asrga oid tabobat xudosi tasvirlangan noyob yodgorlik - bir-biriga chirmashib, daraxt ustiga chiqayotgan ikki ilon tasviri topilgan. Qolaversa, ilon O'rta Osiyoda azal-azaldan donishmandlik timsoli bo'lib, hatto Sharq xalqlarining muqaddas kitobi «Avesto» afsonalarida ham unga keng o'rin berilgan. Shuningdek, ko'hna Sharq payg'ambarlaridan bolmish Zardo'shtning falsafiy qarashlari va she'riy bitiklarida ham (taxminan eramizdan avvalgi X asrda) ilon tasvirini ko'ramiz.

Afsuslanadigan joyi shundaki, Yunonistondagi tibbiy timsollar paydo bo'lishi va shakllanishida O'rta Osiyoning tibbiy timsollari ijobiy rol o'ynaganligi, demakki, bizning avlod-ajdodlarimiz dunyo madaniyatiga qolaversa, tibbiyoti taraqqiyotiga munosib ulush qo'shganligi haqidagi tarixiy haqiqatni isbotlovchi to'la dalillarga ega emasmiz. Biroq Sharq falsafasi va madaniyati Pifagor maktabini o'tgan qadimgi yunon mutafakkirlarining dunyoqarashi ravnaqiga ijobiy ta'sirini isbotlovchi bir qadar bilvosita dalillar bor. Bunga, avvalo, Luqmoni hakim Alkmenon Krotonskiy)dek buyuk faylasuf-shifokorning hayot yo'li yorqin dalil hisoblanadi.

Donolar ramzi Zardo'sht ilonning olijanoblik va mag'rurlik timsoli bolmish burgut bo'yniga chirmashib olgan tasviri ham bizni afsonalardan haqiqat sari boshlaydi. Bu ikki fazilat mujassamida ezgulik va ro'shnolikning haqiqiy fidoyilari yo'lini ko'radi. «Avesto» gigiyenasi aynan shu g'oyalari bilan sug'orilgan. Biroq «Avesto»da madh etilgan timsol va ta'limotlar negadir boshqa adabiyotlarda eslanmaydi. Nemis faylasufi Fridrix Nitsshe bundan mustasno. Uning «Zardo'sht shunday degan» asari faqat falsafiy umumlashmalar mahsuli bo'lmay, unda chuqur tarixiy tadqiqotlar asosida yuzaga kelgan va hayot haqiqatiga aylangan lavhalar bor. Sharq xalqlarining muqaddas kitobida madh etilgan ezgulik va jasorat timosli burgut bilan ilon haqida esa shunday deyiladi: «Burgut osmon uzra o'ljasini emas, balki qadrdon do'stini ko'targandek parvoz qilardi. Ilon burgut bo'yniga jonajon do'stini quchgandek chirmashib olgandi».

Savol tug'iladi: burgut bo'yniga chirmashgan ilonning Asklepiy hassasiga o'ralgan yoki kosaga egilgan ilon bilan qanday aloqasi bor? Hamma gap shundaki, afsonalar, mangu qahramonlar haqidagi hikoyat va rivoyatlar mazmunan o'zgarmasa-da, o'sha joy, tub xalq tarixiga mos ravishda shaklan o'zgarib, qo'shimchalar bilan boyib, avlodan-avlodga o'tadi. Muqaddas Avestodagi burgut bo'yniga chirmashgan ilon taqdiridagi shakl o'zgarishlari ham zamon va hududiy tasvirlar mevasi bo'lsa, ajab emas. Chunonchi, qadimgi yunon afsonasida burgut hassa bilan, o'rta asrlarga kelib hassa kosa bilan almashgan. Shunday

qilib, bizning kunlarimizda yagona timsol shaklini olgan - kosa ustiga egilib turgan ilon tasviri shakllangan. Ana shu shakl o'zgarishlarda biz xalqlaming milliy an'analari, tarixiy taraqqiyoti, madaniy va iqtisodiy ravnaqi in'ikosini ko'ramiz. Ma'lumki, IX-XI asrlar bayrog'ida ilon tasviri bo'lgan arab xalifaligi (asosiy qismini O'rta Osiyo tashkil etardi) saltanati musulmon - arab madaniyati va fani gullab-yashnagan davr hisoblanadi. Ilonga sig'inish, uni ulug'lash, yulduzlarga qiyoslab ilohiylashtirish, shunchalar ommalashgan ediki, bizning kunlarimizda rang tasvir va kiyishlarimizda koinot aksi keng o'rin olgandek, Asklepiyning ilon quchog'idagi tasvirlari ham Sharq xalqlari kiyimiga ko'chgandi. Boshqacha qilib aytganda, «Ilonbardor» Asklepiyning aynan qiyofasi tasvirga ko'chgandi. Rivoyatlarga qaraganda, Asklepiy hatto Xudo tomonidan joriy etilgan hayot qonunini buzib, o'lganlarni davolash yo'li bilan tiriltirgan. O't xudosi Zevs bundan g'azabga kelgan Appoloni tinchlantirish niyatida buyuk hakimni chaqmoq bilan jarohatlab, tabobat ilmining timsoli bo'lmish ilon bilan birga osmonu falakka olib chiqib ketgan.

Ilon zahri bilan insonga sog'liq, hatto qayta hayot in'om etguvchi timsol sifatida odamlar ongiga singib ketgan va bugungi kunda ham tabobatda shifokorning eng yaqin madadkori hisoblanadi. Unda ilon ygilib turgan kosa nima ma'noni beradi? Nega yndi vaza, ko'za, lagan yoki qozon emas, aynan kosa?

Qadimgi hind manbalarida kosa insonnig, avvalambor ayol tanasi, yer va osmon birlashishining ramzi bolgan. Shunga ko'ra, inson tanasi shaxsini o'ziga joylagan idish demakdir. Qadimgi Yunonda esa piyoda inson salomatligini mustahkamlash, dardlardan forig' etishga olib keluvchi bayram va marosimlarda foydalaniladigan idish sifatida e'zozlangan. Shu boisdan piyola bilan birga salomatlik ma'budasi Gigiyeya, ayrim hollarda tabobat xudosi Asklepiy tasvirlangan. Jumladan, O'rta Osiyo xalqlarida ham piyola boshqa idishlardan ko'ra qadriroq hisoblangan. Arab musulmonlari hukmronligi davrida ro'zg'orda foydalaniladigan buyumlarga Qur'on va hadislardan hikmatlar bitilgan. Kosaga esa sehrlovchi va shifobaxsh narsa sifatida e'tiqodlari baland bo'lgan. Bu e'tiqod faqat kosaning o'zi emas, uning ichidagi narsalarga ham aloqador bo'lgan. Masalan, vahima kasalini davolashda Makkada misdan tayyorlangan va gardishiga Qur'on oyatlari bitilgan kosadagi suv shifobaxsh hisoblangan. Emishki, u oddiy kosa bo'lmay, sehri bo'lib, afsun kuchiga ega emish. Kimki undan suv ichsa, dardiga shifo toparmish. Bordi-yu, kosa o'tgan ajdodlardan qolgan meros bo'lsa, u muqaddas hisoblanib, jomni boshqalarga davolanish uchun saxiylik bilan berib turgan. Balki afsonalardagi «Hayot kosasi». «Baxt jomi», «Sabr-bardosh kosasi» degan iboralar shu yo'sinda kelib chiqqandir.

Qadimda bo'lganidck, o'z zahri bilan inson salomatligiga xizmat qiladigan ezgulik va yaxshilik ramzi ilonning bugungi kunda ham bir necha xil tasviriy timsollarini ko'ramiz. Masalan, yer kurrasi fonida gulchambarlar bilan gir aylantirilgan tik kosaga o'ralgan ilon jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ramzi hisoblanadi. O'rta Osiyoning qadimiy xalqlari so'g'diylar, baqtriylar, xorazmiylarning uyg'onish davri fan-madaniyati, jumladan, tibbiyot fani va amaliyoti ravnaq topgan asrlardagi tibbiy timsoli burgut bo'yniga o'ralgan ilon tasvirini bugungi Sharq tabobati mazmuniga mos keladigan tarzdagi ramzini yaratsak bo'lmasmikin? Axir o'tmishda o'z milliy madaniyati, san'ati, tabobati an'analariga ega bo'lgan Movarounnahr xalqlarning bugungi vorislari qayta qurish, mustaqillik sharofati tufayli sharq xalqlari tibbiyotining ma'naviy va an'anaviy ramzini yaratib bo'lmaydimi? Balki, shifokorlarimizning hozirgi qiyin zamonda inson salomatligi, og'ir dardlar yo'liga g'ov solish borasidagi sa'y-harakatlariga kuch-quvvat baxsh etar. Har holda Ar-Roziy, Ibn Sino, Jurjoniyya o'xshagan buyuk tabiblari boigan sharq tabobati timsoliga ega bo'lsa, foydadan holi bo'lmasdi. Balki, biz musulmonlar ruhiyatiga monand timsol dunyoga kelar. Hamma gap hadik, ikkilanish va «qanday bo'larkin», deb soyasidan ham qo'rqish vahimasidan xalos bo'lib, dadil ishga kirishishda.

SHUKRONALIK MADHIYASI

(Mustaqilligimizning 10 yilligi munosabati bilan ToshDav II TI reklori quyidagi xat bilan

bizga murojaat qildi)

«Muhtaram prof. E.Y. Qosimov!

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 10 yillik bayramiga sovg'a tariqasida Toshkent Davlat Ikkinchi Tibbiyot instituti rektorati 2001-yilning 1-faslidagi mustaqillik, milliy istiqlol,

salomatlik va tibbiyot masalalariga bag'ishlangan risolalar to'plamini chop etishni rejalashtirgan.

Bu ilmiy-ma'rifiy to'plamda Respublikamizda va xalqimiz orasida katta e'tibor qozongan shifokor olimning ishtirok etishini chin dildan istaymiz.

Aziz yurtboshimizning oqilona olib borayotgan siyosati tufayli mamlakatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar, erishilayotgan yutuq va yangiliklar, mustaqillik, milliy istiqloq g'oyasi, milliy kadrlar tayyorlash va komil inson g'oyasi, salomatlik, sog'lom avlod tarbiyasi va tabobat ilmi ravnaqi sohalaridagi fikr va mulohazalaringiz hamda mustaqillik Sizing faoliyatingizda va shaxsiy hayotingizda qanday voqealarga boy bo'ldi? Mustaqillikni mustahkamlashda Sizingcha yana nimalar qilinishi, kelajagi buyuk davlat qurish yo'lidagi orzularingiz va rejalarinigizni 2-3 sahifada bayon etsangiz bizni g'oyat xushnud qilgan bo'lardingiz.

Risolangizni kutib qolamiz.

Ehtirom ila ToshDav2TI rektori, professor H.Yo. Karimov.»

Institutimiz rektorati topshirig'iga binoan biz ba'zi sa'y-harakatlarni amalga oshirdik. Ya'ni respublikamizdagi yirik jamoat arboblari, olimlar, shoir va yozuvchilarga biz tuzgan 10 savol bilan murojaat qildik. Quyida mazkur savollarga bizning javobimiz ham bayon qilinadi.

-Mustaqillikdan so'ng Sizing faoliyatingizda va hayotingizda qanday o'zgarishlar bo'ldi?

-Mustaqilligimizning o'n yilligi arafasida hayotim va faoliyatimdagi o'tgan davrni sharhlash, yutuq va kamchiliklarni mulohaza qilish hamda xalqimiz va vijdonimiz oldida sarhisob berish imkoniyati tug'ildi. Sho'ro davrida mustabid tuzum bizning butun faoliyatimizni, dunyoni, hayotni qanday idrok qilishimizni oldindan ko'rsatib, qolipga solib qo'yar edi. Bu qolipdan chiqish qat'iyon taqiqlangan bo'lib, har birimizning o'lchovimizni Moskva belgilab berar edi. Mustaqillik va istiqloq tufayli olamga, kundalik hayotimizga ochiq ko'z bilan qaraydigan bo'ldik. Ma'naviy merosimizdan va jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan bimalol foydalanish imkoniyati tug'ildi. Milliy mustaqillik erkin tafakkur, ilmiy izlanishlar, ta'lim-tarbiya faoliyatimda keng imkoniyatlar, yangi ufqlar ochib berdi. Masalan, 1994 yilda muborak haj ziyorati amallarini bajarishdek baxtga musharraf bo'ldim. Ona tilimda ijod qilish, milliy g'ururim va shuurimni namoyon etishda yo'lchi yulduz bo'ldi. Men mustaqillik tufayli inson eng buyuk zot sifatida kelajak baxti uchun ishlash, yashash, yaratish, ijod qilish zarurligini, buning uchun erkin va ozod bo'lish kerakligini ilk bor to'la his etdim.

-Siz mustaqilligimizni mustahkamlash yo'lida qanday faoliyat ko'rsatyapsiz?

-Avvalo ixtisosligim bo'yicha tibbiyot fani rivojiga o'z hissamni qo'shishga harakat qilyapman. Mustaqillik yillarida shogirdlarimdan 3 kishi fan doktori, 15 kishi fan nomzodi unvoniga ega bo'lishdi, 2 darslik, 26 o'quv-uslubiy qo'llanmalar, 200 dan ortiq ilmiy maqolalar chet el, MDH mamlakatlari va respublika ilmiy matbuotida e'lon qilindi. Ikki shogirdim (professorlar Sh.Ya. Zokirxo'jayev, M.Z. Zohidova) va kamina mehnati Amerika biografiya institutining Oltin medali va Angliyadagi Kembridj xalqaro biografiya markazining kumush medaliga sazovor deb topildi.

-Tibbiyot va sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar sur'ati sizni qoniqtiradimi?

-Tibbiyot sohasidagi islohotlarning o'ziga xos muammolari bor, albatta. Bu borada erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda kamchiliklar, xatolar bolishi tabiiy. Muhimi, ularni o'z vaqtida tuzatishda. Sog'liqni saqlash tizimida yangi yo'nalishga o'tish o'ta murakkab, ziddiyatli jarayon bo'lib, asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich amalga oshishi lozim. Jamiyat tirik organizm! Tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarning sur'ati iqtisodiy, texnikaviy va ma'naviyat sohalaridagi islohotlar bilan mutanosib bo'lmog'i kerak. - Tibbiyotdagi yosh avlodni o'qitish, komil insonni tarbiyalash, kasbiy va ma'naviy boyitish, burchga sodiqlik ruhini singdirish borasidagi taklif va mulohazalaringiz bilan o'rtoqlashsangiz.

a) O'qitishda adolat asosiy mezon bo'lmog'i kerak. Bosbqa sohalar kabi tibbiyotda ham o'qitish va talabalar bilimni baholashda samarali ishlar qilindi. Yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilishni jadallashtirish kerak. Kishi yuksak malaka va ma'naviy boylikdan manfaatdorlikni his qilsa natija yomon bo'lmaydi. Ya'ni bilimli, jonkuyar, o'z burchiga sodiq yoshlar qadrlanishi kerak. Demak, yosh avlod yetuk shifokor bo'lishi uchun uni chin inson etib, ta'lim-tarbiya berish, barcha shart-sharoitlarni yaratish lozim;

b) Yangi tibbiyot avlodning mustaqil, ijodiy fikrlovchi, buyuk o'zgarishlar qilishga qodir, kasbiga (deontologik) sodiq bo'lishi, pedagogik va ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatimni belgilaydigan asosiy mezondir. Insonning eng asosiy belgisi kelajagi qanday bo'lishini ko'rsatuvchi narsa uning odob-axloqidir. Yoshlarimiz ma'naviyatga boy, yuksak axloqli bo'lsalargina baxtli hayot qurishlari mumkin.

-Siz hozirgi zamon shifokorlarining qanday fazilatlariga ega bo'lishini istaysiz?

-Eng avvalo o'z kasbini sevishi, odamiylik fazilatlarini o'zida to'la mujassam etgan, o'ta madaniyatli va xushfe'l bo'lishi kerak. Bilim doirasi keng, zehni o'tkir, fikri tiniq, teran bo'lishi lozim. Bemorlarga beg'araz yordam ko'rsatishi, eng muhimi, ta'magir bo'lmasligi kerak. Va albatta, Buqrot qasamyodiga, Ibn Sino o'gitlariga va O'zbekiston shifokorlari qasamyodiga sodiq qolib o'z xalqiga sidqidildan xizmat qilishi lozim.

-O'zbekistonda yashab faoliyat ko'rsatgan, tibbiyot ilmiga va shifokorlik san'atini boyitishga hissa qo'shgan qaysi allomalarning nomini ayta olasiz?

-O'tmishda O'rta Osiyo hududida yashab, tibbiyot ilmini boyitgan va dunyoga tanitgan buyuk Abu Ali Ibn Sino va uning shogirdlari Jurjoniy, Masihiy, Ilohiylar va XX asrda esa O'zbekistonda yashab, fidoyilarcha ijod etgan, dunyoga tanilgan va tan olingan shifokor-olimlarimiz ko'p bo'lgan. Shulardan Zulfiya Umidova, Akbar Asqarov, Ergash Otaxonov, Asadulla Ma'rupov, Olga Pavlova, Muqaddam Ashrapova, Karim Yo'ldoshev, Akrom Mo'minov, Obidjon Orifjonov singari shifokorlarning nomlarini eslash o'rinlidir.

-Bugungi tibbiyot ilmining rivojida Sharq va xalq tabobatining o'rni haqidagi fikringiz.

-Zamonaviy tibbiyot ilmi odamzotda uchraydigan 10.000 dan ortiq kasalliklarni davolashda asosiy kuchni bemor vujudini tuzatishga qaratadi. Sharq va xalq tabobatida esa kishi ruhiyatini tiklash usullari ustuvorlik qiladi. Shuning uchun bugungi tibbiyot ilmi Sharq va xalq tabobati bilan omuxtalansa va o'zaro mutanosiblikda olib borilsa, tibbiy mo'jizalar yaratilgan va amaliy tibbiyot yanada boyigan va ravnaq topgan bo'lar edi. Shuni ta'kidlash kerakki, donishmand xalq tabobati o'zining hayotiy ildizlari bilan Sharq (Markaziy Osiyo, Xitoy-Tibet, Hindiston) tibbiyot ilmining poydevori bo'lib kelgan. Tibbiyot institutlarida Ibn Sino va Sharq tabobati boy merosi asoslarini o'qitishda yana ham ko'proq soatlar ajratilsa Xitoy va Hindiston olimlari bilan birgalikda fakultativ darslar tashkil qilinib, o'zaro muloqotda bo'linsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi, deb o'ylayman.

-Sizningcha, zamonaviy Ibn Sinolarni voyaga yetkazish uchun qanday shart-sharoitlar yaratish kerak?

-Bo'lajak Ibn Sinolarni yetishtirish uchun ziyoli va ayniqsa, shifokorlar oilasida tarbiya topgan iqtidorli yoshlardan tanlab olish va ular bilan yetuk mutaxassislar muntazam ravishda shug'ullanishlari kerak. Albatta, ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan laboratoriyalar barpo etish, irsiyat mutaxassisligini amaliyotda keng qo'llash, fanga investitsiyalarni olib kirish, jahon tibbiyot fani yutuqlaridan doimiy ravishda xabardor bo'lib turish lozim. Chunki sog'liqni saqlash tashkilotlarining statistikasi bo'yicha dunyoda har yili 6 mingdan ortiq turli nomda tibbiyot jurnallari nashr etilib, ularda 200 mingga yaqin maqolalar, tibbiyotning 8000 ga yaqin sohalarini qamrab oluvchi darslik va monografiyalar chop etiladi. Dunyo farmatsevtika sanoatlarida yiliga 3 mingdan ortiq yangi dori-darmonlar klinik sinovdan o'tmoqda. Mana shularning hammasidan bo'lajak Ibn Sinolarni xabardor etib borish lozim. Yana bir taklifim: Respublika «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tarkibida «Ibn Sinochi yoshlar harakati» tuzilsa va unga institutlardagi tibbiyot litseylari, kollejlari, o'rta tibbiy bilim yurtlaridagi talabalarni birlashtirib, «Kelajagi buyuk mamlakat xalqining salomatligiga posbon bo'laylik» shiori ostida ishlashni tashkil qiluvchi yoshlar jamoasi yaratilsa.

-Sog'lom avlod tarbiyasini takomillashtirish borasidagi fikringiz.

-Sog'lom avlodni shakllantirish va tarbiya qilish muammolari jamiyatda iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, mafkuraviy mutanosiblik va barqarorlik hukm surganda to'la-to'kis ochiladi. Eng avvalo, irsiy kasalliklarni kamaytirish va yo'qotish, onalar va bolalar salomatligini mo'tadillash, atrof-muhitni sanatsiya qilish (Ibn Sino ta'biricha, havoda zararli changlar bo'lmaganida - odam ming yil yashashi mumkin edi). Inson doimo sanitariya-gigiyena qoidalariga tushunib rioya qilishi, badantarbiya bilan uzulksiz shug'ullanishi, ovqatlanish madaniyatini o'zlashtirishi lozim.

-Kelajagi buyuk davlat qurish yo'lida orzularingiz va rejalaringiz.

-Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish mening asosiy orzuim, ilmiy va ta'lim-tarbiya faoliyatimni yanada yaxshilashga mo'ljallangan yangi darsliklar, qo'llanmalar, monografiya va maqolalar yozib, chop etish va shogirdlarim qatorini yanada keng aytirish mening kelajak rejalarimdir.

-III BOB

-QASAMYODLAR, NAQLLAR VA O'GITLAR B uqrot (gippokrat) qasamyodi

-Appolon hakam Asklepiy, Gigiya, Panatsiya hamda boshqa barcha xudo va ma'budalar guvohligida ushbu qasamimni yozma va og'zaki ravishda bildiraman.

-Har qanday sharoitda kuchim va aqlim yetguncha o'z burchimni halol va pok bajarishga,

menga vrachlik san'atini o'rgatgan kishilarni o'z ota-onamday ko'rishga va erishgan yutuqlarimni u bilan baham ko'rishga, zarur bo'lib qolganda esa unga jonimni berishga qasam ichaman. Uni avlodlarini o'z jigalarimday ko'rishga va ular xohlagan taqdirda esa bu san'atimni ularga hech qanday shartnomasiz va beminnat o'rgatishga, barcha pand-nasihatlarini, hamma bilimimni begonalarga emas, balki shu tibbiyot qasamiga va majburiyatiga bog'liq bo'lgan kishilargina, o'z farzandlarimga, ustozimning farzandiga, nogironlarga yetkazishga qasam ichaman. Men bor kuchimni va aqlimni kasallarning foydasiga, ularni har qanday zarar va adolatsizliklardan saqlashga sarf qilaman.

-Men hech kimga, hech qachon o'limga olib keladigan narsalarni bermayman. Shu kabi fikrlarga yo'l qo'ymayman, xuddi shunday, hech qaysi ayolga homilani olishga yo'l qo'ymayman. O'z hayotim va san'atimni pok va benuqson saqlayman. Bemorni davolayotganimda, shuningdek, davolay olmasam ham, odamzot hayotiga taalluqli nimaiki ko'rmay, eshitmay, sir saqlayman. O'z qasamimni buzmasdan bajarayotgan mendek kishiga vrachlik san'atida va hayotda abadiy baxt va shon-sharaflar bo'lsin. O'z qasamini buzgan kishilarga esa buning aksi bo'lsin.

-Maymonid qasamyodi

-«Ey, qudratli va himmatli Olloh, mening qalbimni sen yaratgan barcha narsalarga va hakimlik san'atiga bo'lgan muhabbatga to'ldirgin.

-Meni boylik va shon-shuhratga intilishdan asragin, toki shifokorlik burchimni bajarishimga halaqit bermasin.

-Mening qalbim kuchini shunday oshirginki, toki u boy va kambag'al, do'st va dushman, pok va gunohkor bandalarga birday xizmat qilishga hamisha tayyor boisin.

-Shunday qilginki, mening ko'zim faqat dard chekayotgan kimsanigina ko'rsin. Shunday qilginki, ongim barcha og'ir sharoitlarda ravshan qolsin, chunki tib ilmi buyuk va qimmatlidir, u sen yaratgan narsalarning hayoti va sog'lig'ini saqlash maqsadidadir.

-Shunday qilginki, bemorlarim menga va mening amaliyotimga ishonsinlar, men bergan ko'rsatma va maslahatlarga amal qilsinlar. Ulaming qalblarini yolg'ondan va shifokorlikdan xabari bo'lmagan yaqin qarindoshlarining turli maslahatlaridan hamda qilmishlaridan saqlagin.

-Ey, Olloh menga o'jar va qo'pol bemorlar bilan yaxshi munosabatda bo'lishga sabr-toqat bergin.

-Shunday qilginki, men hamma narsada me'yorda bo'lay, lekin fanga bo'lgan muhabbatim cheksiz bo'lsin.

-Meni hamma narsani bilaman, degan fikrdan uzoqlashtirgin.

-Menga nur, xohish va imkoniyat berginki, toki bilimimni yanada chuqurlashtirib, azob chekayotganlar foydasiga qo'llay.

Alisber navoiy tabiblar haqida

-Tabib o'z fanining mohir bilimdoni bo'lishi, bemorlarga mehr-shafqat bilan muomala qilishi, asl tib ilmiga tabiati kelishmog'i, donishmandlar so'ziga rioya qilib, ularga ergashmog'i, muloyim so'z va bemor ko'nglini ko'taruvchi andishali, xushfe'l bo'lmog'i kerak.

-O'tkir va shafqatli tabib Isoga o'xshaydi. Isoning ishi jonni duo bilan tanga kiritish bo'lsa, tabibning ishi esa tandan chiqmoqchi bo'lgan jonni davo bilan chiqarmaslikdir. Bunday tabibning yuzi xastalar ko'nglida sevimlidir, so'zi esa bemorlar joniga yoqimlidir.

-Uning har nafasi bemorlarga davo, har qadami esa xastalarga shifodir.

-Uning yuzi najot keltiruvchi, Hizrning beradigan sharbati esa tiriklik suvini eslatadi.

-Tabib agar o'z kasbiga mohir bo'lsa-yu, ammo o'zi badfe'l, beparvo va qo'pol so'z bo'lsa, bemorni har qancha muolaja qilganda ham baribir uning mijozida o'zgarish paydo qiolmaydi.

Tabobat fanidan savodsiz tabib xuddi jallod kabidir. U tig' bilan o'ldirsa, bu zahar bilan azoblaydi. Shubhasiz, jallod bunday tabibdan yaxshiroqdir. Zero, u gunohkorlarni oldiradi, bu esa begunohlarni halok qiladi. Hech bir gunohkor jallod qo'lida xor bo'lmasin, hech bir begunoh kasalmand bunday tabibga zor bo'lmasin.

Shirin so'zli mohir tabib tan xastaligiga shifodir, badfe'l, serjahl va savodsiz tabib esa el joniga balodir.

O'zbekiston shifokorlarining qasamyodi

Shifokor diplomini olayotgan bitiruvchi qo'yidagi mazmunda qasamyod qabul qiladi:

«Shifokor degan yuksak unvonni olib, tibbiyot faoliyatiga kirishar ekanman:

-o'zimning bor bilim va mahoratimni bemorni davolashga hamda inson sog'lig'ini saqlashga bag'ishlashga;

-yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi ijtimoiy ke'lib chiqishi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har bir bemorga kuch-g'ayratim va vaqtimni ayamay tibbiy yordam ko'rsatishga;

-bemorning sog'lig'ini shaxsiy manfaatlarimdan yuqori qo'yishga, kamtar va halol bo'lishga, o'z bilim va mahoratimni doimo oshirib borishga;

-shifokor sirini saqlashga;

-kishilarga hamisha mehr-muruwat va shifo topishlariga ishonch hadya etishga;

-Buqrot, Abu Ali ibn Sino singari ulug' tabiblarning shonli an'alarini davom ettirishga tantanali qasamyod qilaman.

Ushbu qasamyodga umrimning oxirigacha sodiq qolishga qasamyod qilaman».

Shifokorlar qasamyodni buzganliklari uchun qonunda be'gilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolar Sog'lig'ini Saqlash To'g'risidagi qonun, 44-bandi, 1996-y.

Birinchi kurs talabalarining tantanali va'dasi

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi kunida talabalar safiga kirar ekanman, tantanali qasamyod qilaman.

- O'zbekistonning mustaqilligini, uning konstitutsion tuzimini, demokratiya va qonunchiligini, xalq tomonidan saylangan mamlakat Prezidentining obro'-e'tiborini mustahkamlash va saqlashga;

- Mustaqil O'zbekiston Respublikasi fuqarosining shon-sharafini asrab-avaylashga, jamiyatning siyosiy barqarorligini, fuqarolar osoyishialigi va umummill'y totuvlikni eng yuksak q idriyat sifatida saqlashga;

- Mustaqil Vatan taqdiri bilan o'z taqdimni chambarchas bog'lashga, butun faoliyatimni, ona diyorga va uning buyuk kelajagiga baxshida etishga; xalq salomatligini saqlashga, tabiatni muhofaza qilishga;

- Tariximizni chuqur o'rganish va u bilan g'ururlanishga, insoniyat tafakkuri kamoliga ulkan hissa qo'shgan bobokalonlarimiz - Imom Buxoriy, Al-Farg'oniy, Bahouddin Naqshband, Al-Xorazmiy, Beruniy. Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy, Boburdek ajdodlarimiz merosini, ma'naviy sarchashmalarini chuqur o'rganishga, ular yoqqan chihoqlarini yanada munavvar etishga;

- Buyuk Davlat arbobi, sohibqiron Amir Temur vasiyatlariga amal qilishga;

- Ajdodlrd, ota-bobolar e'tiqod qilgan ma'naviy qadriyatlarni hurmat qilishga, odamlar ruhiyatini, ularning quvonch va tashvishlari. maqsad va intilishlarini angishga, ahil, pokiza bo'lib, adolatli va insof bilan yashashga;

- Hozirgi zamon bilimlari va ixtisosliklarini hormay-tolmay o'rganishga va egallashga, yetuk mutaxassi bo'lib yetishishga, bu bilan Vatanimning taraqqiyoti va gullab-yashnashiga hissa qo'shishga, uning XXI asrda jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashiga safarbar etishga;

- Xalqimizga xos bo'lgan yuksak ma'naviy qadriyatlar va insonparvarlik an'analari - oilaga, mahallaga, yoshi kattalarga, o'qituvchilar, ustozlar, murabbiylarga hurmatni doimo esda tutishga va ulug'lashga;

- Ota-ona oldidagi farzandlik burchimni unutmaslik va uni to'la ado etishga;

- Kursdoshlarim, o'rtoqlarim oldida o'zimni kamtar tutishga, ular bilan do'stlik aloqalarini tobora mustahkamiashga;

- Mehnatsevar, jismonan chiniqqan inson bo'lishga, Vatan va millat oldidagi insoniy va fuqarolik burchimni halol ado etishga, Vatanim, elim-yurtimni ko'z qorachig'imday asrashga;

- Millati, irqi, dinidan qat'i nazar barcha O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini hurmat etishga qasamyod qilaman.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasining madhiyasi

Assalom, navqiron buyuk oliygoh,

Bo'lajak shifokor uchun manzilgoh.

«Oltin» davrimizga dastur tuzuvchi,

Davolash siridan etuvchi ogoh.

Naqorat:

Gullayver, yashnayver, bag'ri keng dargoh,

Ajdodlar ilmidan aylayver ogoh.

Ustozu, shogirdlar- bo'lishsin omon,

Bu ulug' dargohni tanisin jahon.

Bemorlarni darddan xalos etaylik,

Donolar safini kengaytiraylik.

Mustaqil ona yuit kelajagini,

Sogiom avlodlarga taqdim etaylik.

Naqorat:

Gullayver, yashnayver, bag'ri keng dargoh,

Ajdodlar ilmidan aylayver ogoh.

Ustozu, shogirdla- bo'lishsin omon,

Bu ulug' dargohni tanisin jahon.

Malika Qodirova - patofiziologiya kafedrasi dotsenti «Tibbiyolnoma» gazetasi. 2001-yil, 2-son)

SO'Z QUDRATI HAQIDA DONOLAR O'GITI

Tabib bemorning sirini oshkor qilmasligi, o'ldiradigan dorilar bermasligi, har qanday yaramaslik va iflosliklardan uzoq bo'lishi, ayollarga xiyonat ko'zi bilan boqmasligi, beva va bechora hamda faqirlarni davolashga yumshoq til va shirin so'z bo'lishi kerak.

Buqrot

Ey quyosh yo'q sendek kezuvchi olam,

Menga ham yo'l ko'rsat, yo'lchiman men ham.

Muhabbat yo'lida ko'rdingmi bul kun,

Yuzi gardsiz, dili dardsiz bir odam?

Ibn Sino

Menga turkcha so'zlari yovvoyi tog' kiyigi kabi boldi. Shunga qaramay, ularni avaylab-asrab qo'lga o'rgatdim («Qutadg'u bilig»).

YusufXos Xojib

So'z joyu vaqtiga bo'lar ekan mos,
Sehru afsun uchun bo'lur asos.

Abdurahmon Jomiy

Ey oqil, so'zning kam bo'-oyog'i bor,
O'zga so'zga so'zing qistirma, zinhor,
Aqlu xush egasi, tadbirli inson
So'z boshlar suhbatdosh kim bo'lgan zamon.

Sa 'diy Sheroziy

Bor so'zni sanab tebranmasin til,
Ko'rib, o'ylab so'zla, keragini bil.
Uquvlini ko'rdim: oz-oz so'zladi,
Talay so'zladim deb o'kindi ko'p yil.

Yusuf Xos Xojib («Qutadg 'u biligu)

Berur ul o'likka jon so'zdin,
Tan aro kirgizur ravon so'zidin.

Alisher Navoiy hikmatlari

Tan kasalining asosi ko'p yemakdir, qalb kasalining sababi ko'p demakdir.

Tiling birla ko'nglingni bir tut.

So'zni ko'ngilda pishkormaguncha tilga keltirma,
Har nekim ko'ngulda bor- tilga surma.
Ko'ngul durji ichrj guhar so'z durur,
Boshar gulshanida samar so'z durur.
Oqil chin so'zdin o'zgani demas.
Ammo barcha chinni ham demak - oqil ishi emas.

Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz.

Og'izga kelganni demak nodonning ishi.

Og'izga kelganni yemak hayvonning ishi.

Insonning to'g'ri so'zlilik fazilati - uning najotkoridir.

Til ildomidin bo'lur g'aromat hosil,

Yuznav' nadomatu malomat hosil,

Oz so'zlaganidin istiqomat hosil,

Sokitligidin vale salomat hosil.

Chun sinsa ko'ngul zahmi zabon og'rig'idin,

Kim, ermas aning og'rig'i jon og'rig'idin.

Har neki sanga yetar lison (til) og'rig'idir.

Bilgilki, qatiq durur sinon (tana) og'rig'idin.

limning darajasi - sifatidadir.

Ko'p toatdan oz ma'rifat yaxshi.

Chin so'z mo`tabar, yaxshi so'z muxtasar.

Kam so'z ila elga o'limdan najot,

Kam so'z ila topib o'lik tan hayot.

So'z zohir zamir ishi ko'pragidin,
Til muxbir erur ko'ngul nikon emgagidin,
Fahm ayla kishi holini so'z demagidin,
Kim berdi xabar hadisi ko'nglidagidin.

(“Nazmul-javohir”, 41-bet)

Kishining so'zi (nutqi) uning aqliy kamolotidan darak beradi:

Odamki demak birla hiromiydiri bas,

So'z durri ishining intizomidum bas,

Sihhat onchaki, ahli aql komiduru bas,

Aqlig'a dalil aning kalomiduru bas.

(«Nazmul-javohir», 25-bet)

So'zlaganda diling bilan tiling bir bo'lsin, chunki dildagi tilga chiqadi:

Haq seni sevgay el bila bo'lsang,

Tilu ko'nglungni bir qilib birro'y,

Nuqta sursang shukuftau xandon,

Zist qilsang, kushodou xushro'y.

(«Arbain», 59-bet)

Demonkim ko'ngli poku ham ko'zi pok,

Tili poku so'zi poku o'zi pok.

(«Xamsa», 175-bet)

Tilki fasih va dilpazir bo'lg'ay - ho'broq bo'lg'ay.

Agar ko'ngul bila bir bo'lg'ay.

(«Mahbubul-qulub», 60-bet)

Xushmuomala, shirinso'z bo'l. Tiling bilan kishilarga ozor berma:

Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,

Har neki ag'yor durur yor aylar,

So'z qattig'i el ko'ngliga ozor aylar,

Yumshog'i ko'ngullarni giriftor aylar.

(«Nazmul-javohir», 43-bet)

Chin to'g'ri so'zla, nutqingda halol bo'l. Yolg'on so'z baxtsizlik keltiradi. Chin so'z

mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar... So'zki fasohat zevaridin muayyan emasdur, ancha chinlik zevari basdur. Yolg'onchi har necha so'zida fasihroq, so'zi qabih.

(«Mahbubul-qulub». 63-bet)

Xiradmand chin so'zdin o'zga demas.

Vale bari chin ham deguluk emas,

Kishi chinda so'z desa zebo, durur,

Necha muxtasar bo'lsa avlo durur.

(«Mahbubul-qulub», 83-bet)

Yaxshi, ezgu so'z (nutq) kishiga obro', baxt keltiradi. Ezgu so'zli bo'l:

Kim istasa mazhari karomat bo'lmoq,

Har nav' ishda istiqomat bo'lmoq,

So'zdir anga mujibi g'aromat bo'lmoq.

Til zabtidatur anga salomat bo'lmoq.

(«Nazmul-javohir», 30-bet)

Tildan tuhmat uchun foydalanma. Tuhmatchidan qoch, undan nafratlan:

Birovkim yolg'on so'zni birovga bog'lag'ay, o'z qaro bo'lg'on yuzin yog'lag'ay.

Kabira gunohdur-oz so'z kamki o'trukdur, zahra gunohdur-oz so'z

Hamki o'trukdur, zahri muhlikdur - agarchi miqdori o'ksukdur.

(«Mahbubul-qulub», 61-bet)

El aybini ayturg'a birovkim uzotur til,

O'z aybini fosh aylagali til uzotur bil.

(«Mahbubul-qulub», 66-bet)

Tilingni tiy. Ko'p so'z, ezma va vaysaqi bo'lma.

Bu zararlidir.

Befoyda so'zni ko'p aytma va foydalig' so'zni ko'p eshiturdin qaytma.

Oz degan oz yanchilur, oz yegan oz yiqilur.

(«Mahbubul-qo'lub», 82-bet)

So'zlaganda sharoitni, suhbatdoshingni hisobga ol, beo'rin so'z aytma «...Zolim va bedard suhbatida nuqta surma, nammom va nomard muloyamatida dam urma. Dono ilikdin borg'ondin so'z aytnas, o'tgan yigitlik orzu bilan qaytnas. («Mahbubul-qulub», 84-bet)

Bo'shog'iz bo'lma, suhbat sirlarini saqlashga o'rgan:

Qaysi majlisdakim eshitsang so'z,

Bilgil ul so'z sanga omonatdur,

Gar ani o'zga yerga naql etsang,

Ul omonatg'a bu xiyonatdur.

Uch yuz Ko'hi-Qofri kelida tuymoq,
Mag'ribdan Mashriqqa yeldek yugurmoq,
Yoinki zamonda yuz yil yolg'iz yasbamoq,
Nodon suhbatidan yaxshiroq.

Pahlavon Mahmud

Til ham ong singari qadimiydir

Donolar bisotidan

Til odamga o'z manfaatlarini qondirish uchun emas, aksincha, fikr-o'yi, tuyg'ular, o'zidagi haqiqat va ilhom uchqunlarini ifodalash va o'zgalarga in'om etish uchun berilgan.

V.Korolenko

Qanchalik so'z boyligim ko'p bo'lsa, boshqalarga shu qadar foydaliman, ta'sir doiram, e'tiborim shu qadar keng.

L.Feyerbax

Har qanday xalqning urf odatlarini bilay desang, avvalo uning tilini bilishga urin.

Pifagor

Ko'p tilni bilish - bitta qulfga tushadigan bir nechta kalitga ega bo'lish degan gap.

F. Voter

Kimki o'zga tillarni bilmasa, o'z tilini ham yaxshi tushunmaydi.

I.Gyote

Til boyligi tafakkur boyligidir.

N.Karamzin

Til madaniyat bilan yuksaladi.

A.Tolstoy

Til - tafakkur quroli... Tilga pala-partish munosabat - pala-partish, noaniq, taxminiy, ehtimol bilan fikrlash demakdir. Tildagi ravshanlik ravshan fikr natijasidir, ravshan fikr, turgan gapki, ravshan ifodani talab etadi.

V.Libknext

So'zdagi noaniqlik, shubhasiz fikr noaniqligining alomati.

L. Tolstoy

Xalq tiliga yaqin bo'ling, ikki-uch so'z jonli tasvir etuvi, oddiylik, qisqalik, teranlikni izlang.

A.Qahhor

Xalq tili hamisha milliy ruh bilan chambarchas bog'langan.

V.Gumbold

Til - millatning qalbi. Til g'oya, tuyg'u, tafakkurning jonli mujassamidir.

Talaffuz - tilning joni, u tilga faqat tuyg'ugina emas, dalillik ham baxsh etadi.

J.Russo

Chet so'zlarni, ayniqsa, zaruratsiz qabul qilish tilni boyitmaydi, aksincha buzadi.

A.Sumarokov

Til vatanparvar uchun muhim.

N.Karamzin

O'z tiliga munosabatiga qarab turib, har bir odamning madaniy darajasinigina emas, balki uning fuqarolik qadr-qimmatini ham aniq aytib bersa bo'ladi.

K.Paustovskiy

Til - bu xalqning tarixi. Til - bu taraqqiyot va madaniyat bosib o'tganyo'l.

A.Kuprin

So'z - hayotning buyuk quroli.

V.Korolenko

So'z bilan ifodalangan har qanday fikr ta'sir kolami tugamaydigan kuchdir.

L. Tolstoy

Til - eng xatarli qurol: so'z yarasidan ko'ra tig' yarasini davolash oson.

P.Kalderon

So'z sehridan kuchliroq so'z yo'q.

A.Frans

Yoqimli so'z - ajib mo'jizalar doyasi.

A.Qahhor

So'z - buyuk narsa: u bilan odamlarni birlashtirish yoki bir-birlari bilan yuz ko'rmas qilib yuborish mumkiri, so'z bilan mehr qozonish, so'z bilan nafrat va adovatga yo'liqisn mumkin. Odamlarni bir-biridan ajratadigan so'zni aytishdan saltan.

L. Tolstoy

Har qanday benatija so'z bcma'ni va quruq bo'ladi.

Demosfen

So'zaytishdan awaL har daqiqada so'zortidan kkladigan oqibatni o'yla.

I.Pavlov

So'z - gul, ish - meva.

Al-Xorazmiy

So'z - shamolga qarab uchadigan o'yinchoq pufak emas. U ish quroli: u ma'lum darajadagi og'irlikni ko'tarib turmog'i lozim. O'zgalar kayfiyatini qanchalik rom etishi va o'zgartirishiga qarabgina biz so'zning ahamiyatini va kuchini baholashimiz mumkin.

V.Korolenko

Til boyligi va notqlik san'ati barcha zamonlarda yonma-yon yashab kelgan.

A.Chexov

Til - bamisoli cholg'u asbobi: ehtimol g'ijjakdan ham nozik va murakkabdir. Yana shuni aytish lozimki, til ham, g'ijjak ham yuzaki bilishga toqat qilmaydi.

Oybek

Gapiraman desang, ikki holatda - aytmoqchi bo'lganingni atroflicha o'ylab olgach yoki bir narsani aytish zaruriyati tug'ilsagina gapir: faqat shu ikki holatda sukut saqlashdan ko'ra gapirgan ma'qul, boshqa paytda esa indamagan afzal.

Suqrot

Yaxshi gapirish, oddiy qilib aytganda, ovoz chiqara turib yaxshi o'ylash demakdir.

E.Renan

Shuni yodda tutingki, so'zlash qobiliyati hodisalar ichiga kirishning yagona va bebaho vositasidir.

N.Pirogov

Amalda qo'llanilmadimi, har qanday va'z ham behuda va quruq bo'ladi-qo'yadi.

Demosfen

Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi.

R.Emerson

Notqlikdan maqsad odamlarni ishontirishdir.

EChesierfild

Notiqning asosiy san'ati o'sha san'atini ko'zga tashlatmasligidir.

Kvintilian

Til hammaga, donolik esa kamdan-kam odamga nasib etadi.

K. Karon

Mujmal gapirish har kimning qo'lidan keladi, ravshan gapirish esa ayrim kishilarga xos.

G. Galiley

Nutqlarida teranlik yetishmagan notiqlar bu nuqsonlarini ezmalik bilan to'ldiradilar.

Sh.Monleske

Nutqning kuchi oz so'z bilan ko'p ma'noni angizata olishda.

Pluiarx

Nutq san'atida ko'p gapirishdan ko'ra, lo'nda gapirish qiyin.

I. Vinkelman

Ko'ningdagi niyatingnigina aytsang, hech vaqt ezma bo'lmaysan.

E.Delakrua

Yaxshi gap qisqa boisa, nur ustiga a'lo nur.

B. Crasian

Ma'qul gapirsang, hech qachon ko'p gapirmaysan.

J.Renyar

Buyuk aql egalariga oz so'zda ko'p ma'no berish xos bolgani singari, aqli kaltalar, aksincha, ko'p gapirib, tayinli bir narsa aytolmaydilar.

F.Laroshfuko

Notiqlik - javohirning o'zginasi, salmogiga qarab nur taratadi.

L. Tolstoy

So'zdagi aniqlik faqat uslub talabi, yaxshi dil talabigina bo'lib qolmay, balki eng avvalo ma'no talabidir: qayerdagi lanj gap bo'lsa, u yerda fikr ham sayoz bo'ladi.

K.Fedin

Notiqning eng ulug' fazilatlaridan bir zarur narsani aytishidagina emas, balki nozarur narsani aytmassligida hamdir.

Sitseron

Agar notiq gapirmoqchi bo'lgan narsasini mukammal bilmasa, notiqligi uch pul.

Sitseron

Nutq predmetni bilishdan kelib chiqmog'i va rivojlanmog'i lozim. Agar notiq uni qamrab ololmagan va o'rganmagan bo'lsa, har qancha notiqligi behuda.

Sitseron

Haqiqiy notiqlik aytilishi zarur bo'lgan jami narsani, faqat o'shani ayta bilishdir.

F.Laroshfuko

Ehtiyot bo'lib gapirish - notiqlikdan ham ustun.

F.Bekon

Ma'lumki, notiqlik har vaqt ham fikrlash bilan uyg'un kelavermaydi.

S. Moem

Gap kam joyda uning salmog'i ko'p.

V.Shekspir

Qisqalik tilni kuchaytiradi.

R.Sauti

Fikrning chuvalmasligi va, aksincha, uning erkin parvozi uchun lo'ndalik kerak.

Goratsiy

Katta nutqlar o'ta zerikarli va uinani nihoyatda e'tiborsiz tinglaydilar.

F.Bekon

Agar uzayib ketsa, eng yaxshi nutq ham jonga tegadi.

B.Paskal

O'tkir fikr ortiqcha izoh talab qilmaydi: hammasi ravshan boigach, ortiqcha izohning nima hojati bor? Ezmalik kaltabinlik belgisi. Ma'nosidan so'zi ko'p va'z va xatlarning bari odamning kaltabinligini ko'rsatadi.

A. Sumarokov

Odam qanchalik yaxshi so'zlamasin, shuni unutmangki, u keragidan ortiq gapira boshlasa, pirovardida bema'ni gap aytadi.

A. Dyuma (otasi)

Oz so'z bilan o'rnida keltirilgan bir nechtagina misol fikrni nurlantirib yuboradi. salmog'i va qadrini oshiradi, ammo misollar va tafsilotlar ko'payib ketsa, u har doim nutqni bo'shashtiradi.

L. Vovenarg

Jimjimador gapirishdan saqlan. Til oddiy va go'zal bo'lsin.

A. Chexov

Oddiygina qilib, aniq aytish nuimkin bo'lmagan fikryo'q.
Ravshanlik - tilning asosiy faziluti.

A. Gersen

Arastu

To'ppa-to'g'ri, xotirjam aytilgan so'z - eng to'g'ri so'z.

V. Shekspir

Chiroyli gapirish odamga kuch, ammo bir zumgina ta'sir etadi.

J. Russo

So'z fikr ifodasi va shuning uchun ham u ifodalanayotgan fikrga mutanosib bo'lmog'i kerak.

L. Tolstoy

So'z fikrni ifoda etadi: fikr ravshan bo'lmasa - so'z ham mujmal.

V. Belinskiy

Eng ajoyib fikr ham agar yomon ifodalansa, o'z qimmatini yo'qotadi, agar takrorlanaversa, odamni diqqinapas qiladi.

F. Volter

Fikr ravshanligi ifoda ravshanligini ta'minlaydi.

G. Flober

O'tkir so'z xuddi xatga tushganday, bolta bilan ham chopilmaydi.

N. Gogol

Nimani aniq tasavvur etolmasang, uni shu qadar chalkash gapirasan: noaniq va chalkash ifoda chalkash fikrning belgisi.

N. Chernishevskiy

Oddiygina gapirayotgan notiqqa taqlid etish avvaliga juda osonday tuyuladi, holbuki tajriba shuni ko'rsatadiki, aslida bundan qiyinroq narsa yo'q.

Sitseron

Miyalarida juda ko'p fikrlan boru, ammo gapga chechan bo'lmaganliklari tufayli so'zlay olmasliklarini ta'kidlaganlar hali o'zlarini uncha anglay olmagan kishilardir.

M. Molt en

Kishiga fikr kelsa, u ravshan gapiradi, lekin u fikrni singdirib olsa, yanada ravshanroq gapiradi.

V. Belinskiy

G'o'r fikrlarga tilingni xor etma va uni zinhor amalga oshirma.

V. Shekspir

Eng yaxshi til - tiyilgan til, eng yaxshi nutq - puxta o'ylangan nutq.

L. Tolstoy

So'z fikrni to'g'ri ifoda etsagina yaxshi; so'z charm qo'lqop kiyilganidek emas, balki badanning o'zidan o'sib chiqqan teridek bo'lsagina, fikrni to'g'ri ifodalaydi

V. Ushinskiy

Tez gapirgandan ko'ra o'ylab gapirish afzal. O'ylamay gapirish - mo'ljal olmay otish bilan baravar.

M.Servantes

Agar sen bir gapirishdan avval, ikki bor o'ylasang, ikki karra yaxshi gapirasan.

T.Pen

Kimki ko'p fikrlasa, oz gapiradi, chunki u oz so'zga ko'p ma'no singdirishga harakat qiladi.

U.Irvinch

Ushbu qoidaga doimo amal qil: so'zlarga - ixchamlik, fikrlarga esa kenglik kerak.

N.Nekrasov

Qalam - eng yaxshi muallim, qalamdan chiqqan nutq hozirgina o'ylaganidan ko'ra yaxshiroqdir.

Sitseron

Aytadigan gap bo'lmagan chog'da doimo yomon gapiradilar.

F. Volter

Masalaning mohiyati avval o'ylab olinsa, gap quyilib kelaveradi. Javohir singari to'yinib nafas olguvchi fikrlarga so'zlar bo'yin egib keladi.

M.Lermontov

Fikr qancha go'zal bo'lsa, ibora ham shu qadar jarangdor.

G.Flober

Notiqlik - fikr naqqoshligi.

B.Paskal

Chiroyli gapirishdan ko'ra, o'rinli gapirish yaxshiroq.

B.Grasman

Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo etish ham o'z-o'zidan kela qoladi.

I.Gyote

Gap so'zda emas, ohangda, qaysi so'zning qanday talaffuz etilishida.

V.Belinskiy

So'zlovchining gapirish ohangi, ko'z qarashlari, butun qiyofasida ham notiqlik aks etadi, bu - so'z saralashdan kam narsa emas.

F.Laroshfuko

Go'zal ish - go'zal so'zdan a'lo.

S.Smayh

Aytilayotgan har bir so'z zamirida notiqning ruhiyati ifodalansagina ma'ruza nishonga tegadi; o'sha ruhiyatni uyg'otgan kuch, o'sha ma'naviy holat sezilib turadi.

N.Shelgunov

Zehn tili, agar u yurakdan chiqsa o'z nishoniga tegadi. *J.Russo*

Qalbdan chiqqan so'z qalbgaga yo'l soladi.

Nizomiy

Ruhiyat kuchi va ehtiros odamlarni notiqqa aylantiradi.

Kvintillian

Yaxshi notiq bo'laman degan odam dangalini aytadi. Samimiy nutq, may va muhabbat singari, ayni shunday samimiyat tug'diradi.

M.Monten

Ma'ruzachining odobi so'ziga qaraganda ko'p ishontiradi.

P. Sir

Isnodli ishlarni qiladiganlarning ko'pchiligi chiroyli gapiradi.

Demokrit

Vijdonsiz notiqlar yomonni yaxshi deb tushuntirishga harakat qiladilar.

Aflotun

So'zdan halol foydalanish kerak.

N.Gogol

Notiq odam sofdil bo'lmog'i zarur. U o'z notiqligini suiste'mol qilmasligi kerak. *P. Ramus*

Odam tili bilan hayvondan ustun, ammo tildan nojoiz foydalansa hayvondan battar.

Sa 'diy

O'zgalarga biron narsa deyishdan avval, o'zingga aytib ko'r.

Seneka

Miyangga kelganini gapiraverishing shart emas, bu nodonlik bo'lur edi, lekin nimaniki gapirsang, bari dilingdagi fikringga mos tushmog'i lozim, aks holda ashaddiy yolg'onchilik qilgan bo'lasan.

M.Monten

Ma'ruza - ayollar ko'ylagi kabi hayoni saqlash uchun yetarlicha uzun va kishi diqqatini jalb qiladigan qisqa bo'lgani yaxshi.

Ye. Tareev

Qani endi o'zini ziyoli deb hisoblagan har bir odam tilimizga kerakli bir so'z olib kirsam, unutilgan biror so'zimizni tiriltirib, lug'atlarimizga qo'shsam.

Erkin Vohidov

So'z so'zlashda va undan jumla tuzishda uzoq andisha kerak.

Abdulla Qodiriy

Til boyligi tafakkur boyligidir.

Abdulla Qahhor

NUTQ, ODOB VA TABOB HAQIDAGI HADISLAR

1. Alloh taolaga so'zlarni eng yaxshi ko'ringani to'g'ri so'zdir.
2. Ba'zi bir so'zni sehri bor, ba'zi bir she'rda hikmat bor.
3. Quloqqa ozor beradigan so'z so'zlama.
4. Kishining jamoli (chiroyi) - tilidir.
5. So'zda turish, ahdiga vafo qilish - iymondandir.
6. Musulmonning yaxshisi - uning qo'lidan yoki tilidan boshqa musulmonlar ozor topmaganidir.
7. Tilini yaxshilagan bandaga Alloh rahmatini bersin.
8. Yaxshilikni chehralari ochiq, xushro'y odamlardan kutinglar.
9. Odamlarga keng qalbli bo'linglar, shunda odamlar ham sizga shunday bo'lurlar.
10. Inson xatoni ko'proq o'z tili bilan sodir qiladi.
11. So'zni qisqa qilishga buyurdim, chunki so'zni qisqa qilmoq yaxshidir.
12. Kishilarga shirin gapiringlar va taom beringlar.
13. Salomni keng tarqatinglar-orangizda do'stlik paydo bo'ladi.
14. Salomni oshkora qilinglar. Alloh taolo buyurgandek bir-biringizga do'st bo'linglar.
15. Allohga iymon keltirgandan keyin amallarning eng afzali odamlarga muhabbat qo'yuvchidir.
16. Iymonning afzali - sabrli va kechirimli bo'lishdir. Sadaqaning afzali - o'zing sog'lom, dunyoga muhabbating baland, yaxshi yashash orzusida va faqirlikdan qo'rqqan vaqting qilgan sadaqangdir. Sadaqani kechiktirma - to jon xalqumga kelguncha unga buncha, buncha muncha deb o'tirishingdan foyda yo'q.
17. Sadaqaning afzali - sog'lig'ida berilgan sadaqadir. Berayotgan qo'l olayotgan qo'ldan afzal - balanddir. Berishni qaramog'ingdagilardan boshla.
18. Sadaqaning afzali - musulmon bandani ilm o'rganmog'idir va musulmon bandaga ilm o'rgatmog'idir.
19. Mo'minlarning afzali - xulqi yaxshisidir.
20. Gunohi kabiralarning eng kattasi:
 - Allohga shirk keltirishidir;
 - nohaqqonto'kish;
 - ota-onaga oq bo'lish;

-yolg'ondan guvohlikka o'tish.

21. Alloh taolaga yaxshi ko'ringani - yetimlarga rahm qilgani.

22. Agar bir kishi sizga jonini topshirgan ekan - siz uni o'ldirmang.

23. Agar birov sizlarni ziyorat qilish uchun kelsa, uni izzat-ikrom bilan qabul qiling va ziyofat qiling.

24. Qaysi biringizning g'azabingiz kelsa - jim turing (gapirmang).

25. O'lgan kishilarning yaxshiliklarini gapiringlar, yomonliklarini gapirmanglar.

26. Kechirimli bo'linglar, sizlarga ham kechirimli bo'linadi.

27. Yaxshilikni rahmdil ummatlarimdan istanglar. Ularning atrofida ko'ngilli hayot kccchirasizlar. Yaxshilikni bag'ritosh odamlardan istamanglar, chunki ularga Allohning la'nati yog'ilib turadi. Alloh yaxshilikni yaratadi va unga loyiq kishilarni yaratadi va u kishilarga yaxshilikni sevdirdi va yaxshilik qilmoqlikni xush ko'rsatadi va u kishilarga yaxshilik islaganlarni yo'llaydi. Xuddi qurg'oqqa suv yo'llagandek. Yerni suv bilan tiriltirgandek yaxshilik ahli yaxshilik istovchilari bilan yaxshilikni ro'yobga chiqaradi. Dunyoda yaxshilik qiluvchi - oxiratda yaxshilikka erishuvchidir.

28. Mazlum odamni duoibadidan qo'rq, chunki u Alloh tomonidan qabuldir. Birovga zulm qilma.

29. Beshta narsani besh narsadan avval g'animat bil:

1. O'limdan avval hayotligingni.

2. Kasallikdan avval sog'ligingni.

3. Band bo'lib qolishdan avval bo'shligingni.

4. Keksallikdan avval yoshligingni.

5. Faqir bo'lmasdan oldin boyligingni.

30. Tani sihatlikka duoni ko'p aytinglar.

31. Alloh taolo ochiqqo'llikni va xush xulqiliklarni yaxshi ko'radi. Past xulqilikni yomon ko'radi. Og'zi buzuq odamni va yomon ish (uyat ish) qiladigan kishilarni yomon ko'radi, har bir ishda

mehribon bo'lish, shafqatli bo'lishlikni yaxshi ko'radi.

32. Albatta sizlar odamlarni hammasiga mol yctkaza olmaysizlar. Lekin ularga ochiq chchralik, xush xulqililigingizni yetkazasizlar.

33. Odamlar orasini buzadigan chaqimchilik so'zlarni so'zlamanglar.

34. Yolg'on gapirmanglar, chunki yolg'on gap iymonga ziddir.

35. Shoshilmaslik Allohdan, shoshilish shaytondan.

36. Kiyim kiyishda, yurish-turishda o'zini kamtarroq olish -iymondadir.

37. Hayo, uyalish - hammasi yaxshidir.

38. Kasal ko'rgani boruvchi kishi jannat bog'ida yurgandekdir.

39. Seni kasalingda kelib ko'rmagan odamni sen betobligida borib ko'r, senga hadya bermagan odamga sen hadya ber.

40. Yaxshilik qilmoq - yomon falokatlardan asraydi.

41. Kishi o'z bolasiga yaxshi odobdan ko'ra afzalroq narsa kiygizgan emas.

42. Kimki xulqi yomon boisa, o'zini azoblaydi. Kim kishilar bilan tortishaversa, hurmati ketadi, obro'si tushadi.

43. Qoiidan-u tilidan ozor bermagan kishi musulmondur.

44. Kim rahm qilmasa, unga rahm qilinmaydi.

45. Kim odamlardan uyalmasa - u Allohdan ham uyalmaydi.

46. Baxillikdan ham yomonroq kasal bormi?

47. Yomon suhbatdoshdan yolg'izlik yaxshi, yolg'izlikdan solih suhbatdosh yaxshi, jim o'tirmoqdan yaxshi so'z aytmoq yaxshi, yomon so'zlamoqdan yaxshi so'z aytmoq yaxshi, yomon so'z aytmoqdan jim o'tirgan yaxshi.

48. Salom bermasdan gap boshlagan odamga ijozat bermanglar.

49. Qaysi joyga vabo tushganini eshitsangiz- u yerga kirmanglar. Agar sizlar turgan yerga vabo tushsa, undan qochib chiqmanglar.

50. Taomning barakasi - taom yeyishdan avval va undan keyin qo'lni yuvishdadir.

51. Davo ham taqdiriylidir. Alloh tomonidan belgilangan. Alloh taoloning ijozati bilan shifo beradi.

52. Safar qilinglar - sog'lom bo'lasizlar.

53. Misvoq - og'izni tozalovchidir. Robbisini rozi qiluvchidir. Ko'zni ravshan qiluvchidir.

54. Birodaring aksa urganda uch marta tashmid ayt undan ziyodasi esa tumovdir yo nazladir.

55. Ey! Allohning bandalari davolaninglar, chunki Alloh taolo biror kasallikni yaratmagan, mabodo yaratgan bo'lsa, unga davo ham yaratgan. Illo bir kasallikning davosi yo'qdir - u

ham bo'lsa qariliktir.

56. Kimki qo'lida ovqat yuqi bilan uxlasa, biror balo yetsa -o'zini koyisin, o'zidan ko'rsin.

57. Kim tabiblik qilsa-yu, tabobat ilmini bilmasa-u javobgardir.

SO'NGGI SO'Z

Ushbu kitobni tayyorlab bosmaxonaga topshirish arafasida turganimizda, kutilmaganda beshafqat o'lim Erkin Qosimovdek ajoyib insonni oramizdan olib ketdi. Respublikamiz tibbiyoti og'ir judolikka uchradi.

U Toshkent Tibbiyot Akademiyasining professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sog'liqni saqlash xodimi, yuzlab malakali shogirdlarning ustози, butun umri, bilimi va tajribasini tibbiyotga, uning rivojiga baxshida etishi barobarida minglab xasta dillarga malham bo'lgan betakror inson edi.

Erkin Qosimovni nafaqat respublikamizda, balki xorij davlatlarida ham juda yaxshi bilishar, uning nomini yuksak ilm-zakatli inson sifatida chuqur hurmat va ehtirom bilan tilga olishardi.

Birgina qo'lingizdagi mana shu «Shifokorning nutq madaniyati va bemor bilan muloqot san'ati» kitobining o'zi shu vaqtgacha bir necha ming nusxada ikki marta nashr etildi. Kitobni nashrga tayyorlash ishlari yakuniga yetay deb qolgan bir paytda uni qo'lga olib ko'rish Erkin Qosimovga nasib etmaganidan qayg'udamiz.

Erkin Qosimov atrofdagilar bilan muomala va munosabatda o'zi yozganidek nutq madaniyatiga, muloqot san'atiga nihoyatda e'tiborli edi va shu fazilati bilan boshqa hamkasb do'stlariga o'rnak bo'la oldi, desam yanglishmayman. Erkin Yo'ldoshevich Qosimovning xayrli ishlaridan yana biri «Hamshira» jurnalining tashkilotchisi va ushbu nashrga bir necha yillar davomida bosh muharrirlik qilganligidir.

Xalqimizda «Yaxshidan bog' qoladi», degan maqol bor. Agar Erkin Qosimovning o'z mutaxassisligi va tanlagan yo'li atrofida yaratib ketgan bog'iga nazar tashlasak, bu insonning umri zoye ketmaganiga yana bir bor amin bo'lamiz. Bu bog'ning mevalaridan tibbiyotga umrini bag'ishlashga bel bog'lagan izdoshlari, o'sib kelayotgan yosh avlod, shogirdlari, hamkasblari juda ko'p bahramand bo'ladilar va har gal ushbu kitobni qo'lga olganlarida go'zal qalb egasi Erkin Qosimovni faqat yaxshi nom bilan e'slashlariga shubha vo'q.

Bugun u oramizda yo'q bo'lsa-da, ustozning barcha ezgu ishlari, qoldirgan ma'naviy merosi, ulkan iajriba maktabi va eng muhimi boshqalarga ibrat bo'la oladigan insoniy sifatleri bilan safimizda barhayot yashaydi.

Abdukarim USMONXO'JAYEV,

*Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent. "Madadi Sino"
sog'lomlashtirish akademiyasining raisi*